



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004

6(1)/2026

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



6(1)/2026

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2026, № 6, iyun

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Bezudnaya A. G., Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Razumovskiy V. M., Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Zahidov A. A., Texas universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

Kovalev I. V., Sibir Federal universiteti professori, texnika fanlari doktori

Ibrayeva K. T., Tyumen davlat universiteti, Ekologiya va qishloq xo'jaligi biologiyasi instituti, texnika fanlari nomzodi

Tursunjon M., Shinjon Uyg'ur Avtonom Rayoni Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi, Paxta ilmiy-tadqiqot instituti professori, qishloq xo'jalik fanlari doktori

Ai Syan Tao, Shinjon Universiteti Aqlli qishloq xo'jaligi instituti direktori, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

Tursunov D.A., O'sh davlat universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

Zagdkhorol Bayasgalan, Mongolian University of Science and Technology professori, fizika-matematika fanlari doktori

Gumerov Renat, Qozon federal universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

Babayeva F. Sh., Ozarbayjon milliy fanlar akademiyasi professori, falsafa fanlari doktori

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoirra Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Jamilova Bashorat Sattorovna, filologiya fanlari doktori, professor

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Yuldosheva Dilorom Nigmatovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sharipov M. Z., fizika-matematika fanlari doktori, professor

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Qurbonova Manzila Bakiyevna, tarix fanlari nomzodi, professor

Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori, professor

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybullayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'rinova Bozorgul Zokirovna, tarix fanlari doktori, dotsent

SERIYA: M A T E M A T I K A

MUNDARIJA *** CONTENTS *** СОДЕРЖАНИЕ		
МАТЕМАТИКА *** MATHEMATICS *** МАТЕМАТИКА		
Rasulov T.H.	Uchinchi tartibli blok operatorli matritsalarining nisbiy chegaralanganligi	3
Qo'shaqov X.Sh., To'ychiboyeva G.Sh.	Uchtalik cheksiz differensial tenglamalar sistemasi yechimining mavjud va yagonaligi	9
Akramov I.I., Primqulov A.A.	Derivation of the linearized BGK equation using an orthogonal polynomial basis	16
Asqaraliyeva M.A.	Ikkinchi tur parabolik-giperbolik tipdagi tenglama uchun Bitsadze – Samarskiy sharti bilan qo'yilgan masala tahlili	24
Begimkulov F.Kh.	Spectral analysis of nonlocal degenerate elliptic equations with singular coefficients	34
Shodiyev M.U., Beshimova Sh.X.	Jordan canonical forms for matrices over finite fields and nilpotent matrices over residue class rings	47
Mansurov D.R., Bozorov S.B., Oltiyev A.B.	Proporsional intensivlik modeli bahosi uchun muvofiqlik mezoni	53
Davronov J.R., Elmurodova S.S., Ko'klamova M.U.	$W_2^{(2,1)}(0,t)$ Fazosida ikki nuqtali vaznli kvadratur formulalar qurish	62
Kuliyev K.D., Tilavov R.A., Ergashev Sh.Q.	Birinchi tartibli diskret Hardy tengsizligi	67
Husenova J.T., Ahrorova H.H.	Matematik olimpiada masalalarini yechishda kesmada uzluksiz funksiyalar xossalariidan foydalanish	73
Khamidov Sh.I., Niyozkhonov L.L., Sharipova S.F.	Discrete spectrum of the even part of a lattice Schrödinger operator with on-site and nearest-neighbour interactions	81
Qushaqov Kh.Sh., Fazliddinova M.D.	Elementary methods for finding optimal solutions to economic problems	89
Rasulova G.A.	Modulli tenglamalar sistemalari va tengsizliklarni yechish usullari	94
Durdiyev U.D., Raxmatova N.J.	On the Cauchy problem for a time-dependent equation with a fractional power of the Bessel operator	102
Daminova M.S., Safarov R.Ch.	Laplas tenglamasiga qo'yilgan Dirixle masalasini Furiye usuli bilan yechish	110
Usmonov D.A., Tukhtasinova S.N.	Dirichlet-Neumann problem for a second-order nonlinear ordinary differential equation degenerating at the boundary of the domain	114
Turdiyev X.X., Shodiyev M.U., Hakimova B.B.	Nolokal chegaraviy shartlarga ega bo'lgan balka tenglamasi uchun boshlang'ich chegaraviy masalasi	120
Durdiyev U.D., Turdiyev H.H., Ibrohimov A.A.	Chegarada egilish momenti nolga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak plastinkaning tebranish tenglamasi uchun boshlang'ich chegaraviy masala	129
Ummatova M.A., Gofurova M.A.	Simmetrik ko'phadlar va ularning elementar matematikaga ayrim tatbiqlari	141
Xalilov Q.S., Xolmatova R.X.	Parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun 3-tur integral shartli masala haqida	146
Косимова М.У.	Смешанная задача для уравнения, составленного из комбинаций нелинейных уравнений $m\kappa\Phi(+1)$ и $m\kappa\Phi(-1)$	153

Мухиддинова А.Т., Вохидов К.Х., Мирсабурова Г.М., Режаматов Х.Ф.	Применение дробных производных для прогнозирования временных рядов и аномалий	159
Саидова Н.М.	Исследование прямой задачи для интегро-дифференциального псевдогиперболического уравнения	163
Чай З.С., Мухиддинова А.Т., Вохидов К.Х., Хамроева З.К.	Вычисление интегралов дробного порядка: алгоритмы и методы	171
Тожиев Т.Х., Исмоилова Д.С.	Несмещённая и ε - смещённая оценки для решения задачи Коши для обобщённого уравнения неизотропной диффузии	176
Мухиддинова А.Т., Вохидов К.Х., Рахмонова Д.Ш., Режаматов Х.Ф.	Математическое моделирование экономических задач	186
Умматова М.А.	Методика изучения сложных высказываний	191
Хайитова Х.Г.	Метод вычисления интегральных уравнений Фредгольма посредством определителей	196
Juraev R.M.	Functional Alexandroff topology on exponential space	201
Soleev A.S., Kurdashov Sh.M.	Finding the local parametric expansion of a three-dimensional nonlinear algebraic system around small singularities	206
Xolikov S.X., Keldiyorova M.N.	Bo'lakli uzluksiz argumentli nochiziqli differensial tenglama uchun Koshi masalasi	212
Yodgarov S.J., Abdurahmatova M.O., Omonov O.I.	Haqiqiy ko'rsatkichli Bernulli tengsizligining kvadratik kuchaytirilgan variantlari va ularning ko'p o'zgaruvchili umumlashmalari	217
Эрмаматова З.Э., Ахмадова М.Т., Эрмаматова Б.Э.	Интегральное представление решения векторного уравнения Гельмгольца в ограниченной области	223
Madirimov M., Nurillayev M.E., Rizayev R.K., Jabborov M.M.	Turli sanoq sistemalarida bo'linish belgilari	231
Nurillaev M.E., Rizaev R.K., Fayziev A.S.	Tensor product of vector spaces and some properties	237
Madirimov M., Koshnazarov R.A., Rajabov U.T., Omonov O.I., Xayrullayev D.B.	Matematik analiz elementlarini o'qitishda harakatning mo'ljalli asosini shakllantirish	241
Juraqulov A.J., Juraqulov U.J.	Microlocal analysis of the wave front set for distributions with compact support	248
Boltayev A.A., Samadova F.M.	Uch nuqtali chegaraviy masalalar uchun Grin funksiyasi	253
Нуралиева Н.Ш., Гийосова Ф.У.	Многоточечные нелокальные задачи с параметром для дифференциальных уравнений второго порядка	257
Нуриддинов Б.З.	Математическая постановка задачи распространения собственных волн в многослойных цилиндрических телах	269

UCHINCHI TARTIBLI BLOK OPERATORLI MATRITSALARNING NISBIY CHEGARALANGANLIGI

Rasulov To'lg'in Husenovich,
Buxoro davlat universiteti professori,
fizika-matematika fanlari doktori (DSc), Buxoro, O'zbekiston
rth@mail.ru, t.h.rasulov@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada uch diagonalli 3×3 o'lchamli blok operatorli matritsalar sinfi o'rganilgan bo'lib, ular uchun nisbiy chegaralanganlik hamda tartib tushunchalari kiritilgan va asoslab berilgan. Xususan, o'rganilayotgan operatorli matritsaning diagonal hamda diagonal bo'lmagan (ya'ni, yuqori va quyi diagonallarni tashkil etuvchi) bloklari orasidagi o'zaro bog'liqlik va ularning funksional tahlildagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Olingan natijalar uch diagonalli blok operatorli matritsalar nazariyasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularni turli amaliy va nazariy masalalarda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: uch diagonalli operatorli matritsa, Banach fazosi, nisbiy chegaralanganlik, tartib.

ОТНОСИТЕЛЬНАЯ ОГРАНИЧЕННОСТЬ БЛОЧНО-ОПЕРАТОРНЫХ МАТРИЦ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА

Аннотация. В данной статье исследуется класс трёхдиагональных блочных операторных матриц размерности 3×3 , для которых вводятся и обосновываются понятия относительной ограниченности и порядка. В частности, анализируется взаимосвязь между диагональными и внедиагональными (то есть образующими верхнюю и нижнюю диагонали) блоками рассматриваемой операторной матрицы, а также их роль в функциональном анализе. Полученные результаты способствуют дальнейшему развитию теории трёхдиагональных блочных операторных матриц и расширяют возможности их применения в различных теоретических и прикладных задачах.

Ключевые слова: трёхдиагональная блочно-операторная матрица, банахово пространство, относительная ограниченность, порядок.

ON THE RELATIVE BOUNDEDNESS OF THIRD-ORDER BLOCK OPERATOR MATRICES

Abstract. The article provides a study of the class of tridiagonal block operator matrices of size 3×3 , for which the notions of relative boundedness and order are introduced and justified. In particular, the interplay between the diagonal and off-diagonal (i.e., forming the upper and lower diagonals) blocks of the considered operator matrix is analyzed, along with their role in Functional Analysis. The obtained results contribute to the further development of the theory of tridiagonal block operator matrices and expand the possibilities of their application in various theoretical and applied problems.

Key words: tridiagonal block operator matrix, Banach space, relatively boundedness, order.

Kirish. Chiziqli operatorlarning spektrlari matematikaning ko'plab sohalarida hamda turli amaliy masalalarda muhim rol o'ynaydi. Spektr haqidagi analitik ma'lumotlarni olish murakkab bo'lib, sonli yaqinlashuvlar har doim ham samarali natija beravermaydi, ayniqsa operator o'z-o'ziga qo'shma yoki normal bo'lmagan hollarda.

So'nggi yillarda chiziqli operatorlar nazariyasi, xususan, operatorli matritsalar spektral tahlili matematikaning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi [1, 2]. Bunday operatorlar funksional analiz, kvant mexanikasi, matematik fizika hamda differensial tenglamalar nazariyasida keng qo'llaniladi [3, 4, 5]. Ayniqsa, blok operatorli matritsalar murakkab tizimlarni modellashtirishda qulay vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki ular ko'p komponentli sistemalarning ichki tuzilishini aniq ifodalash imkonini beradi.

Uchinchi tartibli blok operatorli matritsalar alohida qiziqish uyg'otadi, chunki ular uch komponentli tizimlarga mos keladi va amaliy masalalarda tez-tez uchraydi. Bunday matritsalar ko'pincha uch diagonalli ko'rinishga ega bo'lib, bu esa ularning spektral xossalarini o'rganishda muhim soddalashtirishlar kiritadi.

Shu bilan birga, ushbu operatorlarning chegaralanganlik xossalari, xususan, nisbiy chegaralanganlik masalasi ularning spektrini, yopiq ekanligini hamda turli funksional xossalari aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Nisbiy chegaralanganlik tushunchasi operatorlar orasidagi bog'liqlikni tavsiflashda muhim vosita hisoblanadi. Agar bir operator boshqa bir operatorga nisbatan chegaralangan bo'lsa, u holda ushbu operatorning spektral va analitik xossalari o'rganish ancha osonlashadi [6]. Ayniqsa, cheksiz o'lchamli fazolarda aniqlangan operatorlar uchun bu tushuncha fundamental ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, uchinchi tartibli blok operatorli matritsalar komponentlari orasidagi nisbiy chegaralanganlik shartlarini aniqlash va tahlil qilish muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada uchinchi tartibli blok operatorli matritsalar uchun nisbiy chegaralanganlik shartlari batafsil o'rganilgan. Xususan, matritsaning diagonal va diagonal bo'lmagan elementlari orasidagi bog'liqliklar tahlil qilingan hamda ularning operator sifatidagi xossalari ta'siri aniqlangan. Shuningdek, olingan natijalar asosida ushbu turdagi operatorlarning spektral xususiyatlarini tadqiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot natijalari nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki matematik fizika, kvant tizimlari hamda murakkab dinamik jarayonlarni modellashtirishda ham qo'llanilishi mumkin. Shu jihatdan, uchinchi tartibli blok operatorli matritsalarining nisbiy chegaralanganligini o'rganish zamonaviy matematik tahlilning muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

1. Uch diagonalli 3×3 o'lchamli blok operatorli matritsalar va ularning nisbiy chegaralanganligi. Uch diagonalli blok operatorli matritsalar - bu maxsus turdagi blok operatorli matritsalar bo'lib, unda nolga teng bo'lmagan elementlar faqat pastki diagonalda, asosiy diagonalda va yuqori diagonalda joylashadi, qolgan barcha elementlar esa nolga teng bo'ladi.

Faraz qilaylik, $\mathcal{H}_i, i = 1, 2, 3$ Banax fazolari bo'lsin. $\mathcal{H} = \mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2 \oplus \mathcal{H}_3$ Banax fazosida

$$\mathcal{A} = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & 0 \\ A_{21} & A_{22} & A_{23} \\ 0 & A_{32} & A_{33} \end{pmatrix} \quad (1)$$

uch diagonalli blok operatorli matritsani qaraymiz. Bu yerda $A_{ij}: \mathcal{H}_j \supset D(A_{ij}) \rightarrow \mathcal{H}_i, i, j = 1, 2, 3, |i - j| \leq 1$ matritsaviy elementlar zich aniqlangan yopiq chiziqli operatorlar bo'lib, $D(A_{ij})$ orqali A_{ij} operatorning aniqlanish sohasi belgilangan. Agar barcha

$$D(A_{11}) \cap D(A_{21}), \quad D(A_{12}) \cap D(A_{22}) \cap D(A_{32}), \quad D(A_{23}) \cap D(A_{33})$$

kesishmalar mos ravishda $\mathcal{H}_1, \mathcal{H}_2, \mathcal{H}_3$ Banax fazolarda zich bo'lsa, u holda $\mathcal{A}$ blok operatorli matritsa o'zining

$$D(\mathcal{A}) := (D(A_{11}) \cap D(A_{21})) \oplus (D(A_{12}) \cap D(A_{22}) \cap D(A_{32})) \oplus (D(A_{23}) \cap D(A_{33}))$$

aniqlanish sohasida zich aniqlangan ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Biroq bu operator yopiq yoki yopiluvchan bo'lishi shart emas.

Quyida biz diagonal bo'yicha dominantlanuvchi bo'lgan blok operatorli matritsalar sinfini ko'rib chiqamiz. Shu maqsadda, o'quvchiga qulaylik uchun nisbiy chegaralanganlik tushunchasini eslatib o'tamiz.

Faraz qilaylik, $(E_i, \|\cdot\|_i), i = 1, 2, 3$ Banax fazolari va $A: E_1 \supset D(A) \rightarrow E_2, S: E_1 \supset D(S) \rightarrow E_3$ chiziqli operatorlar bo'lsin.

Agar $D(A) \subset D(S)$ va shunday $a_s, b_s \geq 0$ o'zgarimas sonlar topilib,

$$\|Sx\|_3 \leq a_s \|x\|_1 + b_s \|Ax\|_2, \quad x \in D(A) \quad (2)$$

tengsizlik bajarilsa, u holda S operator A -chegaralangan (yoki A operatorga nisbatan chegaralangan) deyiladi. Biror $a_s \geq 0$ uchun (2) tengsizlikni qanoatlantiruvchi b_s sonlarning eng kichigiga S operatorning A -chegarasi (yoki S operatorning A operatorga nisbatan chegarasi) deyiladi va δ_s kabi belgilanadi.

Agar $D(A) \subset D(S)$ va har qanday $(x_n)_1^\infty$ chegaralangan ketma-ketlik uchun $(Ax_n)_1^\infty \subset E_2$ ketma-ketlik chegaralangan bo'lib, ushbu $(Sx_n)_1^\infty \subset E_3$ ketma-ketlik o'zida yaqinlashuvchi ketma-ketlikni saqlasa, u holda S operator A -kompakt (yoki A operatorga nisbatan kompakt) deyiladi.

Ta'kidlash joizki, agar A yopiq operator, S esa yopiluvchan operator bo'lib, $R(A), R(S) \subset E_3$ munosabat bajarilsa, u holda $D(A) \subset D(S)$ ekanligidan S operatorning A -chegaralangan bo'lishi kelib chiqadi

([6], IV.1.5 izohga qarang). Ushbu

$$\|Sx\|_3 \leq a_s \|x\|_1 + b_s \|Ax\|_2 \leq a_s \|x\|_1 + b_s \|(A + S)x\|_3 + b_s \|Sx\|_3, \quad x \in D(A) \quad (3)$$

tengsizlikga ko'ra, agar S operator A -chegaralangan bo'lib, uning A –chegarasi uchun $\delta_S < 1$ shart bajarilsa, u holda S operator $(A + S)$ –chegaralangan bo'lib, uning $(A + S)$ –chegarasi $\leq \delta_S / (1 - \delta_S)$ tengsizlikni qanoatlantirishini oson ko'rish mumkin ([6], IV-bob, 1, Masala 1.2).

Shuningdek ([6], V.4.1-bo'lim, (4.1), (4.2)), ushbu (2) tengsizlik biror $a'_S, b'_S \geq 0$ o'zgarmlar uchun

$$\|Sx\|_3^2 \leq a'^2_S \|x\|_1^2 + b'^2_S \|Ax\|_2^2, \quad x \in D(A) \quad (4)$$

tengsizlikning bajarilishiga ekvivalent ekanligini oson ko'rsatish mumkinki; shuningdek, biror $\delta > 0$ uchun (2) va $b_S < \delta$ munosabatlar bajarilishi uchun biror $b'_S < \delta$ uchun (4) munosabatning bajarilishi zarur va yetarlidir. Demak S operatorning A –chegarasi bo'lgan δ_S soni biror $a'_S \geq 0$ soni uchun (4) munosabat bajariladigan

$b'_S \geq 0$ sonlarning eng kichik qiymati sifatida ham aniqlanishi mumkin.

Agar A yopiq operator bo'lsa, u holda $D_A = (D(A), \|\cdot\|_A)$ qism fazo $\|x\|_A = \|x\|_1 + \|Ax\|_2$, $x \in D(A)$ grafik normaga nisbatan Banach fazosi bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, S operator A –chegaralangan operator bo'lishi uchun S operator D_A qism fazoni E_3 fazoga o'tkazuvchi chegaralangan operator bo'lishi zarur va yetarlidir; S operator A –kompakt bo'lishi uchun S operator D_A qism fazoni E_3 fazoga o'tkazuvchi kompakt operator bo'lishi zarur va yetarlidir. Shu sababli, A –kompakt operator hamisha A –chegaralangan bo'ladi.

1-tasdiq. Faraz qilaylik, $(E_i, \|\cdot\|_i)$, $i = 1, 2, 3, 4$ Banach fazolari va $A: E_1 \supset D(A) \rightarrow E_2$, $S: E_1 \supset D(S) \rightarrow E_3$, $T: E_1 \supset D(T) \rightarrow E_4$ chiziqli operatorlar bo'lsin. U holda S va T operatorlarning har ikkalasi A –chegaralangan bo'lishi uchun shunday $a', b' \geq 0$ o'zgarmlar topilib,

$$\|Sx\|_3^2 + \|Tx\|_4^2 \leq a'^2 \|x\|_1^2 + b'^2 \|Ax\|_2^2, \quad x \in D(A)$$

tengsizlikning bajarilishi zarur va yetarlidir.

Tasdiqning zaruriylik qismi oson isbotlanadi. Yetarlilik qismi esa $\|Sx\|_3 \leq \|Sx\|_3 + \|Tx\|_4$, $x \in D(A)$ tengsizlikdan to'g'ridan to'g'ri kelib chiqadi.

Endi diagonal bo'yicha dominantlanuvchi uch diagonalli blok operatorli matritsa ta'rifini keltiramiz.

1-ta'rif. Agar

i) A_{21} operator A_{11} –chegaralangan,

ii) A_{12} va A_{32} operatorlarning har biri A_{22} –chegaralangan,

iii) A_{32} operator A_{33} –chegaralangan bo'lsa, u holda (1) tenglik bilan aniqlanuvchi A blok operatorli matritsa diagonal bo'yicha dominantlanuvchi uch diagonalli blok operatorli matritsa deyiladi.

Izoh. $\mathcal{A}$ blok operatorli matritsa elementlari yopiq deb faraz qilingani sababli dominantlik turi aniqlanish sohasi orasidagi munosabatlar orqali quyidagicha ifodalanadi:

$\mathcal{A}$ diagonal bo'yicha dominantlanuvchi bo'lishi uchun

$$\begin{cases} \text{i)} & D(A_{11}) \subset D(A_{21}), \\ \text{ii)} & D(A_{22}) \subset D(A_{12}) \cap D(A_{32}), \\ \text{iii)} & D(A_{33}) \subset D(A_{23}), \end{cases}$$

bo'lishi zarur va yetarlidir; mazkur holda $\mathcal{A}$ blok operatorli matritsa

$$D(A) = D(A_{11}) \oplus \dots \oplus D(A_{nn}) \quad (5)$$

aniqlanish sohasida zich aniqlangan bo'ladi.

$\mathcal{A}$ blok operator matritsa yopiq operator bo'lishini ta'minlash uchun matritsaviy elementlarga bir-biriga nisbatan aniqroq farazlar kiritish zarurati mavjud.

2-ta'rif. Faraz qilaylik,

i) A_{21} operator A_{11} –chegaralangan bo'lib, A_{11} –chegarasi δ_{21} ga teng,

ii) A_{12} (mos ravishda A_{32}) operator A_{22} –chegaralangan operator bo'lib, A_{22} –chegarasi δ_{12} (mos ravishda δ_{32}) ga teng,

iii) A_{23} operator A_{33} –chegaralangan operator bo'lib, A_{33} –chegarasi δ_{23} ga teng bo'lsin.

Quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$\delta := \max \left\{ \sqrt{2}\delta_{21}, \sqrt{2}\delta_{23}, \sqrt{\delta_{12}^2 + 2\delta_{32}^2}, \sqrt{\delta_{32}^2 + 2\delta_{12}^2} \right\}. \quad (6)$$

U holda (1) tenglik bilan aniqlangan $\mathcal{A}$ blok operatorli matritsa δ tartib bilan diagonal bo'yicha dominantlanuvchi deyiladi.

Faraz qilaylik, $\text{diag}\{A_{11}, A_{22}, A_{33}\}$ diagonal blok operatorli matritsa bo'lib, A_{11}, A_{22}, A_{33} uning diagonal elementlari bo'lsin.

Endi ikki turdagi $\mathcal{T}$ va $\mathcal{S}$ blok operatorli matritsani quyidagicha aniqlaymiz:

$$\mathcal{T} := \text{diag}\{A_{11}, \dots, A_{nn}\}, \quad \mathcal{S} := \mathcal{A} - \mathcal{T}.$$

$\mathcal{T}$ va $\mathcal{S}$ blok operatorli matritsalar $\mathcal{H}$ fazoda aniqlanib, ularning aniqlanish sohalari

$$D(\mathcal{T}) = D(A_{11}) \oplus D(A_{22}) \oplus D(A_{33})$$

va

$$D(\mathcal{S}) = D(A_{21}) \oplus (D(A_{12}) \cap D(A_{32})) \oplus D(A_{23}),$$

kabi bo'ladi.

Asosiy natija va uning isboti. Mazkur bo'limda ishning asosiy natijasini bayon qilamiz va isbotlaymiz.

1-teorema. Agar (1) tenglik bilan aniqlangan $\mathcal{A}$ operator δ tartibli diagonal bo'yicha dominantlanuvchi blok operatorli matritsa bo'lsa, u holda $\mathcal{S}$ operator $\mathcal{T}$ — chegaralangan bo'lib, $\mathcal{T}$ — chegara δ dan kichik yoki teng bo'ladi.

Isbot. Faraz qilaylik, $\mathcal{A}$ operatorli matritsa δ tartibli diagonal bo'yicha dominantlanuvchi bo'lsin. U holda 2-ta'rifga ko'ra A_{21} operator A_{11} — chegaralangan bo'lib, uning A_{11} — chegarasi δ_{21} soniga, A_{23} operator A_{33} — chegaralangan bo'lib, uning A_{33} — chegarasi δ_{23} soniga va A_{12} (mos ravishda A_{32}) operator A_{22} — chegaralangan bo'lib, uning A_{22} — chegarasi δ_{12} (mos ravishda δ_{32}) soniga hamda δ soni (6) tenglik orqali aniqlangan bo'lsin.

$\mathcal{H}_j, j = 1, 2, 3$ Banax fazolari bo'lgani bois $\mathcal{H}$ fazodagi tabiiy norma

$$\|f\| = \sqrt{\|f_1\|_1^2 + \|f_2\|_2^2 + \|f_3\|_3^2}, \quad f = (f_1, f_2, f_3)^t \in \mathcal{H},$$

yoki

$$\|f\|' = \|f_1\|_1 + \|f_2\|_2 + \|f_3\|_3, \quad f = (f_1, f_2, f_3)^t \in \mathcal{H}$$

tengliklar yordamida aniqlanishi mumkin, bu yerda $\|\cdot\|_j$ orqali $\mathcal{H}_j, j = 1, 2, 3$ fazodagi norma va t orqali matritsa yoki vektorning transponirlangani belgilangan.

Ta'kidlash joizki, agar $\mathcal{H}_j, j = 1, 2, 3$ Hilbert fazolari bo'lsa, u holda $\|f\|$ birinchi norma $\mathcal{H}$ Hilbert fazosidagi normani anglatadi. Banax fazosi holida har ikkala norma ekvivalent ekanligini oson ko'rsatish mumkin. Aniqlik uchun $\|f\|$ normani qaraymiz.

Faraz qilaylik, $\varepsilon > 0$ ixtiyoriy son bo'lsin. Agar $\mathcal{A}$ operator diagonal bo'yicha dominantlanuvchi bo'lsa, u holda ta'rifga ko'ra $D(A_{11}) \subset D(A_{21}), D(A_{33}) \subset D(A_{23}), D(A_{22}) \subset D(A_{12}) \cap D(A_{32})$ va shunday

$$a'_{ij}, b'_{ij} \geq 0, \quad 1 \leq i, j \leq 3, \quad |i - j| = 1$$

o'zgaras sonlar topilib,

$$\delta_{21} \leq b'_{21} < \delta_{21} + \varepsilon, \quad \delta_{23} \leq b'_{23} < \delta_{23} + \varepsilon, \quad (7)$$

$$\delta_{12} \leq b'_{12} < \delta_{12} + \varepsilon, \quad \delta_{32} \leq b'_{32} < \delta_{32} + \varepsilon, \quad (8)$$

va

$$\|A_{21}f_1\|_2^2 \leq a'_{21} \|f_1\|_1^2 + b'_{21} \|A_{11}f_1\|_1^2, \quad f_1 \in D(A_{11}),$$

$$\|A_{23}f_3\|_2^2 \leq a'_{23} \|f_3\|_3^2 + b'_{23} \|A_{33}f_3\|_3^2, \quad f_3 \in D(A_{33}),$$

$$\|A_{23}f_3\|_2^2 + \|A_{32}f_2\|_3^2 \leq (a'_{23} + a'_{32}) \|f_2\|_2^2 + (b'_{12} + b'_{32}) \|A_{22}f_2\|_2^2, \quad f_2 \in D(A_{22})$$

munosabatlar bajariladi.

Shu sababli, $D(\mathcal{T}) \subset D(\mathcal{S})$ munosabatdan va oxirgi tengsizliklardan ixtiyoriy

$$f = (f_1, f_2, f_3)^t \in D(A_{11}) \oplus D(A_{22}) \oplus D(A_{33})$$

uchun

$$\begin{aligned} \|Sf\|^2 &\leq 2a'_{21} \|f_1\|_1^2 + 2b'_{21} \|A_{11}f_1\|_1^2 + (a'_{12} + 2a'_{32}) \|f_2\|_2^2 + (b'_{12} + 2b'_{32}) \|A_{22}f_2\|_2^2 \\ &\quad + 2 \sum_{j=3}^{n-2} ((a'_{j-1j} + a'_{j+1j}) \|f_j\|_j^2 + (b'_{j-1j} + b'_{j+1j}) \|A_{jj}f_j\|_j^2) \end{aligned}$$

$$+ (2a'_{n-2n-1} + a'_{nn-1}) \|f_{n-1}\|_{n-1}^2 + (2b'_{n-2n-1} + b'_{nn-1}) \|A_{n-1n-1}f_{n-1}\|_{n-1}^2 + 2a'_{n-1n} \|f_n\|_n^2 + 2b'_{n-1n} \|A_{nn}f_n\|_n^2 \leq a'_S \|f\|^2 + b'_S \|\mathcal{T}f\|^2$$

baholashlarni hosil qilamiz, bu yerda

$$a'_S = \max\{\sqrt{2}a'_{21}, \sqrt{2}a'_{n-1n}, \sqrt{a'^2_{12} + 2a'^2_{32}}, \sqrt{a'^2_{nn-1} + 2a'^2_{n-2n-1}}, \sqrt{2} \max_{3 \leq j \leq n-2} (a'^2_{j-1j} + a'^2_{j+1j})\},$$

$$b'_S = \max\{\sqrt{2}b'_{21}, \sqrt{2}b'_{n-1n}, \sqrt{b'^2_{12} + 2b'^2_{32}}, \sqrt{b'^2_{nn-1} + 2b'^2_{n-2n-1}}, \sqrt{2} \max_{3 \leq j \leq n-2} (b'^2_{j-1j} + b'^2_{j+1j})\}.$$

$\varepsilon > 0$ ixtiyoriy son bo'lgani bois, (7) va (8) tengsizliklardan foydalanib, $b'_S \leq \delta$ ekanligini hosil qilamiz. Bundan esa, S operator $\mathcal{T}$ –chegaralangan bo'lib, $\mathcal{T}$ –chegara δ sonidan kichik yoki teng bo'ladi. 1-teorema to'liq isbot bo'ldi.

Izoh. Umuman olganda S operatorning $\mathcal{T}$ –chegarasi bo'lgan δ_S soni δ sonidan qat'iy kichik bo'lishi mumkin.

Bu izohda keltirilgan tasdiqqa ishonch hosil qilish maqsadida quyidagi ko'rinishdagi

$$\mathcal{A} := \begin{pmatrix} 0 & A_{12} & 0 \\ 0 & A_{22} & 0 \\ 0 & A_{32} & 0 \end{pmatrix}$$

operatorli matritsani qaraymiz.

Agar A_{12} va A_{32} operatorlarning har biri A_{22} –chegaralangan bo'lib, A_{22} –chegaralari δ_{12} soniga teng bo'lsa, u holda ta'rifga ko'ra $\mathcal{A}$ operator diagonal bo'yicha integrallanuvchi $\delta = \sqrt{3}\delta_{12}$ tartibli operator bo'ladi.

Faraz qilaylik, $\mathcal{H}_2 := \mathcal{H}_2^{(1)} \oplus \mathcal{H}_2^{(2)}$ bo'lsin. Ixtiyoriy $f_2 \in \mathcal{H}_2$ element $f_2 = f_{21} + f_{22}$ kabi yozilib $f_{2j} \in \mathcal{H}_2^{(j)}$ $j = 1, 2$ bo'ladi va $\mathcal{H}_2$ fazodagi elementning normasi

$$\|f_2\|_2 := \sqrt{\|f_{21}\|_{21}^2 + \|f_{22}\|_{22}^2}$$

tenglik yordamida aniqlanadi, bu yerda $\|\cdot\|_{2j}$ orqali $\mathcal{H}_2^{(j)}$, $j = 1, 2$ fazodagi norma belgilangan.

Faraz qilaylik, $\mathcal{H}_1 = \mathcal{H}_2 = \mathcal{H}_3$ va $A_{12} := \delta_{12}A_{22}P_{12}$, $A_{32} := \delta_{12}A_{22}P_{32}$ bo'lsin, bu yerda P_{12} va P_{32} operatorlar $\mathcal{H}_2$ fazoda $P_{12}f_2 := f_{21}$ va $P_{32}f_2 := f_{22}$ kabi aniqlangan.

Aytaylik,

$$A_{22}f_2 = A_{22}f_{21} + A_{22}f_{22}$$

va

$$\|A_{22}f_{21} + A_{22}f_{22}\|_2^2 = \|A_{22}f_{21}\|_2^2 + \|A_{22}f_{22}\|_2^2$$

bo'lsin. Masalan $\mathcal{H}_2^{(1)}$ va $\mathcal{H}_2^{(2)}$ fazolar A_{22} operator uchun invariant fazolar bo'lsa, oxirgi tenglik o'rinli bo'ladi.

U holda A_{12} va A_{32} operatorlarning har biri A_{22} –chegaralangan bo'lib, A_{22} –chegarasi δ_{12} soniga teng bo'lishini oson ko'rish mumkin. Shu sababli, ta'rifga ko'ra $\mathcal{A}$ operator $\sqrt{3}\delta_{12}$ tartibli diagonal bo'yicha dominantlanuvchi operator bo'ladi.

Faraz qilaylik,

$$S := \begin{pmatrix} 0 & A_{12} & 0 \\ 0 & 0 & 0 \\ 0 & A_{32} & 0 \end{pmatrix}, \quad \mathcal{T} := \begin{pmatrix} 0 & 0 & 0 \\ 0 & A_{22} & 0 \\ 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}$$

bo'lsin.

Istalgan $f \in \mathcal{H}$ uchun

$$Sf := \begin{pmatrix} \delta_{12}A_{22}f_{21} \\ 0 \\ \delta_{12}A_{22}f_{22} \end{pmatrix}$$

tenglikga ega bo'lamiz.

Shunday qilib,

$$\|Sf\|^2 = \delta_{12}^2 \|A_{22}f_{21}\|_2^2 + \delta_{12}^2 \|A_{22}f_{22}\|_2^2 = \delta_{12}^2 \|A_{22}f_{21} + A_{22}f_{22}\|_2^2 = \delta_{12}^2 \|\mathcal{T}f\|^2.$$

Bu esa S operator $\mathcal{T}$ –chegaralangan bo'lib, uning $\mathcal{T}$ –chegarasi δ_{12} soniga teng bo'lishini anglatadi. Natijada $\mathcal{A}$ operator $\sqrt{3}\delta_{12}$ tartibli diagonal bo'yicha dominantlanuvchi operator bo'ladi.

Xuddi shunday mulohazalarga ko'ra agar yangi norma $\|\cdot\|'_2 = \sqrt{\|\cdot\|_{21}^2 + \|\cdot\|_{22}^2}$ kabi aniqlansa, u holda $\mathcal{A}$ operator $2\delta_{12}$ tartib bilan diagonal bo'yicha dominantlanuvchi bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, [7] maqolada $\mathcal{A}$ blok operatorli matritsa uchun diagonal bo'yicha dominanlik va tartib tushunchalari $\mathcal{T}$ va $\mathcal{S}$ operatorlar yordamida kiritilgan. [7] maqolada esa Fok fazosining qirg'ilgan qism fazosida ta'sir qiluvchi uchunchi tartibli operatorli matritsa spektrining quyi va yuqori chegaralari uchun uch turdagi baholashlar olingan.

Xulosa. Ushbu maqolada uch diagonalli 3×3 o'lehamli blok operatorli matritsalar sinfi chuqur va tizimli ravishda tadqiq etildi. Tadqiqot davomida ushbu sinf uchun muhim bo'lgan nisbiy chegaralanganlik va tartib tushunchalari qat'iy aniqlanib, ularning asosiy xossalari yoritib berildi. Ayniqsa, operatorli matritsaning diagonal va diagonal bo'lmagan bloklari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash orqali ularning funksional tahlildagi roliga sezilarli ta'siri mavjudligi ko'rsatildi.

Olingan natijalar nafaqat nazariy jihatdan muhim bo'lib, balki uch diagonalli blok operatorli matritsalar bilan bog'liq murakkab masalalarni yechishda ham samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, ushbu ish kelgusida spektral nazariya, operatorlar nazariyasi hamda matematik fizikaning turli yo'nalishlarida yangi tadqiqotlar olib borish uchun mustahkam asos yaratadi. Natijada, mazkur yondashuv uch diagonalli blok operatorli matritsalar nazariyasini yanada boyitadi va ularning amaliy hamda nazariy qo'llanilish doirasini sezilarli darajada kengaytiradi.

Minnatdorchilik. Muallif O'zbekiston Respublikasi Fundamental tadqiqotlar jamg'armasi tomonidan ko'rsatilgan qo'llab-quvvatlash uchun (FL-9524115052 raqamli loyiha) o'zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi.

REFERENCES:

1. C. Tretter. *Spectral theory of block operator matrices and applications*. Imperial College Press, 2008.
2. A. Jeribi. *Spectral Theory and Applications of Linear Operators and Block Operator Matrices*. Springer-Verlag, New-York, 2015.
3. A.I. Mogilner. *Hamiltonians in solid state physics as multiparticle discrete Schrödinger operators: problems and results*. *Advances in Sov. Math.* 5 (1991), 139–194.
4. K.O. Friedrichs. *Perturbation of spectra in Hilbert space*. Amer. Math. Soc. Providence, Rhode Island, 1965.
5. V.A. Malishev, R.A. Minlos. *Linear infinite-particle operators*. *Translations of Mathematical Monographs*. 143, AMS, Providence, RI, 1995.
6. T. Kato. *Perturbation theory for linear operators*, *Classics Math.*, Springer, Berlin, 1995, reprint of the 1980 edition.
7. T.H. Rasulov, C. Tretter. *Spectral inclusion for diagonally dominant unbounded block operator matrices*. *Rocky Mountain Journal of Mathematics*, 1 (2018), pp. 279–324.
8. T.H. Rasulov, M.Sh. Sharipova. *Spectral estimates for the bounds of an operator matrix of order three*. *Russian Mathematics*, 69:6 (2025), pp. 88–93.

UCHTALIK CHEKSIZ DIFFERENSIAL TENGLAMALAR SISTEMASI YECHIMINING
MAVJUD VA YAGONALIGI

Qo'shaqov Xolmurodjon Shermamatovich,

Andijon davlat universiteti o'qituvchisi, f.m.f.b.f.d. (PhD)

xolmurodjonqoshaqov737@gmail.com

To'ychiboyeva Gavharoy Shuxratjon qizi,

Farg'ona davlat universiteti magistranti

gavharoytoychiboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada uchtalik cheksiz differensial tenglamalar sistemasining yechimi o'rganilgan. Sistema l_2 Gilbert fazosida tadqiq etilgan. Maqolaning asosiy qismida berilgan sistemaning l_2 Gilbert fazosida yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teorema isbotlangan

Kalit so'zlar: differensial tenglamalar, cheksiz sistema, yechimning mavjud va yagonaligi, Gilbert fazosi.

СУЩЕСТВОВАНИЕ И ЕДИНСТВЕННОСТЬ РЕШЕНИЯ БЕСКОНЕЧНОЙ СИСТЕМЫ
ТЕРНАРНЫХ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ

Аннотация. В данной статье исследуется решение бесконечной системы тернарных дифференциальных уравнений. Система рассматривается в гильбертовом пространстве l_2 . В основной части статьи доказана теорема о существовании и единственности решения данной системы в гильбертовом пространстве l_2 .

Ключевые слова: дифференциальные уравнения, бесконечная система, существование и единственность решения, гильбертово пространство.

EXISTENCE AND UNIQUENESS OF THE SOLUTION OF AN INFINITE SYSTEM OF
TERNARY DIFFERENTIAL EQUATIONS

Abstract. In this paper, a solution of an infinite system of ternary differential equations is studied. The system is investigated in the l_2 Hilbert space. In the main part of the paper, a theorem on the existence and uniqueness of the solution of the given system in the l_2 Hilbert space is proved.

Keywords: differential equations, infinite system, existence and uniqueness of solution, Hilbert space.

Kirish. Cheksiz o'lchamli differensial tenglamalar sistemalarini o'rganish zamonaviy matematik analiz, xususan funksional analiz va dinamik tizimlar nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday sistemalar ko'pincha xususiy hosilali differensial tenglamalar orqali ifodalanadigan jarayonlarni dekompozitsiya qilish natijasida yuzaga keladi hamda optimal boshqaruv, evolyutsion jarayonlar va differensial o'yinlar nazariyasida keng qo'llaniladi. Shu sababli, cheksiz o'lchamli fazolarda aniqlangan differensial tenglamalar sistemalarining asosiy xossalari, xususan ularning yechimining mavjudligi va yagonaligini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, Hilbert fazolari, xususan l_2 fazosi, cheksiz o'lchamli sistemalarni tadqiq qilishda qulay matematik apparatni taqdim etadi. Ushbu fazoda normaning mavjudligi, skalyar ko'paytma va to'liqlik xossalari differensial tenglamalar sistemalarining yechimlarini qat'iy asoslash imkonini beradi. Ayniqsa, matritsa eksponentasi va uning xossalari chiziqli sistemalar yechimlarini konstruktiv ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Uchtalik (ternar) tuzilishga ega bo'lgan cheksiz differensial tenglamalar sistemalari alohida e'tiborga loyiq bo'lib, ular murakkab o'zaro bog'langan dinamik jarayonlarni tavsiflaydi. Bunday sistemalarni o'rganishda ularning yechimlari mavjudligi va yagonaligini ta'minlovchi yetarli shartlarni aniqlash muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Xususiy hosilali differensial tenglamalar bilan bog'liq boshqaruv masalalariga bag'ishlangan ko'plab ishlar mavjud (masalan, [1, 4, 7]). Bunday masalalarni yechishning eng mashhur usullaridan biri dekompozitsiya usuli hisoblanadi. Masalan, [6, 18] ishlarda differensial o'yinlar va boshqaruv masalalari quyidagi cheksiz differensial tenglamalar sistemasi orqali keltirilgan:

$$z_i + \lambda_i z_i = w_i, \quad i = 1, 2, \dots \quad (1)$$

bu yerda $w_i, i = 1, 2, \dots$, boshqaruv parametrlaridir, $z_i, w_i \in \mathbb{R}$, hamda $\lambda_i, i = 1, 2, \dots$, koeffitsientlar elliptik operatorning umumlashgan xos qiymatlari hisoblanadi:

$$Az = - \sum_{i,j=1}^n \frac{\partial}{\partial x_i} \left(a_{ij}(x) \frac{\partial z}{\partial x_j} \right), \quad a_{ij}(x) = a_{ji}(x),$$

bu yerda $0 < \lambda_1 \leq \lambda_2 \leq \dots \rightarrow \infty$ va $a_{ij}(x)$ - chegaralangan o'lchovli funksiyalar.

[24, 25, 28] ishlarda differensial o'yinlar masalalarini yagona nazariy doirada, ya'ni $\lambda_i, i = 1, 2, \dots$, ixtiyoriy haqiqiy sonlar bo'lgan holatda, cheksiz differensial tenglamalar sistemasi orqali o'rganish taklif etilgan. Keyinchalik [16, 11, 17, 12, 13, 14] ishlarda turli differensial o'yinlar masalalari aynan cheksiz differensial tenglamalar sistemalari yordamida tadqiq etilgan.

Shunday qilib, xususiy hosilali differensial tenglamalar orqali ifodalangan boshqaruv masalalari bilan cheksiz differensial tenglamalar sistemalari orqali ifodalangan masalalar o'rtasida muhim bog'liqlik mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Haqiqiy sonlarda tuzilgan va .

$$l_2 = \left\{ \xi = (\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n, \dots) \mid \sum_{n=1}^{\infty} \xi_n^2 < \infty \right\}$$

shartni qanoatlantiruvchi barcha ketma-ketliklar fazosini l_2 bilan belgilaymiz. Unda skalyar ko'paytma va norma mos ravishda quyidagicha aniqlanadi:

$$(\xi, \eta) = \sum_{n=1}^{\infty} \xi_n \eta_n, \quad \|\xi\| = \sqrt{(\xi, \xi)}.$$

Bu fazo odatda l_2 Gilbert fazosi deb ataladi.

Ushbu ishning asosiy maqsadi differensial tenglamalarning quyidagi cheksiz sistemasini l_2 Gilbert fazosida tadqiq qilishdan iborat:

$$\begin{aligned} \dot{x}_i &= -\lambda_i x_i + y_i + w_{i1}(t), & x_i(0) &= x_{i0}, \\ \dot{y}_i &= -\mu_i y_i + z_i + w_{i2}(t), & y_i(0) &= y_{i0}, \\ \dot{z}_i &= -\mu_i z_i + w_{i3}(t), & z_i(0) &= z_{i0}, \end{aligned} \quad i = 1, 2, \dots, \quad (2)$$

bu yerda λ_i va μ_i lar berilgan manfiy bo'lmagan haqiqiy sonlardir,

$$x_0 = (x_{10}, x_{20}, \dots), \quad y_0 = (y_{10}, y_{20}, \dots), \quad z_0 = (z_{10}, z_{20}, \dots) \in l_2.$$

$$w(t) = (w_1(t), w_2(t), \dots), \quad (w: [0, T] \rightarrow l_2, \text{ funksiyalar sinfi}, \quad w_i(t) = (w_{i1}(t), w_{i2}(t), w_{i3}(t)))$$

($0 \leq t \leq T, i = 1, 2, \dots$) o'lchovli koordinatalari bilan quyidagi shartni qanoatlantirsa

$$\sum_{i=1}^{\infty} \int_0^T (w_{i1}^2(s) + w_{i2}^2(s) + w_{i3}^2(s)) ds \leq \rho_0^2$$

uni $S(\rho_0)$ bilan belgilaymiz, bu yerda ρ_0 musbat son.

Masala shundaki, l_2 Gilbert fazosida (2) sistemaning yagona yechimi bor yoki yo'qligini aniqlash.

Natijalar va ularning tahlili

Aytaylik

$$\eta_i(t) = ((x_i(t), y_i(t), z_i(t)),$$

$$|\eta_i(t)| = \sqrt{x_i^2(t) + y_i^2(t) + z_i^2(t)},$$

$$\eta(t) = (\eta_1(t), \eta_2(t), \dots) = (x_1(t), y_1(t), z_1(t), x_2(t), y_2(t), z_2(t), \dots),$$

$$\eta_0 = (\eta_{10}, \eta_{20}, \dots) = (x_{10}, y_{10}, z_{10}, x_{20}, y_{20}, z_{20}, \dots),$$

$$\|\eta(t)\| = \left(\sum_{i=1}^{\infty} (x_i^2(t) + y_i^2(t) + z_i^2(t)) \right)^{\frac{1}{2}},$$

$$\|\eta_0\| = \left(\sum_{i=1}^{\infty} (x_{i0}^2 + y_{i0}^2 + z_{i0}^2) \right)^{\frac{1}{2}}$$

bo'lsin.

1-ta'rif. Aytaylik $w(\cdot) \in S(\rho_0)$ bo'lsin. Agar $\eta_i(t) - [0, T]$ ning deyarli hamma joyida differensiallanuvchi va $[0, T]$ da (2) sistemani to'liq qanoatlantiruvchi bo'lsa, $\eta_i(t)$ uzluksiz koordinatalari bilan, $\eta_i(0) = \eta_{i0}$, $i = 1, 2, \dots$ boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi $\eta(t) = (\eta_1(t), \eta_2(t), \dots)$ funksiya (2) sistemaning yechimi bo'ladi

Quyidagi matritsa uchun

$$A_i = \begin{bmatrix} -\lambda_i & 0 & 0 \\ 0 & -\mu_i & 1 \\ 0 & 0 & -\mu_i \end{bmatrix}, \quad \lambda_i, \mu_i \geq 0, \lambda_i \neq \mu_i, \quad i = 1, 2, \dots, \quad t \in [0; T]$$

shuni ko'rsatishimiz mumkinki

$$e^{A_i t} = \begin{bmatrix} e^{-\lambda_i t} & 0 & 0 \\ 0 & e^{-\mu_i t} & t e^{-\mu_i t} \\ 0 & 0 & e^{-\mu_i t} \end{bmatrix}, \quad i = 1, 2, \dots$$

Quyidagi ifodalarning to'g'ri ekanligini isbotlash qiyin emas.

1-xossa. $e^{A_i t}$ matritsa uchun quyidagi munosabatlar o'rinli.

$$e^{A_i(t+h)} = e^{A_i t} \cdot e^{A_i h},$$

$$|e^{A_i t} \eta_i| \leq e^{-\alpha_i t} a(t) |\eta_i|, \quad \alpha_i = \min(\lambda_i, \mu_i)$$

$$\|e^{A_i t}\| \leq a(t), \quad a(t) = 1 + t,$$

$$\|e^{A_i t} - E_3\| \leq 1 - e^{-\alpha_i t} + t,$$

$$E_3 = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{bmatrix},$$

bu yerda $\|A\| = \max_{|x|=1} |Ax|$.

Biz $e^{A_i t}$ matritsaning yuqoridagi berilgan xossalardan foydalanib, ushbu maqolaning asosiy teoremasini isbotlaymiz.

$\eta(t) \in l_2$, $(0 \leq t \leq T)$ uzluksiz funksiyalar fazosini $C(0, T; l_2)$ bilan belgilaymiz. Quyidagi teorema ushbu maqolaning asosiy natijasidir.

1-Teorema. Agar $w(\cdot) \in S(\rho_0)$ va $\lambda_i, \mu_i \geq 0$, $(i = 1, 2, \dots)$ bo'lsa, u holda $C(0, T; l_2)$ fazoda (2) cheksiz differensial tenglamalar sistemasining yagona yechimi mavjud bo'ladi.

Isbot. Aniqli, har bir (2) uchtalik cheksiz differensial tenglamalar sistemasi yagona $\eta(t) = (\eta_1(t), \eta_2(t), \dots)$ yechimga ega

$$\eta_i(t) = e^{A_i t} \eta_{i0} + \int_0^t e^{A_i(t-s)} w_i(s) ds, \quad (3)$$

bu yerda $w_i = (w_{i1}, w_{i2}, w_{i3})$, $\eta_{i0} = (x_{i0}, y_{i0}, z_{i0})$. Demak, (2) cheksiz sistema l_2 fazoda bittadan ortiq yechimga ega bo'lishi mumkin emas.

Endi $\eta(\cdot) = (\eta_1(\cdot), \eta_2(\cdot), \dots) \in C(0, T; l_2)$ ekanligini isbotlaymiz. Buning uchun har bir t ($0 \leq t \leq T$) uchun $\eta(t) = (\eta_1(t), \eta_2(t), \dots) \in l_2$ ekanligini va bu $\eta(t) - l_2$ fazoning normasida uzluksiz ekanligini ko'rsatishimiz kerak.

Avval har bir $t \in [0, T]$ uchun $\eta(t) = (\eta_1(t), \eta_2(t), \dots) \in l_2$ ekanligini isbotlaymiz. Darhaqiqat (3) dan quyidagiga ega bo'lamiz:

$$|\eta_i(t)|^2 \leq 2 \left(|e^{A_i t} \eta_{i0}|^2 + \left(\int_0^t |e^{A_i(t-s)} w_i(s)| ds \right)^2 \right) \quad (4)$$

1-xossadan

$|e^{A_i(t-s)} w_i(s)| \leq e^{-\alpha_i(t-s)} (1 + (t-s)) |w_i(s)| \leq a(t) |w_i(s)|$, $t \geq s$,
tengsizlikka va Koshi-Shvarts tengsizligidan foydalanib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} \left(\int_0^t 1 \cdot |w_i(s)| ds \right)^2 &\leq t \int_0^t |w_i(s)|^2 ds \\ |\eta_i(t)|^2 &\leq 2 \left(|e^{-2\alpha_i t} a^2(t) \eta_{i0}|^2 + t a^2(t) \int_0^t |w_i(s)|^2 ds \right) \leq \\ &\leq 2a^2(T) \left(|\eta_{i0}|^2 + T \int_0^T |w_i(s)|^2 ds \right). \end{aligned}$$

Shuning uchun,

$$\begin{aligned} \sum_{i=0}^{\infty} |\eta_i(t)|^2 &\leq 2a^2(T) \left(\sum_{i=0}^{\infty} |\eta_{i0}|^2 + T \sum_{i=0}^{\infty} \int_0^T |w_i(s)|^2 ds \right) \leq \\ &\leq 2a^2(T) (\|\eta_0\|^2 + T\rho_0^2) \end{aligned}$$

Demak, har bir $t \in [0, T]$ uchun $\eta(t) \in l_2$. Endi $\eta(t)$ ($0 \leq t \leq T$) funksiyaning l_2 . Hilbert fazosida uzluksiz ekanligini isbotlaymiz. Funksiyanig uzluksizligi ta'rifi orqali biz ayta olamizki, har qanday ε musbat son uchun, shunday $\delta > 0$ soni topiladiki $|h| < \delta$ da $\|\eta(t+h) - \eta(t)\| < \varepsilon$ bo'ladi.

Aytaylik $h > 0$ uchun, 1-xossadan foydalansak quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} \eta_i(t+h) - \eta_i(t) &= e^{A_i(t+h)} \eta_{i0} + \int_0^{t+h} e^{A_i(t+h-s)} w_i(s) ds - \int_0^t e^{A_i(t-s)} w_i(s) ds \\ &- e^{A_i t} \eta_{i0} = (e^{A_i h} - E_3) e^{A_i t} \eta_{i0} + \int_0^t (e^{A_i h} - E_3) e^{A_i(t-s)} w_i(s) ds \\ &+ \int_t^{t+h} e^{A_i(t+h-s)} w_i(s) ds \end{aligned}$$

$(a + b + c)^2 \leq 3(a^2 + b^2 + c^2)$ tengsizlikdan foydalanib quyidagini hosil qilamiz:

$$\begin{aligned}
 |\eta_i(t+h) - \eta_i(t)|^2 &\leq 3 \left| (e^{A_i h} - E_3) e^{A_i t} \eta_{i0} \right|^2 \\
 &\quad + 3 \left| \int_0^t (e^{A_i h} - E_3) e^{A_i(t-s)} w_i(s) ds \right|^2 \\
 &\quad + 3 \left| \int_t^{t+h} e^{A_i(t+h-s)} w_i(s) ds \right|^2 \leq 3 \|e^{A_i h} - E_3\|^2 a^2(T) |\eta_{i0}|^2 \\
 &\quad + 3 \|e^{A_i h} - E_3\|^2 a^2(T) \left(\int_0^t |w_i(s)| ds \right)^2 \\
 &\quad + 3 a^2(T) \left(\int_t^{t+h} |w_i(s)| ds \right)^2
 \end{aligned}$$

U holda

$$\|\eta(t+h) - \eta(t)\|^2 = \sum_{i=0}^{\infty} |\eta_i(t+h) - \eta_i(t)|^2 \leq I_1 + I_2 + I_3,$$

Bu yerda

$$\begin{aligned}
 I_1 &= 3a^2(T) \sum_{i=1}^N \|e^{A_i h} - E_3\|^2 \left(|\eta_{i0}|^2 + \left(\int_0^t |w_i(s)| ds \right)^2 \right), \\
 I_2 &= 3a^2(T) \sum_{i=N+1}^{\infty} \|e^{A_i h} - E_3\|^2 \left(|\eta_{i0}|^2 + \left(\int_0^t |w_i(s)| ds \right)^2 \right), \\
 I_3 &= 3a^2(T) \sum_{i=1}^{\infty} \left(\int_t^{t+h} |w_i(s)| ds \right)^2.
 \end{aligned}$$

bu yerda N quyida tanlanadigan musbat butun son.

$$\alpha_i \geq 0 \text{ ekanligidan va } 1\text{-xossadan } \|e^{A_i h} - E_3\|^2 \leq (1+h)^2,$$

$$\begin{aligned}
 I_2 &= 3a^2(T) \sum_{i=N+1}^{\infty} \|e^{A_i h} - E_3\|^2 \left(|\eta_{i0}|^2 + \left(\int_0^t |w_i(s)| ds \right)^2 \right) \leq \\
 &\leq 3a^2(T) (1+h)^2 \sum_{i=N+1}^{\infty} \left(|\eta_{i0}|^2 + T \int_0^T |w_i(s)|^2 ds \right).
 \end{aligned}$$

ga ega bo'lamiz.

Quyidagi

$$\sum_{i=1}^{\infty} |\eta_{i0}|^2, \quad \sum_{i=1}^{\infty} \int_0^T |w_i(s)|^2 ds$$

qatorlar yaqinlashuvchi ekanligidan, har qanday ε musbat son uchun, $I_2 < \varepsilon/3$ bo'lganda musbat N butun sonni tanlashimiz mumkin.

Endi esa I_1 ni baholaymiz. $\alpha_i \geq 0$ ekanligidan:

$$\begin{aligned}
 I_1 &= 3a^2(T) \sum_{i=1}^N \|e^{A_i h} - E_3\|^2 \left(|\eta_{i0}|^2 + \left(\int_0^t |w_i(s)| ds \right)^2 \right) \\
 &\leq 3a^2(T) \sum_{i=1}^N \|e^{A_i h} - E_3\|^2 \left(|\eta_{i0}|^2 + T \int_0^T |w_i(s)|^2 ds \right) \quad (5)
 \end{aligned}$$

bo'ladi.

1-xossadan $\|e^{A_i h} - E_3\|^2 \leq (1+h)^2 \rightarrow 0$ bo'ladi, chunki har bir i uchun $h \rightarrow 0$. (5) ning o'ng tomonidagi ifoda chekli sondagi hadlarga ega bo'lgani uchun δ_1 ni tanlashimiz mumkinki, har qanday $|h| < \delta_1$ uchun $I_1 < \varepsilon/3$ bo'ladi.

I_3 ni baholash uchun, Koshi-Shvarts tengsizligidan foydalanamiz:

$$\begin{aligned} I_3 &\leq 3a^2(T) \sum_{i=1}^{\infty} h \int_0^{t+h} |w_i(s)|^2 ds \leq \\ &\leq 3ha^2(T) \sum_{i=1}^{\infty} \int_0^T |w_i(s)|^2 ds \leq 3ha^2(T) \rho_0^2. \end{aligned}$$

Darhaqiqat, har qanday $|h| < \delta_2$ uchun $I_3 < \varepsilon/3$ bo'lganda δ_2 ni tanlashimiz mumkin. Demak, $\delta = \min\{\delta_1, \delta_2\}$ ni tanlash orqali berilgan ixtiyoriy musbat ε sonidan $\|\eta(t+h) - \eta(t)\|^2$ ifoda kichik bo'lishi mumkin.

Endi, $\|\eta(t) - \eta(t-h)\|$, $h > 0$ ni ko'rib chiqamiz.

$$\begin{aligned} \eta_i(t) - \eta_i(t-h) &= \\ &= e^{A_i(t)} \eta_{i0} + \int_0^t e^{A_i(t-s)} w_i(s) ds - e^{A_i(t-h)} \eta_{i0} - \int_0^{t-h} e^{A_i(t-h-s)} w_i(s) ds = \\ &= (e^{A_i h} - E_3) e^{A_i(t-h)} \eta_{i0} + \int_0^{t-h} (e^{A_i h} - E_3) e^{A_i(t-h-s)} w_i(s) ds + \\ &+ \int_{t-h}^t e^{A_i(t-h-s)} w_i(s) ds. \end{aligned}$$

Yuqoridagi ifoda $\|\eta(t+h) - \eta(t)\|^2$ ning baholanishiga o'xshashligi uchun biz har qanday musbat $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta > 0$ soni mavjudligini aniqlashimiz mumkinki, har qanday $|h| < \delta$ da $\|\eta(t) - \eta(t-h)\|^2 < \varepsilon$ bo'ladi. Demak, $\eta(\cdot) \in C(0, T; l_2)$. Teorema isbotlandi.

Xulosa. Ushbu maqolada biz (2) ko'rinishdagi cheksiz uchlik differensial tenglamalar sistemasini ko'rib chiqdik. Asosiy natija sifatida, ushbu sistemaning yechimi l_2 Hilbert fazosida mavjud va yagona ekanligini isbotladik.

Olingan natija bunday cheksiz differensial tenglamalar sistemalari uchun integral va geometrik cheklavlarga ega boshqaruv masalalari hamda differensial o'yinlarni o'rganishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Albeverio S., Alimov Sh. A. On a time-optimal control problem associated with the heat exchange process. *Applied mathematics and optimization*. 57(1):(2008) 58-68.
Аннотация. В работе развивается полная теория жордановых канонических форм для матриц над конечными полями F_p и их алгебраическими замыканиями. Устанавливаются теоремы существования и единственности на основе разложения на обобщённые собственные подпространства и построения жордановых цепочек. Выводятся явные формулы для определения размеров жордановых блоков через размерности ядер степеней оператора $A - \lambda I$. Представлены вычислительные алгоритмы и приведены подробные примеры над полями F_2 , F_3 и F_5 , включая случаи, требующие расширения поля.

Ключевые слова: жорданова каноническая форма, конечные поля, нильпотентные матрицы, обобщённые собственные векторы, рациональная каноническая форма.

CHEKLI MAYDONLAR USTIDAGI MATRITSALAR UCHUN JORDAN KANONIK
SHAKLLARI VA QOLDIQ SINF HALQALARI USTIDAGI NILPOTENT MATRITSALAR

Annotatsiya. Ushbu ishda chekli maydonlar F_p va ularning algebraik yopilmalari ustidagi matritsalar uchun Jordan kanonik shakllarining to'liq nazariyasi ishlab chiqiladi. Mayjudlik va yagonalik teoremlari umumlashgan xos qiymatlar osti fazolariga ajratish va Jordan zanjirlarini qurish orqali isbotlanadi. Jordan bloklari o'lchamlarini $A - \lambda I$ operatori darajalari yadrolari o'lchamlari orqali aniqlash uchun aniq formulalar keltiriladi. Hisoblash algoritmlari taqdim etilib, F_2 , F_3 va F_5 maydonlarida, shu jumladan kengaytirilgan maydonlarni talab qiluvchi holatlar uchun batafsil misollar bilan yoritiladi.

Kalit so'zlar: Jordan kanonik shakli, chekli maydonlar, nilpotent matritsalar, umumlashgan xos vektorlar, ratsional kanonik shakl.

Introduction. The Jordan canonical form stands as one of the cornerstones of linear algebra, providing a nearly diagonal representation for linear operators over an algebraically closed field. Since its introduction by Camille Jordan in the 1870s, the theory has found applications across mathematics, from differential equations to representation theory. While the classical treatment focuses on the complex numbers, the theory extends naturally to fields of positive characteristic, including finite fields.

Let F_p denote the finite field of prime order p and $\bar{F}_p$ its algebraic closure. For a matrix $A \in M_n(F_p)$, the Jordan form theorem asserts the existence of an invertible matrix $P \in GL_n(\bar{F}_p)$ such that $P^{-1}AP$ is a direct sum of Jordan blocks

$$J_k(\lambda) = \begin{pmatrix} \lambda & 1 & & \\ & \ddots & \ddots & \\ & & \ddots & 1 \\ & & & \lambda \end{pmatrix}_{k \times k},$$

with $\lambda \in \bar{F}_p$. This decomposition is unique up to permutation of the blocks.

The present paper has two principal objectives. First, we provide a self-contained and rigorous development of the Jordan theory over finite fields, emphasizing the algorithmic aspects necessary for explicit computation. Second, we investigate nilpotent matrices over the non-field rings $\mathbb{Z}/p^\beta\mathbb{Z}$ and $\mathbb{Z}/m\mathbb{Z}$, where Jordan theory does not directly apply but combinatorial enumeration remains possible.

The structure of the paper is as follows. Section 2 collects preliminary results on finite fields and basic matrix cardinalities. Section 3 treats nilpotent matrices over residue class rings, culminating in Theorem 1.12 which gives explicit counting formulas. Section 4 presents the core Jordan theory: generalized eigenspaces, Jordan chains, existence and uniqueness theorems, and the block size formula. Section 5 provides extensive computational examples, illustrating the theory over various finite fields. Section 6 discusses the relationship with the rational canonical form and compares computational complexities. Section 7 concludes with open problems and directions for future research.

Definition 1.1 Let p be a prime number. The finite field of order p , denoted F_p , is the set $\{0, 1, \dots, p-1\}$ with addition and multiplication modulo p . For any positive integer k , there exists a unique (up to isomorphism) extension field F_{p^k} of degree k , and $F_{p^k} \cong F_p[x]/(f(x))$ for any irreducible polynomial $f \in F_p[x]$ of degree k .

Definition 1.2 The algebraic closure $\bar{F}_p$ is the direct limit $\varinjlim_k F_{p^k}$. It is an algebraically closed field of characteristic p , and every element of $\bar{F}_p$ lies in some finite extension F_{p^k} .

Proposition 1.1 (Frobenius automorphism) The map $\Phi_p: \bar{F}_p \rightarrow \bar{F}_p$ defined by $\Phi_p(x) = x^p$ is a field automorphism, called the Frobenius automorphism. Its fixed field is F_p , and it generates the Galois group $\text{Gal}(F_{p^k}/F_p) \cong \mathbb{Z}/k\mathbb{Z}$.

Proposition 1.2

$$|M_n(F_p)| = p^{n^2}, \quad |GL_n(F_p)| = \prod_{i=0}^{n-1} (p^n - p^i) = p^{\binom{n}{2}} \prod_{i=1}^n (p^i - 1).$$

Proof. The first formula follows because each matrix entry can be chosen independently from the p elements of F_p . For the second, an invertible matrix consists of n linearly independent columns. The first column can be any nonzero vector ($p^n - 1$ choices). The second column can be any vector not in the span of the first ($p^n - p$ choices). Continuing this argument yields the product formula.

Definition 1.3 A matrix $A \in M_n(R)$ over a commutative ring R is nilpotent if $A^k = 0$ for some positive integer k . The smallest such k is called the nilpotency index of A .

Theorem 1.1 (Fine-Herstein) For any prime power $q = p^k$, the number of nilpotent matrices in $M_n(F_q)$ is q^{n^2-n} . Consequently, the probability that a uniformly random matrix in $M_n(F_q)$ is nilpotent equals q^{-n} .

Sketch. The proof proceeds by counting matrices with a given Jordan form. Over F_q , a nilpotent matrix is similar to a direct sum of Jordan blocks with eigenvalue 0. The number of matrices with a given partition $\lambda \vdash n$ is q^{n^2-n} times a product of Gaussian binomial coefficients that telescopes to q^{n^2-n} .

For a prime power p^β ($\beta \geq 2$), the ring $\mathbb{Z}/p^\beta\mathbb{Z}$ is not a field. Nevertheless, the nilpotence condition lifts.

Lemma 1.1 Let $\pi: \mathbb{Z}/p^\beta \mathbb{Z} \rightarrow \mathbb{F}_p$ be the natural projection. For any matrix $A \in M_n(\mathbb{Z}/p^\beta \mathbb{Z})$, we have $\pi(A^k) = \pi(A)^k$ for all $k \geq 1$.

Theorem 1.2 (Lifting Criterion) A matrix $A \in M_n(\mathbb{Z}/p^\beta \mathbb{Z})$ is nilpotent if and only if its reduction $\bar{A} = \pi(A) \in M_n(\mathbb{F}_p)$ is nilpotent.

Proof. ($\Rightarrow$) If $A^k = 0$ in $\mathbb{Z}/p^\beta \mathbb{Z}$, applying π gives $\bar{A}^k = 0$ in $\mathbb{F}_p$, so $\bar{A}$ is nilpotent.

($\Leftarrow$) Suppose $\bar{A}^k = 0$. Write $A = \bar{A} + pC$ where $C \in M_n(\mathbb{Z}/p^{\beta-1} \mathbb{Z})$. By the binomial theorem,

$$A^k = (\bar{A} + pC)^k = \sum_{i=0}^k \binom{k}{i} \bar{A}^{k-i} (pC)^i.$$

Since $\bar{A}^k = 0$, every term in the sum contains at least one factor p . Hence $A^k = pD$ for some $D \in M_n(\mathbb{Z}/p^{\beta-1} \mathbb{Z})$. Repeating this argument, we obtain $A^{k\beta} = p^\beta E = 0$ in $\mathbb{Z}/p^\beta \mathbb{Z}$.

Theorem 1.3 $|\{A \in M_n(\mathbb{Z}/p^\beta \mathbb{Z}) : A \text{ nilpotent}\}| = p^{\beta n^2 - n}$.

Proof. By Theorem 1.2, nilpotence depends only on $\bar{A}$. There are $p^{n^2 - n}$ nilpotent choices for $\bar{A}$ by Theorem 1.1. For each such $\bar{A}$, the lift C in the decomposition $A = \bar{A} + pC$ can be chosen arbitrarily in $M_n(\mathbb{Z}/p^{\beta-1} \mathbb{Z})$, giving $p^{(\beta-1)n^2}$ choices. The product yields $p^{\beta n^2 - n}$.

Theorem 1.4 Let $m = m_1 m_2$ with $\gcd(m_1, m_2) = 1$. Then

$$\mathbb{Z}/m\mathbb{Z} \cong \mathbb{Z}/m_1\mathbb{Z} \times \mathbb{Z}/m_2\mathbb{Z},$$

and consequently,

$$M_n(\mathbb{Z}/m\mathbb{Z}) \cong M_n(\mathbb{Z}/m_1\mathbb{Z}) \times M_n(\mathbb{Z}/m_2\mathbb{Z}).$$

Theorem 1.5 (Multiplicativity) For coprime m_1, m_2 ,

$$N_{\text{nil}}(n, m_1 m_2) = N_{\text{nil}}(n, m_1) \cdot N_{\text{nil}}(n, m_2),$$

where $N_{\text{nil}}(n, m)$ denotes the number of nilpotent matrices in $M_n(\mathbb{Z}/m\mathbb{Z})$.

Proof. Under the CRT isomorphism, a matrix $A \in M_n(\mathbb{Z}/m_1 m_2 \mathbb{Z})$ corresponds to a pair (A_1, A_2) with $A_i \in M_n(\mathbb{Z}/m_i \mathbb{Z})$. Then $A^k = 0$ iff $A_1^k = 0$ and $A_2^k = 0$. Since the choices for A_1 and A_2 are independent, the counts multiply.

Theorem 1.6 (Main Counting Theorem) Let $m = p_1^{\beta_1} p_2^{\beta_2} \cdots p_t^{\beta_t}$ be the prime factorization of m . Then

$$N_{\text{nil}}(n, m) = m^{n^2} \prod_{i=1}^t p_i^{-n}, \quad P_{\text{nil}}(n, m) = \prod_{i=1}^t p_i^{-n},$$

where $P_{\text{nil}}(n, m)$ denotes the probability that a uniformly random matrix in $M_n(\mathbb{Z}/m\mathbb{Z})$ is nilpotent.

Proof. By Theorem 1.5,

$$N_{\text{nil}}(n, m) = \prod_{i=1}^t N_{\text{nil}}(n, p_i^{\beta_i}) = \prod_{i=1}^t p_i^{\beta_i n^2 - n} = m^{n^2} \prod_{i=1}^t p_i^{-n}.$$

The probability is $N_{\text{nil}}(n, m) / |M_n(\mathbb{Z}/m\mathbb{Z})| = \prod_{i=1}^t p_i^{-n}$.

Corollary 1.1 For square-free m with prime factors $p_1, \dots, p_t$, the probability of nilpotence is $(\prod_{i=1}^t p_i)^{-n}$.

a.

[Jordan Canonical Form over Finite Fields](#)

From this point forward, all matrices are considered over the algebraic closure $\bar{\mathbb{F}}_p$ unless otherwise specified. The Jordan form exists precisely when the characteristic polynomial splits, which is always true over $\bar{\mathbb{F}}_p$.

Definition 2.1 For $A \in M_n(\bar{\mathbb{F}}_p)$, the characteristic polynomial is $\chi_A(\lambda) = \det(A - \lambda I)$. For an eigenvalue $\lambda_0 \in \bar{\mathbb{F}}_p$, the algebraic multiplicity $m_a(\lambda_0)$ is the multiplicity of λ_0 as a root of χ_A . The geometric multiplicity $m_g(\lambda_0)$ is $\dim \ker(A - \lambda_0 I)$.

Theorem 2.1 (Eigenvalue Inequalities) For any eigenvalue λ_0 of A ,

$$1 \leq m_g(\lambda_0) \leq m_a(\lambda_0).$$

Proof. The lower bound follows from the definition of eigenvalue. For the upper bound, note that eigenvectors for distinct eigenvalues are linearly independent, and the sum of the geometric multiplicities is at most n . More directly, $\ker(A - \lambda_0 I) \subseteq \ker(A - \lambda_0 I)^{m_a(\lambda_0)}$, and the dimension of the latter equals $m_a(\lambda_0)$.

Definition 2.2 A is diagonalizable if there exists $P \in GL_n(\bar{F}_p)$ such that $P^{-1}AP$ is diagonal.

Theorem 2.2 (Diagonalizability Criterion) A is diagonalizable if and only if $m_g(\lambda_0) = m_a(\lambda_0)$ for every eigenvalue λ_0 .

Definition 2.3 A vector $v \in \bar{F}_p^n$ is a generalized eigenvector of A for eigenvalue λ_0 if $(A - \lambda_0 I)^k v = 0$ for some $k \geq 1$. The smallest such k is the height of v .

Definition 2.4 The generalized eigenspace for eigenvalue λ_0 is

$$V_{\lambda_0}(A) = \{v \in \bar{F}_p^n : (A - \lambda_0 I)^{m_a(\lambda_0)} v = 0\}.$$

Theorem 2.3 (Primary Decomposition) Let $\lambda_1, \dots, \lambda_r$ be the distinct eigenvalues of A . Then

$$\bar{F}_p^n = \bigoplus_{i=1}^r V_{\lambda_i}(A),$$

each $V_{\lambda_i}(A)$ is A -invariant, and $\dim V_{\lambda_i}(A) = m_a(\lambda_i)$.

Proof. The minimal polynomial $m_A(t) = \prod_{i=1}^r (t - \lambda_i)^{m_i}$ factors into pairwise coprime factors. The primary decomposition theorem yields the direct sum decomposition. The dimension claim follows from considering the restriction of A to each primary component.

Definition 2.5 A Jordan chain of length k for eigenvalue λ_0 is a sequence of nonzero vectors $v_1, \dots, v_k$ satisfying

$$(A - \lambda_0 I)v_1 = 0, \quad (A - \lambda_0 I)v_j = v_{j-1} \quad (2 \leq j \leq k).$$

Lemma 2.1 If $v_1, \dots, v_k$ is a Jordan chain, then these vectors are linearly independent.

Proof. Suppose $\sum_{i=1}^k c_i v_i = 0$. Apply $(A - \lambda_0 I)^{k-1}$: the only term that survives is $c_k v_1$, so $c_k = 0$. Proceed inductively.

Definition 2.5 A Jordan block $J_k(\lambda_0)$ is the $k \times k$ matrix with λ_0 on the diagonal, 1 on the superdiagonal, and 0 elsewhere.

Proposition 2.1 For $J = J_k(\lambda_0)$:

1. $\chi_J(\lambda) = (\lambda_0 - \lambda)^k$;
2. $\dim \ker(J - \lambda_0 I) = 1$;
3. $(J - \lambda_0 I)^k = 0$ but $(J - \lambda_0 I)^{k-1} \neq 0$;
4. The vectors $e_1, (J - \lambda_0 I)e_2, (J - \lambda_0 I)^2 e_3, \dots$ (appropriately interpreted) form a Jordan chain.

Theorem 2.4 (Jordan Canonical Form) For every $A \in M_n(\bar{F}_p)$, there exists $P \in GL_n(\bar{F}_p)$ such that

$$P^{-1}AP = \bigoplus_{i=1}^r J_{k_i}(\lambda_i),$$

where λ_i are the eigenvalues of A (with repetitions).

Proof. We proceed by induction on n . The case $n=1$ is trivial. Assume the theorem holds for all smaller dimensions.

By Theorem 2.3, we may restrict to a single generalized eigenspace V_{λ} . On V_{λ} , the operator $N = A - \lambda I$ is nilpotent. Let k be the nilpotency index of N .

Choose a vector $v \in \ker N^k \setminus \ker N^{k-1}$. The vectors $v, Nv, \dots, N^{k-1}v$ are linearly independent and span a N -invariant subspace W of dimension k . In the basis $N^{k-1}v, \dots, Nv, v$, the restriction of N to W is a single Jordan block $J_k(0)$, so $A|_W$ is $J_k(\lambda)$.

Now consider the quotient space V_{λ}/W . By the induction hypothesis, A induces a Jordan form on this quotient. Lifting back gives a complete Jordan basis for V_{λ} . Repeating for each eigenvalue yields the result.

Definition 2.6 For an eigenvalue λ of A , define

$$n_k(\lambda) = \dim \ker(A - \lambda I)^k, \quad k=0, 1, 2, \dots,$$

with $n_0 = 0$.

Lemma 2.2 The sequence $\{n_k(\lambda)\}$ is non-decreasing and concave: $n_k - n_{k-1} \geq n_{k+1} - n_k$.

Theorem 2.5 (Block Size Formula) The number $t_j(\lambda)$ of Jordan blocks of size j for eigenvalue λ is given by

$$t_j(\lambda) = 2n_j(\lambda) - n_{j-1}(\lambda) - n_{j+1}(\lambda).$$

Proof. For a single Jordan block $J_k(\lambda)$, we have $n_r = \min(r, k)$. One verifies that $t_k = 1$ and $t_j = 0$ for $j \neq k$. Since n_r is additive over direct sums, the formula follows by linearity.

Corollary 2.1 (Uniqueness) The Jordan canonical form of A is unique up to permutation of the Jordan blocks.

Proof. The numbers $t_j(\lambda)$ are determined solely by the dimensions $n_k(\lambda)$, which are similarity invariants. Hence any two Jordan forms must have the same multiset of block sizes for each eigenvalue.

We now illustrate the theory with detailed examples over various finite fields. Each example includes the computation of the characteristic polynomial, kernel dimensions, and the resulting Jordan form.

Example 2.1 Consider

$$A = \begin{pmatrix} \lambda & 1 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix} \in M_3(\mathbb{F}_2).$$

The characteristic polynomial is $\chi_A(\lambda) = (1-\lambda)^3$, so $\lambda=1$ is the only eigenvalue with $m_a=3$. Compute $B=A-I$:

$$B = \begin{pmatrix} 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}.$$

Then $B^2=0$. The kernel dimensions are $n_1 = \dim \ker B = 2$ and $n_2 = 3$. Applying Theorem 2.5:

$$t_1 = 2n_1 - n_0 - n_2 = 4 - 0 - 3 = 1, \quad t_2 = 2n_2 - n_1 - n_3 = 6 - 2 - 3 = 1.$$

Thus the Jordan form consists of one 1×1 block and one 2×2 block:

$$J = \begin{pmatrix} \lambda & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 1 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix}.$$

Example 2.2 Let

$$A = \begin{pmatrix} \lambda & 0 & 1 & 1 \\ 1 & 1 & 0 & 1 \\ 0 & 0 & 1 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & \lambda \end{pmatrix} \in M_4(\mathbb{F}_2).$$

One verifies that $\chi_A(\lambda) = (1-\lambda)^4$. Computing powers of $B=A-I$ yields:

$$B = \begin{pmatrix} 0 & 0 & 1 & 1 \\ 1 & 0 & 0 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}, \quad B^2 = \begin{pmatrix} 0 & 0 & 0 & 1 \\ 0 & 0 & 1 & 1 \\ 0 & 0 & 1 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}, \quad B^3 = \begin{pmatrix} 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 1 \\ 0 & 0 & 1 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}, \quad B^4 = 0.$$

The kernel dimensions are $n_1=1, n_2=2, n_3=3, n_4=4$. Theorem 2.15 gives $t_1=t_2=t_3=0$ and $t_4=1$. Hence A is similar to a single 4×4 Jordan block.

Example 2.3 Let

$$A = \begin{pmatrix} 2 & 1 & 1 \\ 0 & 2 & 1 \\ 1 & 0 & 2 \end{pmatrix} \in M_3(\mathbb{F}_3).$$

Set $\mu = 2 - \lambda$. Expanding the determinant yields

$$\chi_A(\lambda) = \mu^3 - \mu + 1.$$

Testing $\mu=0,1,2$ in $\mathbb{F}_3$ gives 1,1,1 respectively, none of which are zero. Thus χ_A is irreducible over $\mathbb{F}_3$. Over the extension field $\mathbb{F}_{27}$, it splits into three distinct linear factors. Consequently, A is diagonalizable over $\mathbb{F}_{27}$:

$$J = \begin{pmatrix} \alpha & 0 & 0 \\ 0 & \alpha^3 & 0 \\ 0 & 0 & \alpha^9 \end{pmatrix},$$

where $\alpha^3 - \alpha + 1 = 0$.

Example 2.4 Consider the matrix

$$A = \begin{pmatrix} 2 & 1 & 4 & 0 \\ 0 & 2 & 1 & 4 \\ 4 & 0 & 2 & 3 \\ 0 & 4 & 0 & \lambda \end{pmatrix} \in M_4(\mathbb{F}_5).$$

Step 1: Characteristic Polynomial. Set $\mu=2-\lambda$. Expanding the determinant gives

$$\chi_A(\lambda)=\det(A-\lambda I)=\mu^4-\mu^3+2\mu+2.$$

Testing all $\mu \in \mathbb{F}_5 = \{0, 1, 2, 3, 4\}$:

$$\begin{array}{ll} \mu & \mu^4 - \mu^3 + 2\mu + 2 \\ 0 & 2 \neq 0 \\ 1 & 1 - 1 + 2 + 2 = 4 \neq 0 \\ 2 & 16 - 8 + 4 + 2 = 14 \equiv 4 \neq 0 \\ 3 & 81 - 27 + 6 + 2 = 62 \equiv 2 \neq 0 \\ 4 & 256 - 64 + 8 + 2 = 202 \equiv 2 \neq 0 \end{array}$$

No root exists in $\mathbb{F}_5$, so χ_A is irreducible of degree 4 over $\mathbb{F}_5$.

Step 2: Splitting Field. Let $\mathbb{F}_{5^4} = \mathbb{F}_{625}$ be the extension field containing all roots of χ_A . Since χ_A is irreducible and separable (characteristic 5 does not divide the derivative), it has four distinct roots $\alpha_1, \alpha_2, \alpha_3, \alpha_4 \in \mathbb{F}_{625}$.

Step 3: Jordan Form. Because all eigenvalues are distinct, A is diagonalizable over $\mathbb{F}_{625}$. Thus there exists $P \in \text{GL}_4(\mathbb{F}_{625})$ such that

$$P^{-1}AP = J = \begin{pmatrix} \alpha_1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & \alpha_2 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & \alpha_3 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & \alpha_4 \end{pmatrix},$$

where α_i are the four distinct roots of χ_A in $\mathbb{F}_{625}$.

Conclusion. The Jordan form is diagonal with four distinct eigenvalues in the extension field $\mathbb{F}_{625}$.

Example 2.5 (Alternative: Companion Matrix Construction) A simpler way to obtain a 4×4 matrix over $\mathbb{F}_5$ with irreducible characteristic polynomial is the companion matrix of an irreducible quartic. For instance, take

$$C = \begin{pmatrix} 0 & 0 & 0 & 4 \\ 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 0 \end{pmatrix},$$

whose characteristic polynomial is $x^4 - 4 = x^4 + 1$ (since $-4 \equiv 1 \pmod{5}$). One checks that $x^4 + 1$ has no roots in $\mathbb{F}_5$, and it is irreducible. Hence C is diagonalizable over $\mathbb{F}_{625}$ with four distinct eigenvalues.

REFERENCES:

1. N. J. Fine and I. N. Herstein, *The probability that a matrix be nilpotent*, *Illinois J. Math.* **2** (1958), 499–504.
2. R. Lidl and H. Niederreiter, *Finite Fields*, 2nd ed., *Encyclopedia of Mathematics and its Applications*, Cambridge University Press, 1997.
3. Roman, *Advanced Linear Algebra*, 3rd ed., *Graduate Texts in Mathematics*, Springer, 2005.
4. D. S. Dummit and R. M. Foote, *Abstract Algebra*, 3rd ed., Wiley, 2004.
5. K. Hoffman and R. Kunze, *Linear Algebra*, 2nd ed., Prentice Hall, 1971.
6. M. Artin, *Algebra*, Prentice Hall, 1991.
7. S. Lang, *Algebra*, Revised 3rd ed., *Graduate Texts in Mathematics*, Springer, 2002.
8. N. Jacobson, *Lectures in Abstract Algebra*, Vol. II: *Linear Algebra*, Van Nostrand, 1953.
9. F. R. Gantmacher, *The Theory of Matrices*, Vol. I, Chelsea, 1959.
10. R. P. Stanley, *Theory and application of plane partitions. Part 2*, *Studies in Appl. Math.* **50** (1971), 259–279.
11. I. G. Macdonald, *Symmetric Functions and Hall Polynomials*, 2nd ed., Oxford University Press, 1995.

PROPORSIONAL INTENSIVLIK MODELİ BAHOSI UCHUN MUVOFIQLIK MEZONI

Mansurov Dilshod Ravilovich,

Navoiy davlat universiteti

Matematika kafedrası, Navoiy, O‘zbekiston

dmansurovmath@gmail.com

Bozorov Suxrob Baxodirovich,

Guliston davlat universiteti

Matematika kafedrası, Guliston, O‘zbekiston

suxrobbek_8912@mail.ru

Oltiyev Azizbek Bayramovich,

Navoiy davlat universiteti

Matematika kafedrası, Navoiy, O‘zbekiston

azizbekolot1993@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘ng tomondan tasodifiy senzurlanishli informativ model va bu modeldagi bir bahoning xossalari tadqiq etilgan. O‘ng tomondan senzurlangan tanlanmalar uchun Abdushukurov–Cheng–Lin (ACL) bahosi asosida muvofiqlik mezonining limit taqsimoti sonli usullar yordamida o‘rganilgan. Asosiy natija sifatida limit taqsimotning $F(t)$ taqsimot funksiyasi va uning parametrlariga bog‘liq emasligi, lekin senzurlanish darajasiga kuchli bog‘liqligi aniqlangan. Turli senzurlanish darajalari uchun kritik nuqtalar jadvali tuzilgan hamda normallashtirilgan statistikaning Kolmogorov taqsimotiga yaqinlashish masalasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tasodifiy senzurlanish, informativ model, proporsional intensivliklar, muvofiqlik mezon, ACL bahosi, Kolmogorov taqsimoti.

A GOODNESS-OF-FIT CRITERION FOR THE ESTIMATION OF THE PROPORTIONAL INTENSITY MODEL

Abstract. This article investigates the informative model of right-censored data and the properties of the estimate within this model. The limiting distribution of the goodness-of-fit criterion based on the Abdushukurov–Cheng–Lin (ACL) estimate for right-censored samples has been studied by numerical methods. It is shown that the limiting distribution does not depend on the distribution function $F(t)$ or its parameters, but strongly depends on the censoring level. A table of critical values for various censoring levels is constructed, and the problem of approximation of the normalized statistic to the Kolmogorov distribution is considered.

Key words: random censorship, informative model, proportional hazards, goodness-of-fit test, ACL estimate, Kolmogorov distribution.

КРИТЕРИЙ СОГЛАСИЯ ДЛЯ ОЦЕНКИ МОДЕЛИ ПРОПОРЦИОНАЛЬНОЙ ИНТЕНСИВНОСТИ

Аннотация. В этой статье исследуется информативная модель данных с правильной цензурой и свойства оценки в рамках этой модели. Численными методами было изучено предельное распределение критерия соответствия, основанное на оценке Абдушукурова-Ченг-Лина (ACL) для выборок с правильной цензурой. Показано, что предельное распределение не зависит от функции распределения $F(t)$ или её параметров, но сильно зависит от уровня цензурирования. Построена таблица критических значений для различных уровней цензурирования, и рассмотрена задача аппроксимации нормализованной статистики распределением Колмогорова.

Ключевые слова: случайная цензура, информативная модель, пропорциональные риски, критерий соответствия, оценка ACL, распределение Колмогорова.

Kirish. Tibbiy-biologik tadqiqotlarda bemorning yashab qolish ko‘rsatkichlarini tekshirishda yoki muhandislik tajribalarida texnik qurilmaning ishonchligini o‘rganishda, tadqiq etilayotgan obyekt haqidagi ma’lumotlar o‘ng tomondan senzurlanishi mumkin. Bunga misol sifatida biror klinikada davolanayotgan

bemorning muayyan sabablarga ko'ra (yashash joyining o'zgarishi, boshqa klinikaga ko'chishi va hokazo) klinikani tark etishini keltirish mumkin. Bunday holda bemor klinikaga kelgan paytdan boshlab ketgunga qadar bo'lgan ma'lumotlar mavjud bo'ladi, lekin ketganidan keyingi axborot yo'q. Shunga o'xshash holatlar o'ngdan senzurlangan ma'lumotlarning namunaviy misollari hisoblanadi.

Faraz qilaylik, X – tadqiq etilayotgan obyektning yashash davomiyligi bo'lib, u Y tasodifiy miqdor yordamida o'ngdan senzurlangan bo'lsin. X va Y bog'liqsiz bo'lib, ularning taqsimot funksiyalari mos ravishda F va G .

O'ngdan senzurlangan ma'lumotlar bilan ishlashda asosiy statistik masala – senzurlangan tanlanma asosida F taqsimot funksiyasini baholashdan iborat. Bu masalani birinchilardan bo'lib Kaplan va Meier [4] ko'rib chiqqan. Ular taklif etgan noparametrik baho amaliy masalalarda keng qo'llaniladi. Biroq, ma'lum informativ model sharoitida Abdushukurov [1], Cheng va Lin [2] hamda Csörgő [3] tomonidan mustaqil ravishda o'rganilgan ACL bahosi bir qator afzalliklarga ega ekanligi isbotlangan.

Muvofiqlik mezonlari statistik tahlilning muhim qismi bo'lib, ular ma'lumotlarning faraz qilinayotgan taqsimotga mosligini tekshirish uchun xizmat qiladi. To'liq tanlanmalar uchun Kolmogorov mezonini keng qo'llaniladi [5]. Biroq, senzurlangan tanlanmalar uchun bu mezonning analogini qurish qo'shimcha nazariy va amaliy tadqiqotlarni talab etadi [6-7].

Ushbu maqolada asosan ACL bahosi asosida senzurlangan tanlanmalar uchun muvofiqlik mezonini qurish va uning limit taqsimotini sonli usullar yordamida o'rganish maqsad qilingan.

Matematik asos.

1 Informativ model va acl bahosi.

Faraz qilaylik, $\{(X_k, Y_k), k \geq 1\} - (X, Y)$ juftliklarning bog'liqsiz realizatsiyalari ketma-ketligi va

$$S^{(n)} = \{(\mathbb{Z}_i, \delta_i), i = 1, \dots, n\}$$

kuzatilgan tanlanma bo'lsin. Bu yerda $\mathbb{Z}_i = \min\{X_i, Y_i\}$, $\delta_i = I(X_i \leq Y_i)$ va $I(A) - A$ hodisaning indikator. Eslatib o'tamizki, $S^{(n)}$ tanlanmada X_i ning kuzatilishlari soni $\delta_1 + \dots + \delta_n$ ga teng.

Statistik masala $S^{(n)}$ tanlanma asosida F taqsimot funksiyasini baholashdan iborat. Buning uchun $\mathbb{Z}_i$ ning taqsimot funksiyasini H orqali belgilaymiz. Minimumning taqsimotiga ko'ra:

$$H(t) = 1 - (1 - F(t))(1 - G(t)), \quad t \in \mathbb{R}. \quad (1)$$

(1) ga qo'shimcha ravishda, qandaydir musbat θ parametr mavjud bo'lib, barcha $t \in \mathbb{R}$ uchun quyidagi funksional bog'lanish o'rinli bo'lsin:

$$1 - G(t) = (1 - F(t))^\theta. \quad (2)$$

Bu modeldagi θ parametr o'ngdan senzurlanish darajasini belgilaydi ($\theta = 0$ – senzurlanish yo'q, $\theta \rightarrow 1$ – kuchli senzurlanish). (1) va (2) formulalarni birlashtirish orqali F uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$F(t) = 1 - [1 - H(t)]^p, \quad t \in \mathbb{R}, \quad (3)$$

bu yerda $p = \frac{1}{1 + \theta}$.

$(H(t), p)$ juftlik o'rniga $S^{(n)}$ tanlanma yordamida olingan uning baholarini (3) ifodaga qo'yib, ACL bahosini hosil qilamiz:

$$F_n^{\text{ACL}}(t) = 1 - [1 - H_n(t)]^{p_n}, \quad t \in \mathbb{R}, \quad (4)$$

bu yerda

$$p_n = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \delta_i, \quad H_n(t) = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n I(\mathbb{Z}_i \leq t).$$

Bu baho [1-3] adabiyotlarda mustaqil ravishda o'rganilgan bo'lib, uni ACL (Abdushukurov–Cheng–Lin) bahosi deb atash tavsiya etilgan.

2 To'liq tanlanma uchun muvofiqlik mezonini.

Tekshirilayotgan asosiy gipoteza:

$$H_0 : F(t) = F_0(t) \quad \text{barcha } t \text{ uchun,}$$

muqobil gipoteza esa:

$$H_1 : F(t) \neq F_0(t) \quad \text{qandaydir } t \text{ uchun.}$$

Bu gipotezani tekshirish nazariy taqsimot funksiyasi $F(t)$ va empirik taqsimot funksiyasi $F_n^*(t)$ orasidagi farqning moduli supremumiga asoslanadi:

$$D_n = \sup_{t \in \mathbb{R}} |F(t) - F_n^*(t)|. \quad (5)$$

D_n ning ixtiyoriy n da taqsimoti $F(t)$ ga bog'liq emas – bu xususiyat mezon qurishning asosi hisoblanadi. Tegishli limit taqsimot quyidagi teorema bilan beriladi.

Teorema 1 (A.N.Kolmogorov) Agar $F(t)$ – uzluksiz taqsimot funksiya bo'lsa, u holda barcha $t > 0$ uchun

$$\lim_{n \rightarrow \infty} P \sqrt{n} D_n < t = K(t), \quad (6)$$

bu yerda

$$K(t) = \sum_{k=-\infty}^{+\infty} (-1)^k e^{-2k^2 t^2} \quad (7)$$

Kolmogorov taqsimot funksiyasi deb ataladi.

$K(t)$ – parametrsiz taqsimot funksiyasi bo'lib, $K(t)$ ning qiymatlari va $K^{-1}(p)$ kvantillari statistik jadvallar yoki kompyuter dasturlari yordamida hisoblanadi. Statistika sifatida $R = \sqrt{n} D_n$ olinadi. H_0 gipotezasini qabul qilish sohasi:

$$[0, K^{-1}(1-\alpha)],$$

bu yerda α – ishonchlilik darajasi. $R > K^{-1}(1-\alpha)$ bo'lganda H_1 qabul qilinadi.

3 Senzurlangan tanlanma uchun muvofiqlik mezon. (5) da $F_n^*(t)$ o'rniga (4) ACL bahosini qo'ysak, limit taqsimot qanday o'zgaradi? Ushbu savolga quyida javob topishga urinamiz.

$$D_n^{\text{ACL}} = \sup_{t \leq T_H} |F(t) - F_n^{\text{ACL}}(t)|, \quad (8)$$

$$T_H = \inf \{x : H_n(x) = 1\}.$$

[2] da quyidagi yaqinlashish tezligi isbotlangan:

$$D_n^{\text{ACL}} = O \sqrt{\frac{\ln \ln n}{n}}. \quad (9)$$

Bu tezlikni inobatga olib, mezonning asosiy statistikasini shakllantiramiz:

$$T_n = \sqrt{\frac{n}{\ln \ln n}} \cdot \sup_{t \leq T_H} |F(t) - F_n^{\text{ACL}}(t)|. \quad (10)$$


Endi yuqoridagi (10) T_n ning limit taqsimotini sonli usulda o'rganish uchun quyidagi iterativ algoritm (Monte-Karlo usuli) qo'llaniladi.

Algoritm:

1. Berilgan $F(t)$ va senzurlanish darajasi θ asosida katta hajmli sun'iy tanlanma hosil qilinadi.
2. Hosil qilingan tanlanma asosida T_n ning empirik taqsimoti quriladi.
3. Qurilgan empirik taqsimot bo'yicha kerakli kvantil topiladi.
4. 1–3-qadamlar zarur aniqlikka erishilgunga qadar takrorlanib, olingan kvantillarning o'rtachasi hisoblanadi.

Har bir seriyada $n \in \{500, 5000\}$, $F(t)$ sifatida eksponensial $\text{Exp}(\lambda)$, normal $N(\mu, \sigma^2)$ va tekis $U(0,1)$ taqsimotlar, senzurlanish darajasi esa 10% dan 80% gacha tekshirildi. Alohida ko'rsatilmagan holatlarda barcha grafiklar o'rtacha 50% senzurlanish darajasida tasvirlangan. Barcha amaliy tekshiruvlar Python dasturlash tili yordamida bajarildi.


ACL bahosini (4) haqiqiy taqsimot funksiyasi bilan solishtiruvchi grafik 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. ACL bahosi va $F(t)$: $n = 1000$, senzurlanish darajasi 30%.

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, $F_n^{\text{ACL}}(t)$ haqiqiy taqsimot funksiyasiga juda yaqin joylashadi. Turli adabiyotlarda bu bahoning Kaplan–Meier bahosiga nisbatan bir qator ustunliklari ko‘rsatilgan: asimptotik samaradorlik, kichik tanlanmada barqarorlik va senzurlangan nuqtalarda yaxshiroq o‘zini tutishi kabilar.

Eng avvalo muvofiqlik mezonini qurish uchun yaqinlashish tezligi zarur bo‘ladi. Ushbu tezlik (9) da $O(\sqrt{\ln \ln n / n})$ shaklida berilgan. Tezlikni sonli tekshirish uchun turli n larda D_n^{ACL} ning o‘rtacha qiymati va nazariy egri chizig‘i birgalikda tasvirlangan (2-rasm).




2-rasm. D_n^{ACL} ning $\sqrt{\ln \ln n / n}$ yaqinlashish tezligi: nuqtalar – tajriba natijalari, chiziq – nazariy tezlik.

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, empirik qiymatlar nazariy $\sqrt{\ln \ln n / n}$ egri chizig‘iga yaqin joylashgan bo‘lib, bu (9) ning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Natijalar.


1 Limit taqsimotning $F(t)$ va uning parametrlaridan mustaqilligi.

T_n ning limit taqsimoti $F(t)$ ning parametrlariga bog‘liqligini tekshirish uchun eksponensial va normal taqsimotlar bir necha parametrdan sinab ko‘rildi.



3-rasm. $F(\cdot) \sim \text{Exp}(\lambda)$, $\lambda = 1, 2, 3$


3-rasmdan (a) va b) ko'rinib turibdiki, $n = 500$ va $n = 5000$ da ham λ ning turli qiymatlari uchun T_n ning empirik taqsimotlari deyarli ustma-ust tushadi. Bu holat eksponensial taqsimot parametrlari limit taqsimotga ta'sir qilmasligini ko'rsatadi.



4-rasm. $F(\cdot) \sim N(\mu, \sigma^2)$

4-rasm normal taqsimot uchun ham xuddi shunday xulosa beradi: (μ, σ^2) qiymatlari o'zgarganda limit taqsimot o'zgarmaydi.

Yuqorida limit taqsimotning parametrlarga bog'liq emasligi o'rganildi. Endi limit taqsimotning taqsimot funksiyani o'zini ko'rinishiga bog'liq emasligini tekshiramiz. Umumiylikni chegaralamasdan, barcha tekis $U(0,1)$, eksponensial $\text{Exp}(1)$ va normal $N(0,1)$ taqsimotlar standart parametrlarda olinib T_n o'rganildi (5-rasm).




5-rasm. $U(0,1)$, $\text{Exp}(1)$, $N(0,1)$


5-rasmdan ko‘rinib turibdiki, uch xil taqsimot uchun ham T_n ning taqsimoti amalda bir xil. Ayniqsa $n = 5000$ da (5b-rasm) uchta egri chiziq deyarli to‘liq ustma-ust tushadi. Bu esa T_n ning limit taqsimoti $F(t)$ taqsimot funksiyasining ko‘rinishi va parametrlaridan bog‘liq emasligini anglatadi.

2 Limit taqsimotning senzurlanish darajasiga bog‘liqligi.

Senzurlanish darajasining T_n ga ta‘sirini o‘rganish uchun bir xil $F(t)$ da turli θ qiymatlari qo‘llanildi (6-rasm).




6-rasm. $n = 5000$; senzurlanish 10%–50%.



7-rasm. $F(\cdot) \sim N(0,1)$, $n = 5000$; senzurlanish 10%–60%.

6-7-rasmlardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, T_n ning limit taqsimoti senzurlanish darajasiga kuchli bog‘liq. Buni ayniqsa 8-rasmda yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Senzurlanish darajasi 50% dan oshganda taqsimot keskin o‘ngga siljiydi. Bu senzurlanishli tanlanmalar uchun muvofiqlik mezonlarini analitik usulda ishlab chiqishda qiyinchilikni keltirib chiqaradi.



8-rasm. D_n^{ACL} ning senzurlanish darajasiga bog'liqligi (gorizontal o'q – senzurlanish darajasi, %, vertikal o'q – 20 000 ta tajribada o'rtacha supremum qiymati).

8-rasmdan ko'rinib turibdiki, D_n^{ACL} senzurlanish darajasi ortishi bilan monoton o'sadi va 50% dan keyin sezilarli tezlashadi. Yuqoridagi sonli tajribalar asosida olingan natijalarga ko'ra limit taqsimotni analitik usulda ko'rsatish murakkab masala ekanligini xulosa qilishimiz mumkin. Chunki limit taqsimot senzurlanish darajasiga kuchli bog'liq.

$F(t)$ dan mustaqillik. T_n statistikasing limit taqsimoti $F(t)$ ning ko'rinishi va parametrlariga bog'liq emasligini aniqlash – bu ish natijalarning eng muhim qismidir. Ekspontensial, normal va tekis taqsimotlar uchun olib borilgan tajribalar (3–5-rasmlar) ushbu fakti aniq tasdiqladi. Bu xususiyat ACL bahosiga asoslangan muvofiqlik mezonining universalligini ta'minlaydi.

Senzurlanish darajasiga bog'liqlik va amaliy yechimlar. Limit taqsimotning senzurlanish darajasiga kuchli bog'liqligi (10–12-rasmlar) mezonni amalda qo'llashni qiyinlashtiradi. Bu holatda muammoni hal etishning uchta amaliy tavsiyasi beriladi:

1. Jadval usuli. Muayyan senzurlanish darajalari uchun yuqori aniqlikda kritik nuqtalar jadvalini oldindan tayyorlash (1-jadval). Kamchiligi: ixtiyoriy senzurlanish darajasi uchun jadval tuzish imkonsiz.

2. Monte-Karlo usuli. Berilgan model va senzurlanish darajasi uchun dastur orqali empirik kvantilni real vaqtda hisoblash. Bu usul zamonaviy kompyuterlar bilan yaxshi ishlaydi va juda aniq natija beradi, biroq hisoblash vaqtini talab etadi.

3. Normallashtirish usuli. $\varphi(\theta)$ funksiyasi yordamida $W_n(\theta) = \varphi(\theta)T_n$ statistikani Kolmogorov taqsimotiga yaqinlashtirish (2-jadval). Agar $\varphi(\theta)$ ning analitik ko'rinishi topilsa, bu eng samarali yondashuv bo'ladi.

Yuqorida aytilgan uchta tavsiya barchasi uchun yechim namunalari keltiramiz. Monte-Karlo usulida (har biri 20000 ta takrorlash) turli senzurlanish darajalari va ishonchlilik darajalari uchun T_n ning empirik kvantillari hisoblandi (1-jadval).

1-jadval.

T_n statistikasing kritik nuqtalari			
Senzurlanish darajasi	$\alpha = 0,10$	$\alpha = 0,05$	$\alpha = 0,01$
5%	0,8498	0,9430	1,1311
10%	0,8492	0,9430	1,1294
15%	0,8515	0,9451	1,1326
20%	0,8565	0,9512	1,1424
25%	0,8652	0,9610	1,1526
30%	0,8800	0,9768	1,1719
35%	0,9029	1,0016	1,2024
40%	0,9400	1,0401	1,2417
45%	1,0163	1,1168	1,3222
50%	1,1871	1,3064	1,5504
55%	1,5332	1,7061	2,0554
60%	2,1338	2,3671	2,8066

65%	3,0211	3,3128	3,8522
70%	4,2853	4,6352	5,2771
75%	6,0780	6,4921	7,2249
80%	8,6178	9,0822	9,8962

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, past senzurlanish darajalarida (5%–30%) kritik nuqtalar nisbatan barqaror va Kolmogorov taqsimotiga yaqin, 50% dan oshganda esa ular keskin ortadi.


Keyingi usul normallashtirilgan statistika va Kolmogorov taqsimoti. D_n^{ACL} ning o‘rishini normallashtiradigan $\varphi(\theta)$ ko‘paytuvchi yordamida:

$$W_n(\theta) = \varphi(\theta) \sqrt{\frac{n}{\ln \ln n}} D_n^{ACL} \quad (11)$$


statistikasining Kolmogorov taqsimotiga yaqinlashishi tekshirildi, ya’ni:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} P W_n(\theta) < t \stackrel{?}{\approx} K \left(\frac{\varphi(\theta)}{\sqrt{\ln \ln n}} t \right). \quad (12)$$

9-10-rasmlarda (11) ning taqsimot funksiyasi va Kolmogorov taqsimotining taqqoslanishi keltirilgan.




a) taqsimot funksiyasi




b) zichligi

9-rasm. $F(x) \sim \text{Exp}(1)$ taqsimot funksiyasi va zichligi $\theta = 1$, $\varphi(\theta) = 0,7$.



a) taqsimot funksiyasi



b) zichligi

10-rasm. $F(x) \sim N(0,1)$ taqsimot funksiyasi va zichligi $\theta = 1$, $\varphi(\theta) = 0,7$.

9-10-rasmlardan ko‘rinib turibdiki, $\varphi(\theta)$ to‘g‘ri tanlanganda $W_n(\theta)$ ning empirik taqsimoti Kolmogorov taqsimotiga yaxshi mos keladi. $\varphi(\theta)$ funksiyasining turli senzurlanish darajalaridagi sonli qiymatlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

$\varphi(\theta)$ funksiyasining qiymatlari

Senzurlanish	10%	20%	30%	40%	50%	60%	70%	80%
$\varphi(\theta)$	0,99	0,98	0,95	0,91	0,70	0,40	0,19	0,08

2-jadvaldan past senzurlanish darajalarida $\varphi(\theta) \approx 1$ bo‘lib, senzurlanish darajasi 50% dan oshganda $\varphi(\theta)$ keskin kamayadi.

$\varphi(\theta)$ ning tahlili. Senzurlanish 10%–30% oralig‘ida $\varphi(\theta) \in [0,95; 0,99]$, ya‘ni normallashtirish ahamiyatsiz. 50% dan yuqorida $\varphi(\theta)$ keskin kamayib, 80% senzurlanishda 0,08 ga tushadi. Bu holat yuqori senzurlanish darajalarida Kolmogorov yaqinlashishi sezilarli darajada buzilishini ko‘rsatadi. Kelgusida $\varphi(\theta)$ ning polinomial yoki boshqa analitik yaqinlashtirishini topish muhim masala bo‘lib qoladi.

Xulosa. Ushbu maqolada o‘ngdan senzurlangan tanlanmalar uchun ACL bahosi asosida muvofiqlik mezonini qurildi va uning xossalari sonli usullar yordamida o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy natijalari:

ACL bahosining haqiqiy taqsimot funksiyasiga yaqinlashish tezligi $O(\sqrt{\ln \ln n / n})$ ekanligi sonli tajribalar tomonidan tasdiqlandi.

$T_n = \sqrt{n / (\ln \ln n)} \cdot D_n^{\text{ACL}}$ statistikasining limit taqsimoti $F(t)$ ning ko‘rinishi va parametrlaridan bog‘liq emasligini ko‘rsatuvchi empirik dalillar olingan. Bu xususiyat universal muvofiqlik mezonini qurishning asosi hisoblanadi.

Limit taqsimotning senzurlanish darajasiga kuchli bog‘liqligi aniqlandi; senzurlanish darajasi 50% dan oshganda keskin o‘zgarish kuzatildi.

Turli senzurlanish darajalari (5%–80%) va ishonchlik darajalari ($\alpha = 0,10; 0,05; 0,01$) uchun Monte-Karlo usulida kritik nuqtalar jadvali tuzildi.

Normallashtirilgan $W_n(\theta)$ statistikasining Kolmogorov taqsimotiga yaqinlashishi empirik tarzda ko‘rsatildi va $\varphi(\theta)$ ning sonli qiymatlari aniqlandi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda $\varphi(\theta)$ ning analitik ko‘rinishini topish, limit taqsimotga nazariy asoslash berish hamda boshqa senzurlanish modellari uchun o‘xshash mezonlarni qurish rejalashtirilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Abdushukurov A. A. *Nonparametric Estimation in Proportional Hazards Model of Random Censorship* // VINITI. – 1987. – No. 3448 (B87).
2. Cheng P. E., Lin G. D. *Maximum Likelihood Estimation of Survival Function under the Koziol–Green Proportional Hazards Model* // *Statistics & Probability Letters*. – 1987. – Vol. 5. – P. 75–80. [https://doi.org/10.1016/0167-7152\(87\)90030-7](https://doi.org/10.1016/0167-7152(87)90030-7).
3. Csörgő S. *Estimation in the Proportional Hazards Model of Random Censorship* // *Statistics*. – 1988. – Vol. 19. – P. 437–463. <https://doi.org/10.1080/02331888808802115>.
4. Kaplan E. L., Meier P. *Nonparametric Estimation from Incomplete Observations* // *Journal of the American Statistical Association*. – 1958. – Vol. 53, No. 282. – P. 457–481.
5. Kolmogorov A. N. *Sulla determinazione empirica di una legge di distribuzione* // *Giornale dell’Istituto Italiano degli Attuari*. – 1933. – Vol. 4. – P. 83–91.
6. Абдушукуров А.А., Бозоров С.Б., Мансуров Д.Р. *Оптимальное ядерное оценивание плотности методом статистического моделирования при случайном цензурировании наблюдений* // *Вестник Томского государственного университета. Управление, вычислительная техника и информатика*. (Q4, 1.Web of Science, 3. Scopus, IF=0.1) 2024. № 67. С. 49-59. doi: 10.17223/19988605/67/6;
7. Abdushukurov A. A., Bozorov S. B., Mansurov D. R. *Estimation of Distribution Function Based on Presmoothed Relative-Risk Function* // *Applied Mathematics*. 2022. № 02 (13). С. 191-204 (35. CrossRef, IF=0.61).

$W_2^{(2,1)}(0,t)$ FAZOSIDA IKKI NUQTALI VAZNLI KVADRATUR FORMULALAR QURISH

Davronov Javlon Rustam o‘g‘li,
Tashkent International University dotsenti v.b., PhD
javlon davronov77@gmail.com
Elmurodova Sitora Saidmurodovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
misselmurodova@gmail.com
Ko‘klamova Matlyuba Ulug‘bek qizi,
Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada $W_2^{(2,1)}(0,t)$ Gilbert fazosida kvadratur formulalarni qurish va ularning xatolik funksionalini baholash masalalari o‘rganilgan. Xatolik funksionalining normasi analitik ko‘rinishda topilgan va optimal koeffitsiyentlarni topish uchun sistema tuzilgan. Tuzilgan sistemada $N=1$ bolgan hol uchun koeffitsiyentlarning aniq ko‘rinishi topilgan.

Kalit so‘zlar: Gilbert fazosi, kvadratur formula, xatolik funksionali, xatolik funksionalining normasi, optimal koeffitsiyentlar.

ПОСТРОЕНИЕ ДВУХТОЧЕЧНЫХ ВЗВЕШЕННЫХ КВАДРАТУРНЫХ ФОРМУЛ В
ПРОСТРАНСТВЕ $W_2^{(2,1)}(0,t)$

Аннотация. В данной статье изучены вопросы построения квадратурных формул и оценки их функционала погрешности в гильбертовом пространстве $W_2^{(2,1)}(0,t)$. Норма функционала погрешности найдена в аналитическом виде, и составлена система для нахождения оптимальных коэффициентов. Для случая $N=1$ в составленной системе найден точный вид коэффициентов.

Ключевые слова: Гильбертово пространство, квадратурная формула, функционал погрешности, норма функционала погрешности, оптимальные коэффициенты.

$W_2^{(2,1)}(0,t)$ CONSTRUCTION OF TWO-POINT WEIGHTED QUADRATURE FORMULAS IN
FAZO SPACE

Abstract. This paper studies the problems of constructing quadrature formulas and estimating their error functional in the Hilbert space $W_2^{(2,1)}(0,t)$. The norm of the error functional is found in an analytical form, and a system is constructed to find the optimal coefficients. The exact form of the coefficients is found for the case $N=1$ in the constructed system.

Keywords: Hilbert space, quadrature formula, error functional, norm of the error functional, optimal coefficients.

Kirish va asosiy tushunchalar. So‘nggi yillarda kasr tartibli differensial va integral operatorlar matematik modellashtirishning ko‘plab sohalarida — fizik jarayonlar nazariyasi, viskoelastiklik, diffuziya jarayonlari, biofizika, signalni qayta ishlash va moliyaviy matematikada keng qo‘llanilmoqda. Klassik butun tartibli operatorlar ko‘plab real jarayonlarning xotira effektini yetarlicha ifodalay olmagan sababli, kasr tartibli operatorlar asosidagi modellar alohida ahamiyat kasb etmoqda [6-10].

Kasr tartibli integrallar tarkibida ko‘pincha singulyar yadrolar qatnashadi. Bunday integrallarni aniq hisoblash ko‘p hollarda murakkab yoki imkonsiz bo‘lib, ularni taqribiy hisoblash masalasi dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, kuchsiz singulyar integrallarni Sobolev fazolarida optimal kvadratur formulalar yordamida hisoblash masalasi nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Sobolev fazolarida optimal kvadratur formulalar qurish masalasi funksional analiz, operatorlar nazariyasi va sonli analiz kesishgan nuqtada joylashgan murakkab ilmiy yo‘nalishdir. Ikki nuqtali optimal formula qurish esa minimal hisoblash xarajati bilan maksimal aniqlikka erishish imkonini beradi.

Shu sababli, Sobolev fazosida kuchsiz singulyar [3] integrallarni taqribiy hisoblashning ikki nuqtali optimal formulalarini qurish va ularning xatolik funksionalini minimallashtirish masalasi dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishi funksional yondashuvga taalluqli bo'lganligi sababli, biz asosan ushbu sohadagi natijalar sharhini keltirib o'tamiz. Kvadratur va kubatur formulalarni qurishdagi funksional yondashuv integral ostidagi funksiyalarning ma'lum bir Banax yoki Gilbert fazosiga tegishli bo'lishini nazarda tutadi. Integral va integral ostidagi funksiya qiymatlarining taqribiy kombinatsiyasi o'rtasidagi farq chiziqli uzluksiz funksional sifatida qaralib, u kubatur yoki kvadratur formulaning xatolik funksionali deb ataladi. Formulaning xatoligi ushbu xatolik funksionalining normasi orqali baholanadi. Xatolik funksionalining normasini kvadratur va kubatur formulalarning parametrlari (tugunlari va koeffitsiyentlari) [4-5] bo'yicha minimallashtirish orqali sonli integrallash uchun optimal formulalar olinadi.

Biz quyidagi kvadratur formulani qurish bilan shug'ullanamiz

$$\int_0^t \frac{\varphi(x) dx}{(t-x)^{1-\alpha}} \cong \sum_{\beta=0}^N C_{\beta} \varphi(x_{\beta}) \quad (1)$$

Bu yerda C_{β} koeffitsiyentlar, $x_{\beta} \left(x_{\beta} = h\beta, h = \frac{t}{N} \right)$ lar esa tugun nuqtalar ($0 < \alpha < 1$). Ushbu $\varphi(x)$ funksiyalar esa $W_2^{(2,1)}(0, t)$ fazoning elementi va fazo quyidagicha ta'riflanadi

$$W_2^{(2,1)}(0, t) = \left\{ \varphi: [0, t] \rightarrow R \mid \varphi, \varphi' - \text{abs. uzl.}, \varphi^{(2)} \in L_2(0, t) \right\}.$$

Ushbu fazodagi ixtiyoriy ikkita φ va ψ funksiyalarning skalyar ko'paytmasi quyidagicha aniqlangan

$$\langle \varphi, \psi \rangle = \int_0^t (\varphi''(x) + \varphi'(x)) (\psi''(x) + \psi'(x)) dx.$$

$W_2^{(2,1)}(0, t)$ fazosi Gilbert fazosi bo'lganligi uchun norma skalyar ko'paytma yordamida kiritiladi

$$\|\varphi\| = \sqrt{\int_0^t (\varphi''(x) + \varphi'(x))^2 dx}.$$

(1)- ko'rinishdagi kvadratur formulaning xatoligi quyidagicha

$$(\ell, \varphi) = \int_0^t \frac{\varphi(x) dx}{(t-x)^{1-\alpha}} - \sum_{\beta=0}^N C_{\beta} \varphi(x_{\beta}) \quad (2)$$

(2)- ko'rinishdagi xatolikka mos xatolik funksionali esa ushbu ko'rinishda

$$\ell(x) = \frac{\varepsilon_{[0,t]}(x)}{(t-x)^{1-\alpha}} - \sum_{\beta=0}^N C_{\beta} \delta(x - x_{\beta}). \quad (3)$$

Bu yerda $\varepsilon_{[0,t]}(x) - [0, t]$ kesmaning xarakteristik funksiyasi, $\delta(x)$ - Dirakning delta funksiyasi.

Funksionalning normasi quyidagicha

$$\|\ell\|_{W_2^{(2,1)*}} = \sup_{\varphi, \|\varphi\| \neq 0} \frac{|(\ell, \varphi)|}{\|\varphi\|_{W_2^{(2,1)}}}.$$

Xatolik funksionalining normasini topish. Koshi-Shvars tengsizligiga ko'ra xatolik xatolikning absolyut qiymati quyidagi ko'paytma yordamida yuqoridan baholanadi

$$|(\ell, \varphi)| \leq \|\ell\|_{W_2^{(2,1)*}} \cdot \|\varphi\|_{W_2^{(2,1)}} \quad (4)$$

(4)- munosabatdan foydalanib xatolikning yuqori bahosi topish uchun ℓ funksionalning normasini ko'rinishini topishimiz kerak bundan esa quyidagi masalaga kelamiz.

1-Masala. Yuqoridagi (3)-ko'rinishdagi xatolik funksionalining normasini ko'rinishini topish.

Xatolik funksionalining normasini topish masalasi $W_2^{(m,m-1)}$ fazoda umumiy holda [1] va [2] ishlarida yechilgan.

Xususan biz quyidagiga ega bo'lamiz

$$\|\ell\|_{W_2^{(2,1)*}}^2 = \sum_{\beta=0}^N \sum_{\gamma=0}^N C_{\beta} C_{\gamma} G_2(h\beta - h\gamma) - 2 \sum_{\beta=0}^N C_{\beta} \int_0^t \frac{G_2(x - h\beta) dx}{(t-x)^{1-\alpha}} + \int_0^t \int_0^t \frac{G_2(x-y) dx dy}{(t-x)^{1-\alpha} (t-y)^{1-\alpha}} \quad (5)$$

Bu yerda $G_2(x) = \frac{\text{sign}(x)}{2} \left(\frac{e^x - e^{-x}}{2} - x \right)$ ga teng. (5)-normaning ko‘rinishidan ma’lumki normaning kvadrati C_β ko‘effitsiyentlar va x_β tugun nuqtalarga bog‘liq tugun nuqtalarni fikslab olib, ushbu normaga eng kichik qiymat beruvchi C_β ko‘effitsiyentlarni topamiz. Ya’ni quyidagi masalaga kelamiz.

2-Masala. (5)-xatolik funksionalining normasiga eng kichik qiymat beruvchi C_β ko‘effitsiyentlarni topish.

Shuni ta’kidlash kerakki, $\ell(x)$ xatolik funksionali uchun quyidagi shartlarni qanoatlantiradi

$$(\ell, e^{-x}) = 0, \quad (6)$$

$$(\ell, 1) = 0. \quad (7)$$

(6) va (7) tenglamalar (1)-kvadratur formula $de^{-x} + P_0$ kabi har qanday chiziqli kombinatsiyasiga aniq. (5)-normaning ko‘rinishidan ma’lumki normaning kvadrati C_β ko‘effitsiyentlarga nisbatan ko‘p o‘zgaruvchili funksiya. (6) va (7) shartlarni inobatga olib Logranjning aniqmas ko‘effitsiyentlar metodiga asosan quyidagini yozib olamiz

$$\Lambda(C, d, P_0) = \|\ell\|_{W_2^{(2,1)*}}^2 - 2d(\ell, e^{-x}) - 2P_0(\ell, 1)$$

Bu yerda (2), (6) va (7) tenglamalarni hisobga olgan holda

$$(\ell, e^{-x}) = \int_0^t \frac{e^{-x} dx}{(t-x)^{1-\alpha}} - \sum_{\beta=0}^N C_\beta e^{-h\beta} = 0$$

$$(\ell, 1) = \int_0^t \frac{dx}{(t-x)^{1-\alpha}} - \sum_{\beta=0}^N C_\beta = 0$$

U holda

$$\begin{aligned} \Lambda(C, d, P_0) &= \|\ell\|_{W_2^{(2,1)*}}^2 - 2d(\ell, e^{-x}) - 2P_0(\ell, 1) = \\ &= \|\ell\|_{W_2^{(2,1)*}}^2 - 2d \left(\int_0^t \frac{e^{-x} dx}{(t-x)^{1-\alpha}} - \sum_{\beta=0}^N C_\beta e^{-h\beta} \right) - 2P_0 \left(\int_0^t \frac{dx}{(t-x)^{1-\alpha}} - \sum_{\beta=0}^N C_\beta \right) \end{aligned} \quad (8)$$

(8) da C_β ($\beta = 0, 1, 2, \dots, N$), d va P_0 bo‘yicha xususiy hosila olib quyidagi tenglamalar sistemasini hosil qilamiz.

$$\left\{ \begin{aligned} \sum_{\beta=0}^N G_2(h\beta - h\gamma) + de^{-h\beta} + P_0 &= \int_0^t \frac{G_2(x - h\beta) dx}{(t-x)^{1-\alpha}} \\ \sum_{\beta=0}^N C_\beta e^{-h\beta} &= \int_0^t \frac{e^{-x} dx}{(t-x)^{1-\alpha}} \\ \sum_{\beta=0}^N C_\beta &= \int_0^t \frac{dx}{(t-x)^{1-\alpha}} \end{aligned} \right.$$

Biz quyidagi belgilashlarni kiritamiz

$$f_2(h\beta) = \int_0^t \frac{G_2(x - h\beta)}{(t-x)^{1-\alpha}} dx, \quad (9)$$

$$g = \int_0^t \frac{e^{-x}}{(t-x)^{1-\alpha}} dx, \quad (10)$$

$$g_0 = \int_0^t \frac{1}{(t-x)^{1-\alpha}} dx \quad (11)$$

Keyingi paragrafda biz ushbu sistemani yechish bilan shug‘ullanamiz

Asosiy natijalar

Teorema: Ushbu $W_2^{(2,1)}(0, t)$ fazoda (1) ko‘rinishdagi kvadratur formulaning $N=1$ bo‘lgan hol uchun koeffitsiyentlarning analitik ko‘rinishi quyidagicha

$$C_0 = \frac{g\alpha e^t - t^\alpha}{\alpha(e^t - 1)}$$

$$C_1 = \frac{e^t(t^\alpha - g\alpha)}{\alpha(e^t - 1)}$$

bo‘ladi.

Isbot: Birinchi navbatda biz (9), (10) va (11) larni hisoblaymiz. Ushbu integrallarni bajarish uchun bizga quyidagi Teylor qatori kerak bo‘ladi.

$$e^{-x} = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{(-x)^k}{k!}$$

$$e^{t-x} = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{(t-x)^k}{k!}$$

Dastlab

$$g = \int_0^t \frac{e^{-x}}{(t-x)^{1-\alpha}} dx = e^{-t} \cdot \int_0^t \frac{e^{t-x}}{(t-x)^{1-\alpha}} dx =$$

$$= e^{-t} \cdot \int_0^t \sum_{k=0}^{\infty} \frac{(t-x)^k}{k!} \frac{1}{(t-x)^{1-\alpha}} dx = e^{-t} \cdot \sum_{k=0}^{\infty} \frac{1}{k!} \cdot \int_0^t (t-x)^{k+\alpha-1} dx = e^{-t} \sum_{k=0}^{\infty} \frac{t^{k+\alpha}}{k!(k+\alpha)}$$

$$g_0 = \int_0^t \frac{dx}{(t-x)^{1-\alpha}} = \int_0^t (t-x)^{\alpha-1} dx = \frac{t^\alpha}{\alpha}$$

$$f_2(h\beta) = \int_0^t \frac{G_2(x-h\beta)}{(t-x)^{1-\alpha}} dx = \sum_{k=0}^N \frac{(-1)^k}{4k!(k+\alpha)} \frac{e^{t-h\beta} - e^{h\beta-t}}{2} (2(t-h\beta)^{k+\alpha} - t^{k+\alpha}) -$$

$$- \frac{2(t-h\beta)^\alpha (h\alpha\beta + t) - t^{\alpha+1}}{2\alpha(\alpha+1)} + \frac{2h\beta(t-h\beta)^\alpha - h\beta t^\alpha}{2\alpha}, \quad \beta = \overline{0, N},$$

Endi sistemani $N=1$ da yechamiz:

$$\begin{cases} C_0 G_2(h\beta) + C_1 G_2(h\beta - h) + de^{-h\beta} + P_0 = f_2(h\beta), \quad \beta = 0, 1 \\ C_0 e^0 + C_1 e^{-h} = g, \\ C_0 + C_1 = g_0. \end{cases}$$

Xulosa. Yuqoridagi sistemadan ko‘rinib turibdiki sistemadan C_0 va C_1 koeffitsiyentlarni topish uchun ushbu ikkita tenglamadan foydalanish yetarlidir

$$\begin{cases} C_0 e^0 + C_1 e^{-h} = g, \\ C_0 + C_1 = g_0. \end{cases}$$

Ushbu sistemani yechib quyidagi yechimlarni olamiz:

$$\begin{cases} C_0 = \frac{g\alpha e^h - t^\alpha}{\alpha(e^h - 1)}, \\ C_1 = \frac{e^h(t^\alpha - g\alpha)}{\alpha(e^h - 1)}. \end{cases}$$

Xususan $N=1$ bo‘lganda $h=t$ bo‘ladi bundan esa

$$C_0 = \frac{g\alpha e^t - t^\alpha}{\alpha(e^t - 1)}$$

$$C_1 = \frac{e^t(t^\alpha - g\alpha)}{\alpha(e^t - 1)}$$

teorema isbotlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Shadimetov Kh. M., Hayotov A. R. Computation of coefficients of optimal quadrature formulas in the space $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ // *Uzbek Mathematical Journal*. 2004. № 3. C. 67–82.
2. Shadimetov Kh. M., Hayotov A. R. Optimal quadrature formulas in the sense of Sard in $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ space // *Calcolo*. 2014. T. 51. C. 211–243.
3. Sobolev S. L., Vaskevich V. L. *The Theory of Cubature Formulas*. Kluwer Academic Publishers Group, Dordrecht, 1997. 413 c.
4. Sard A. *Linear Approximation* // *Amer. Math. Soc.* 1963.
5. Никольский С. М. К вопросу об оценках приближений квадратурными формулами // *Успехи матем. наук*. 1950. Т. 5, № 3. С. 165–177.
6. Shadimetov Kh. M. A method of construction of weight optimal quadrature formulas with derivatives in the Sobolev space // *Uzbek Mathematical Journal*. 2018. T. No. 3. C. 140–146.
7. Hayotov A. R., Babaev S. S. An Optimal Quadrature Formula with Derivative for Weakly Singular Integrals // *Math. Methods Appl. Sci.* 2025. T. 48, № 17. C. 15591–15601
8. Babaev S. S., Davronov J. R., Mamatova N. H. On an optimal interpolation formula in the space $W_{2,\sigma}^{(m,m-1)}(0,1)$ // *Bulletin of the Institute of Mathematics*. 2020. № 4. C. 1–12.
9. Hayotov A. R., Babaev S. S. The numerical solution of a Fredholm integral equations of the second kind by the weighted optimal quadrature formula // *Results in Applied Mathematics*. 2024. T. 24. C. 100508.
10. Babaev S. S. The weighted optimal quadrature formula with derivatives in the Hilbert space // *Problem of Computational and Applied Mathematics, Uzbekistan*. 2024. T. 60, № 4/2. C. 99–107.

BIRINCHI TARTIBLI DISKRET HARDY TENGSIZLIGI

Kuliyev Komil Danaboyevich,

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Tilavov Rustam Aktamovich,

Samarqand davlat pedagogika instituti,

Samarqand, O‘zbekiston

Ergashev Sharofiddin Qo‘chqor o‘g‘li,

Samarqand davlat pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu ishda birinchi tartibli diskret Hardy tengsizligi Pol’ja shartlarini qanoatlantiruvchi chegaraviy shartlar bilan o‘rganilgan. Chegaraviy shartlarning tanlanishiga qarab turli yangi tengsizliklar paydo qilingan va ularning o‘rinli bo‘lishini ta’minlovchi ekvivalent shartlar olingan.

Kalit so‘zlar: diskret tengsizlik, yuqori tartibli Hardy tengsizligi, vazn, ketma-ketlik, chegaraviy shart, Pol’ja sharti, yadro, ekvivalent shartlar.

ДИСКРЕТНОЕ НЕРАВЕНСТВО ХАРДИ ПЕРВОГО ПОРЯДКА

Аннотация. В данной работе исследуется дискретное неравенство Харди первого порядка с граничными условиями, удовлетворяющими условиям Поля. В зависимости от выбора граничных условий получены различные новые неравенства, и установлены эквивалентные условия, обеспечивающие их справедливость.

Ключевые слова: дискретное неравенство, неравенство Харди, вес, последовательность, граничное условие, условие Поля, ядро, эквивалентные условия.

FIRST-ORDER DISCRETE HARDY INEQUALITY

Abstract. This paper investigates the first-order discrete Hardy inequality under boundary conditions satisfying the Pólya criteria. Depending on the choice of boundary conditions, various new inequalities are derived, and equivalent conditions ensuring their validity are established.

Keywords: discrete inequality, Hardy inequality, weight sequence, boundary conditions, Pólya condition, kernel, equivalent conditions.

Kirish. 1925-yil Buyuk Britaniyalik olim G.Hardy quyidagi tengsizlikni isbotladi: ixtiyoriy $p > 1$ va har qanday $\{a_n\}_{n \geq 1}$ nomanfiy haqiqiy ketma – ketlik uchun

$$\sum_{n=1}^{\infty} \left(\frac{a_1 + a_2 + \dots + a_n}{n} \right)^p \leq \left(\frac{p}{p-1} \right)^p \sum_{n=1}^{\infty} a_n^p \quad (1.1)$$

tengsizlik barcha $\{a_n\}_{n=1}^{\infty}$ no‘manfiy ketma-ketliklar uchun o‘rinli bo‘ladi. Bunda $\left(\frac{p}{p-1} \right)^p$ son tengsizlikning eng yaxshi konstantasidir, ya’ni tengsizlik o‘rinli bo‘ladigan konstantalar ichida eng kichigidir. O‘tgan asrda (1.1) tengsizlik turli ko‘rinishlarda umulashtirildi, ularni quyidagicha umumiy ko‘rinishda yozish ham mumkin:

$$\left(\sum_{n=1}^{\infty} \left(\sum_{k=1}^n a_k \right)^q u_n \right)^{\frac{1}{q}} \leq C \left(\sum_{n=1}^{\infty} a_n^p v_n \right)^{\frac{1}{p}}, \quad (1.2)$$

bu yerda $0 < q < \infty$, $1 < p < \infty$ va $\{u_n\}, \{v_n\}$ lar vazn ketma-ketliklari, ya’ni nomanfiy ketma-ketliklar. (1.2) tengsizlik umumlashgan Hardy tengsizligi deyiladi. Bu tengsizlikning integral ko‘rinishi quyidagichadir:

$$\left(\int_a^b \left(\int_a^x f(t) dt \right)^q u(x) dx \right)^{\frac{1}{q}} \leq C \left(\int_a^b f^p(x) v(x) dx \right)^{\frac{1}{p}}, \quad (1.3)$$

bunda $u(x)$ va $v(x)$ lar vazn funksiyalari. (1.2) va (1.3) tengsizliklar yaxshi o'rganilgan, ma'lumot uchun [1], [2] ga qarang. Agar (1.3) da

$$y(x) = \int_a^x f(t) dt$$

deb olsak u holda tengsizlikni ushbu ko'rinishda qayta yozish mumkin:

$$\left(\int_a^b |y(x)|^q u(x) dx \right)^{\frac{1}{q}} \leq C \left(\int_a^b |y'(x)|^p v(x) dx \right)^{\frac{1}{p}}. \quad (1.4)$$

(1.4) tengsizlik (1.3) ning differensial ko'rinishi bo'lib, bunda $y(a) = 0$ shartni qanoatlantiradi. Agar (1.4) ga e'tibor qaratilsa u funksiyani hosilasi orqali integral normada baholashni ifodalaydi. Xuddi shunday funksiyani uning yuqori tartibli hosilalari orqali baholashlar ham qaralgan, ya'ni:

$$\left(\int_a^b |y(x)|^q u(x) dx \right)^{\frac{1}{q}} \leq C \left(\int_a^b |y^{(k)}(x)|^p dx \right)^{\frac{1}{p}}. \quad (1.5)$$

Bunday tengsizliklar ham yetarlicha o'rganilgan bo'lib, unga tengsizliklar nazariyasida *yuqori tartibli Hardy tengsizliklari* deb yuritiladi, ma'lumot uchun ([1], [2], [3]) adabiyotlarga qarang.

(1.5) da chegaraviy shartlar turlicha olinishiga qarab (1.3) tengsizlikka nisbatan yangi ko'rinishdagi tengsizliklar paydo bo'ladi, ularning umumiy ko'rinishi quyidagichadir

$$\left(\int_a^b \left| \int_a^x K(x, t) f(t) dt \right|^q u(x) dx \right)^{\frac{1}{q}} \leq C \left(\int_a^b |f(x)|^p v(x) dx \right)^{\frac{1}{p}},$$

bunda $K(x, t)$ – Green funksiyasi $K(x, t)$ –tengsizlikning yadrosidir.

Bunda asosiy masalalardan biri chegaraviy shartlarni qanday tanlanishiga bog'liq. Uzluksiz holda Pol'ja shartlari nomi bilan mashhur shartlar keltirilgan bo'lib, ular yuqori tartibli Hardy tengsizligi ma'noga ega bo'lishi uchun chegaraviy shartlar tanlanishini ko'rsatadi. Ma'lumot uchun [2], [7] ga qarang.

Ushbu ishda, shu nuqtayi nazardan diskret Hardy tengsizligi (1.2) ning birinchi va ikkinchi tartibli differensial ko'rinishlari o'rganilgan. Asosiy masala, differensial ko'rinishda berilgan Hardy tengsizligining turli chegaraviy shartlarda paydo qilingan Hardy tipidagi tengsizliklarni tadqiq qilishdan iborat.

Yordamchi natijalar. Ushbu paragrafda biz quyidagi umumiy ko'rinishdagi k -tartibli vaznli diskret Hardy tengsizligini qaraymiz:

$$\left(\sum_{n=1}^{\infty} |s(n)|^q u(n) \right)^{\frac{1}{q}} \leq C \left(\sum_{n=1}^{\infty} |\nabla^k s(n)|^p v(n) \right)^{\frac{1}{p}}, \quad (2.1)$$

bunda $1 < p, q < \infty$, $\{s(n)\}$ — haqiqiy sonlar ketma-ketligi, $u(n)$ va $v(n)$ esa mos ravishda musbat vaznli ketma-ketliklar. (2.1) tengsizlikning o'rinli bo'lishi $\{s(n)\}$ ketma-ketlikka qo'yilgan chegaraviy shartlarga bevosita bog'liq. Agarda $\{s(n)\}$ ketma-ketligi darajasi k dan kichik bo'lgan ixtiyoriy ko'phad ko'rinishidagi ketma-ketlik bo'lsa, u holda (2.1) tengsizlikning o'ng tomoni nolga aylanib, o'z mazmunini yo'qotadi.

Shu sababli biz $\{s(n)\}$ ketma-ketligi qo'shimcha chegaraviy shartlarni qanoatlantirishi talab etiladi. Ushbu ishda:

$$\begin{cases} \nabla^i s(1) = 0, & \text{agar } i \in M_0 \\ \nabla^j s(\infty) = 0, & \text{agar } j \in M_1 \end{cases} \quad (2.2)$$

bu yerda $M_0, M_1 \subseteq \{0, 1, \dots, k-1\}$ — chegaraviy shartlar indekslar to'plami. Ushbu shartlar ketma-ketlikning boshlang'ich qiymatlariga va uning cheksizlikdagi holatiga bog'liq ekanligini bildiradi. Endi chegaraviy shartlarning to'g'ri tanlanganligini kafolatlash uchun Pol'ja shartidan foydalanilamiz.

Ta'rif (Pol'ja sharti). (M_0, M_1) juftligiga mos keluvchi $E = (e_{\alpha i})$ insidentsiya matritsasini (2×2) o'lchamli quyidagicha kiritamiz:

$$e_{\alpha i} = \begin{cases} 1, & \text{agar } i \in M_{\alpha} \\ 0, & \text{agar } i \notin M_{\alpha} \end{cases}, \quad \alpha \in \{0,1\}.$$

Agar quyidagi munosabat o'rinli bo'lsa (M_0, M_1) juftligi Pol'ja shartini qanoatlantiradi deyiladi:

$$\sum_{i=0}^r (e_{0i} + e_{1i}) \geq r + 1, \quad r = 0,1.$$

Quyida Drábek va Kufnerning [8] teoremasini diskret holatdagi analogini keltiramiz:

Teorema (Drábek-Kufner). Faraz qilaylik, $1 < p, q < \infty$ va $k \in \mathbb{N}$ bo'lsin. U holda (2.1) tengsizlik (2.2) shartlar bilan ma'noga ega bo'lishi uchun (M_0, M_1) juftlik Pol'ja shartini qanoatlantirishi yetarli va zarurdir.

Endi (2.1) tengsizlikning birinchi tartibli ($k = 1$) holati uchun bo'lishi mumkin bo'lgan barcha chegaraviy shartlar juftliklari

$$\begin{cases} s(1) = 0 \\ s(\infty) = 0 \end{cases} \quad (2.3)$$

ni tahlil qilamiz. Bu holatda chegaraviy shartlar indekslar to'plami $M_0, M_1 \subseteq \{0\}$ ko'rinishida bo'ladi. Pol'ja shartiga ko'ra, $k = 1$ bo'lganda jami shartlar soni kamida bittaga teng bo'lishi, ya'ni

$$\sum_{i=0}^0 (e_{0i} + e_{1i}) \geq 1$$

munosabati bajarilishi talab etiladi. Quyida ushbu shartni qanoatlantiruvchi uchta asosiy holatni ko'rib chiqamiz:

1. $s(1) = 0$ holati.

Bu holda chegaraviy shartlar to'plami $M_0 = \{0\}$ va $M_1 = \emptyset$ ekanligini anglatadi. Unga mos keluvchi insidentsiya matritsasi:

$$E = \begin{pmatrix} e_{00} \\ e_{10} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix}.$$

Pol'ja shartini tekshiramiz:

$$\sum_{i=0}^0 (e_{0i} + e_{1i}) = e_{00} + e_{10} = 1 + 0 = 1 \geq 1. \quad (2.4)$$

Shart bajarildi, demak ushbu chegaraviy shart birinchi tartibli Hardy tengsizligi uchun o'rinli bo'ladi.

2. $s(\infty) = 0$ holati.

Bu holda chegaraviy shartlar to'plami $M_0 = \{0\}$ va $M_1 = \{0\}$ va ko'rinishida bo'ladi. Insidentsiya matritsasi ushbu:

$$E = \begin{pmatrix} e_{00} \\ e_{10} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix}$$

ko'rinishga ega bo'ladi.

Pol'ja shartini tekshiramiz:

$$\sum_{j=0}^0 (e_{0i} + e_{1i}) = 0 + 1 = 1 \geq 1. \quad (2.5)$$

Shart bajarildi, ya'ni ushbu holat ham (2.1) tengsizlik uchun ma'noga ega.

3. $s(1) = s(\infty) = 0$ holati.

Ushbu holda shartlar ikkala chegarada ham berilgan bo'lib, $M_0 = \{0\}$ va $M_1 = \{0\}$ bo'ladi. Tegishli insidentsiya matritsasi:

$$E = \begin{pmatrix} e_{00} \\ e_{10} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \\ 1 \end{pmatrix}.$$

Pol'ja shartiga ko'ra:

$$\sum_{j=0}^0 (e_{0i} + e_{1i}) = 1 + 1 = 2 \geq 1. \quad (2.6)$$

Ko'rinib turibdiki, shart bajarilmoqda.

Shunday qilib, birinchi tartibli diskret Hardy tengsizligi uchun yuqoridagi barcha chegaraviy shartlar Pol'ja mezonini to'liq qanoatlantiradi. Maqolaning keyingi paragrafida biz ushbu shartlarning har biri uchun mos keluvchi vaznli tengsizliklarning aniq ko'rinishlarini va ularning o'rinli bo'lishi uchun zaruriy va yetarli shartlarni bayon qilamiz.

Birinchi tartibli diskret hardy tengsizligi. Ushbu paragrafda biz (2.1) tengsizlikning $k = 1$ bo'lgan holatini qaraylik:

$$\left(\sum_{n=1}^{\infty} s(n)^q u(n) \right)^{\frac{1}{q}} \leq C \left(\sum_{n=1}^{\infty} |\nabla s(n)|^p v(n) \right)^{\frac{1}{p}}, \quad (3.1)$$

bunda $u(n)$, $v(n)$ lar berilgan vazn ketma-ketliklardir va $\nabla s(n) = s(n+1) - s(n)$. Dastlab, tengsizlik ma'noga ega bo'ladigan ketma-ketliklar fazosini anqilab olishimiz zarur, sababi $s(n) = \text{const} \neq 0$ ketma - ketliklar uchun (3.1) o'rinli emas, chunki uning o'ng tomoni nolga teng, lekin chap tomoni noldan farqli.

Quyida turli chegaraviy holatlarga mos (3.1) tengsizlikning ko'rinishlarini taqdim etamiz:

a) Agar biz $s(n)$ ketma-ketligi uchun faqat chap chegarada qabul qilsak:

$$s(1) = 0$$

shartiga ega bo'lamiz. (2.4) ga asosan, $s(1) = 0$ sharti birinchi tartibli diskret Hardy tengsizligi uchun Pol'ja mezonini to'liq qanoatlantiradi. Ushbu shart $\{s(n)\}$ ketma-ketligi orasida noldan farqli o'zgarmas funksiyalar ($s(n) \equiv \text{const} \neq 0$) mavjud emasligini kafolatlaydi, bu esa (3.1) tengsizlikning o'rinli bo'lishi uchun zaruriy va yetarli shartdir.

Agar

$$\nabla s(n) = s(n+1) - s(n) = a(n)$$

belgilash olsak, u holda

$$\begin{cases} a(1) = s(2) - s(1) \\ a(2) = s(3) - s(2) \\ a(3) = s(4) - s(3) \\ \dots\dots\dots \\ a(n-2) = s(n-1) - s(n-2) \\ a(n-1) = s(n) - s(n-1) \end{cases}$$

ga ega bo'lamiz. Tengliklarni ikki tomonlarini hadma-had qo'shib va $s(1) = 0$ ni e'tiborga olsak, u holda

$$\sum_{k=1}^{n-1} a(k) = s(n)$$

ni hosil qilamiz. Demak, (3.1) tengsizlik $s(1) = 0$ shart bilan ushbu ko'rinishdagi

$$\left(\sum_{n=1}^{\infty} \left| \sum_{k=1}^{n-1} a(k) \right|^q u(n) \right)^{\frac{1}{q}} \leq C \left(\sum_{n=1}^{\infty} |a(n)|^p v(n) \right)^{\frac{1}{p}},$$

diskret Hardy tengsizligiga ekvivalent bo'lar ekan.

Shunday qilib, quyidagi teoremani isbotladik.

1-teorema. Birinchi tartibli (3.1) tengsizlik $s(1) = 0$ chegaraviy shart bilan o'rinli bo'lishi uchun quyidagi shartning bajarilishi yetarli va zarurdir:

$$A = \sup_{n \in N} \left(\sum_{k=1}^n v(k)^{1-p'} \right)^{\frac{1}{p'}} \left(\sum_{k=n}^{\infty} u(k) \right)^{\frac{1}{q}} < \infty.$$

b) (2.3) shartga ko'ra ketma-ketlikning kamida bitta chegarada nolga teng bo'lishini talab etadi. Agar biz $s(n)$ ketma-ketligi uchun faqat o'ng chegarada qabul qilsak:

$$s(\infty) = 0$$

shartiga ega bo'lamiz. (2.5) ga asosan, $s(\infty) = 0$ sharti birinchi tartibli diskret Hardy tengsizligi uchun Pol'ja mezonini to'liq qanoatlantiradi. Ushbu shart $\{s(n)\}$ ketma-ketligi orasida noldan farqli

o'zgaras funksiyalar ($s(n) \equiv \text{const} \neq 0$) mavjud emasligini kafolatlaydi, bu esa (3.1) tengsizlikning o'rinli bo'lishi uchun zaruriy va yetarli shartdir.

Agar

$$\nabla s(n) = s(n+1) - s(n) = a(n)$$

belgilash olsak, u holda

$$\begin{cases} a(n) = s(n+1) - s(n) \\ a(n+1) = s(n+2) - s(n+1) \\ a(n+2) = s(n+3) - s(n+2) \\ \dots \dots \dots \dots \dots \\ a(N-1) = s(N) - s(N-1) \\ a(N) = s(N+1) - s(N) \end{cases}$$

ga ega bo'lamiz. Tengliklarni ikki tomonlarini hadma-had qo'shib olsak, natijada quyidagi yig'indiga ega bo'lamiz:

$$\sum_{k=n}^N a(k) = -s(n) + s(N+1),$$

Agar $N \rightarrow \infty$ da $s(N+1) \rightarrow 0$, ya'ni $s(\infty) = 0$ ekanligini e'tiborga olsak, u holda

$$s(n) = - \sum_{k=n}^{\infty} a(k)$$

hosil bo'ladi. Demak, (3.1) tengsizlik $s(\infty) = 0$ shart bilan ushbu ko'rinishdagi

$$\left(\sum_{n=1}^{\infty} \left| \sum_{k=n}^{\infty} a(k) \right|^q u(n) \right)^{\frac{1}{q}} \leq C \left(\sum_{n=1}^{\infty} |a(n)|^p v(n) \right)^{\frac{1}{p}}$$

diskret Hardy tengsizligiga ekvivalent bo'ladi. Bu tengsizlik ham yaxshi o'rganilgan.

Shunday qilib, quyidagi teoremani isbotladik.

2-teorema. *Birinchi tartibli (3.1) tengsizlik $s(\infty) = 0$ chegaraviy shart bilan o'rinli bo'lishi uchun quyidagi shartning bajarilishi yetarli va zarurdir:*

$$A = \sup_{n \in \mathbb{N}} \left(\sum_{k=n}^{\infty} u(k) \right)^{\frac{1}{q}} \left(\sum_{k=1}^n v(k)^{1-p'} \right)^{\frac{1}{p'}} < \infty.$$

c) Faraz qilaylik

$$s(1) = s(\infty) = 0$$

bo'lsin. (2.6) ga asosan, $s(1) = s(\infty) = 0$ sharti birinchi tartibli diskret Hardy tengsizligi uchun Pol'ja mezonini to'liq qanoatlantiradi. Ushbu shart $\{s(n)\}$ ketma-ketligi orasida noldan farqli o'zgaras funksiyalar ($s(n) \equiv \text{const} \neq 0$) mavjud emasligini kafolatlaydi, bu esa (3.1) tengsizlikning o'rinli bo'lishi uchun zaruriy va yetarli shartdir.

Ma'lumki, birinchi tartibli $\nabla s(n) = a(n)$ ayirmali tenglamasi uchun bitta chegaraviy shart $\{s(n)\}$ ketma-ketligini to'liq aniqlash uchun yetarlidir. Agarda biz faqat $s(1) = 0$ shartidan foydalansak, ketma-ketlikning umumiy hadi quyidagicha topiladi:

$$s(n) - s(1) = \sum_{k=1}^{n-1} \nabla s(k) \Rightarrow s(n) = \sum_{k=1}^{n-1} a(k).$$

Biroq, $s(1) = s(\infty) = 0$ ga muvofiq qo'yilgan ikkinchi shart — $s(\infty) = 0$ tizimni **haddan tashqari aniqlangan (over-determined)** holatga keltiradi. Ketma-ketlik cheksizlikda nolga intilishi uchun $\{a(n)\}$ ketma-ketligi ustida quyidagi muvofiqlik munosabati bajarilishi zarur:

$$s(\infty) = \lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{k=1}^{n-1} a(k) = \sum_{k=1}^{\infty} a(k) = 0.$$

Ushbu munosabat bajarilgan taqdirdagina $\{s(n)\}$ ketma-ketligini **qoldiq yig'indi** orqali ham ifodalash imkoniyati tug'iladi:

$$s(n) = - \sum_{k=n}^{\infty} a(k).$$

Bu bilan biz ushbu teoremani isbotladik.

3-teorema. Birinchi tartibli (3.1) tengsizlik $s(1) = s(\infty) = 0$ chegaraviy shartlar bilan o‘rinli bo‘ilshi uchun quyidagi shartlarning bajarilishi yetarli va zarurdir:

$$A_1 = \sup_{n \in \mathbb{N}} \left(\sum_{k=n}^{\infty} u(k) \right)^{\frac{1}{q}} \left(\sum_{k=1}^n v(k)^{1-p'} \right)^{\frac{1}{p'}} < \infty$$

va

$$A_2 = \sup_{n \in \mathbb{N}} \left(\sum_{k=1}^n u(k) \right)^{\frac{1}{q}} \left(\sum_{k=n}^{\infty} v(k)^{1-p'} \right)^{\frac{1}{p'}} < \infty$$

ADABIYOTLAR:

1. Hardy G.H., Littlewood J.E., Polya G. *Inequalities*. Cambridge Univ. Press, 324 (1952).
2. Drábek P. and Kufner A.: *The Hardy inequality and Birkhoff interpolation*, Bayreuth Math. Schr. 47 (1994), 99-104. MR 95h:26024.
3. Kufner A: *Higher order Hardy inequalities*. Collect Math. 44, 147–154 (1993).
4. Kufner A, Persson L-E: *Weighted Inequalities of Hardy Type*. World Scientific Publishing Co., Inc., River Edge, NY (2003).
5. Kufner A.: *A remark of k-th order Hardy inequalities*. Trudy Matematicheskogo Instituta imeni V.A. Steklova, 2005, Volume 248, Pages 144–152.
6. Kufner A., Kuliev K. & Persson LE. *Some higher order Hardy inequalities*. J Inequal Appl 2012, 69 (2012). <https://doi.org/10.1186/1029-242X-2012-69>
7. Kuliev K., Turakulov T. *New weight characterizations for the discrete hardy inequality with kernel*. JMI Volume 19, Number 4 (2025), 1109–1134, doi:10.7153/jmi-2025-19-71.
8. Kuliev K.D., Kulieva G.T., Turakulov T.D. *On estimates for norms of matrix operators: the case $q < p$* . Bulletin of the Karaganda University. Mathematics Series, № 1(121), 2026, pp. 156–168. <https://doi.org/10.31489/2026M1/156-168>

MATEMATIK OLIMPIADA MASALALARINI YECHISHDA KESMADA UZLUKSIZ
FUNKSIYALAR XOSSALARIDAN FOYDALANISH

Husenova Jasmina To‘lqinovna,

Buxoro davlat universiteti

Ahrorova Hilola Hakimjon qizi,

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada dastlab matematik analiz kursidan yaxshi ma’lum bo‘lgan Veyershtrassning birinchi va ikkinchi teoremlari hamda Bolsano-Koshining birinchi va ikkinchi teoremlari o‘quvchiga qulay va sodda tarzda bayon qilingan. Mazkur teoremlar asosida xalqaro matematika olimpiadalarida uchragan 6 turdagi masalaning yechimlari tahlil etilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda mustaqil ishlash malakasini rivojlantirish maqsadida 5 turdagi mustaqil yechish uchun masalalar tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz funksiya, Veyershtrass teoremlari, Bolsano-Koshi teoremlari, xalqaro matematika olimpiadasi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СВОЙСТВ НЕПРЕРЫВНЫХ ФУНКЦИЙ НА ОТРЕЗКЕ ПРИ
РЕШЕНИИ ЗАДАЧ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ОЛИМПИАД

Аннотация. В статье в простой и доступной для читателя форме изложены первая и вторая теоремы Вейерштрасса, а также первая и вторая теоремы Больцано-Коши, хорошо известные из курса математического анализа. На основе данных теорем проанализированы решения шести типов задач, встречавшихся на международных математических олимпиадах. Кроме того, с целью закрепления знаний и навыков учащихся по данной теме, а также развития умений самостоятельного решения задач предложены пять типов задач для самостоятельной работы.

Ключевые слова: непрерывная функция, теоремы Вейерштрасса, теоремы Больцано-Коши, Международная математическая олимпиада.

USING THE PROPERTIES OF CONTINUOUS FUNCTIONS ON AN INTERVAL IN
SOLVING MATHEMATICAL OLYMPIAD PROBLEMS

Abstract. The article first presents, in a simple and reader-friendly manner, the first and second theorems of Weierstrass as well as the first and second theorems of Bolzano-Cauchy, which are well known from the course of mathematical analysis. Based on these theorems, solutions to six types of problems taken from international mathematics olympiads are analyzed. In addition, five types of problems for independent study are proposed in order to strengthen students' knowledge and skills on the topic and to develop their independent problem-solving abilities.

Keywords: continuous function, Weierstrass theorems, Bolzano-Cauchy theorems, International Mathematics Olympiad.

Kirish. Matematik analiz kursi oliy matematikaning fundamental bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda uzluksiz funksiyalar nazariyasi alohida muhim o‘rin egallaydi. Xususan, Veyershtrass hamda Bolsano-Koshi teoremlari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy masalalarni yechishda ham keng qo‘llaniladigan asosiy natijalardan hisoblanadi. Ushbu teoremlar funksiyalarning kesmadagi xossalarini chuqur o‘rganish, ekstremal qiymatlarni aniqlash, tenglamalarning ildizlari mavjudligini asoslash hamda turli nostandart masalalarni tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababli uzluksiz funksiyalarning asosiy xossalarini puxta o‘zlashtirish matematik tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda xalqaro matematika olimpiadalarida matematik analiz elementlariga asoslangan masalalarning ulushi ortib bormoqda. Bunday masalalar o‘quvchilardan nafaqat nazariy bilim, balki mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va nostandart yondashuv ko‘nikmalarini ham talab qiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab olimpiada masalalarini murakkab hisob-kitoblarsiz, aynan uzluksiz funksiyalarning asosiy teoremlari yordamida ixcham va elegant usulda yechish mumkin. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Mazkur maqolada matematik analiz kursidan yaxshi ma'lum bo'lgan Veyershrassning birinchi va ikkinchi teoremlari hamda Bolsano-Koshining birinchi va ikkinchi teoremlari sodda va tushunarli tarzda bayon qilingan. Ularga izohlar berilgan hamda geometrik nuqtayi nazardan nimani anglatishi ham qisqacha aytib o'tilgan. Teoremlar mazmunining o'quvchilar uchun qulay shaklda yoritilishi ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy masalalarni yechishda ushbu natijalardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Maqolada xalqaro matematika olimpiadalarida uchragan olti turdagi masalaning yechimlari batafsil tahlil qilingan. Har bir masalada uzluksiz funksiyalarning asosiy xossalariidan foydalanish usullari ko'rsatilib, masalalarni qisqa, mantiqiy va samarali yechish yo'llari yoritilgan. Ushbu usullar o'quvchilarda matematik mulohaza yuritish, isbotlash va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, murakkab ko'rinishga ega bo'lgan ayrim olimpiada masalalarining oddiy nazariy teoremlar yordamida yechilishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda matematik analizning amaliy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Shuningdek, maqolada mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida mustaqil yechish uchun besh turdagi masalalar tavsiya etilgan. Bu masalalar o'quvchilarning mustaqil ishlash malakasini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish hamda olimpiada masalalarini yechish tajribasini boyitishga xizmat qiladi. Shu jihatdan maqola matematik analiz fanini o'qitishda, iqtidorli talabalarni olimpiadalarga tayyorlashda hamda metodik qo'llanma sifatida foydalanishda muhim ahamiyatga ega.

2. Kesmada uzluksiz funksiyalar haqidagi to'rtta asosiy teoremlar.

Ushbu bo'limda kesmada uzluksiz funksiyalar nazariyasiga oid to'rtta asosiy teorema [1] qisqa va tushunarli shaklda bayon etiladi. Jumladan, Veyershrass hamda Bolsano-Koshi teoremlarining olimpiada masalalarini yechishdagi eng muhim jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Bo'limning asosiy maqsadi chuqur va batafsil isbotlarni keltirish emas, balki amaliy masalalarda tez va samarali qo'llaniladigan natijalarni yoritishdan iborat. Shu sababli teoremlar mazmuni olimpiada darajasidagi masalalarga yo'naltirilgan holda izohlanadi. Bu yondashuv o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni osonlashtiradi.

Aytmaylik $f(x)$ funksiya $[a, b]$ segmentda berilgan bo'lsin.

Teorema (Veyershrassning birinchi teoremasi). Agar $f(x)$ funksiya $[a, b]$ segmentda uzluksiz, ya'ni $f(x) \in C[a, b]$ bo'lsa, $f(x)$ funksiya $[a, b]$ da chegaralangan bo'ladi.

Mazkur teorema uzluksiz funksiyaning yopiq va chegaralangan kesmada "cheksiz o'sib ketmasligi"ni kafolatlaydi. Boshqacha aytganda, agar funksiya kesmada uzluksiz bo'lsa, uning qiymatlari ma'lum bir oraliq ichida qoladi. Bu xossa olimpiada masalalarida funksiyaning maksimal yoki minimal qiymatini baholashda, tengsizliklarni isbotlashda hamda ekstremal masalalarni yechishda muhim ahamiyatga ega.

Bizga yaxshi ma'lumki, geometrik nuqtayi nazardan, uzluksiz funksiyaning grafigi $[a, b]$ kesmada uzilishsiz chiziladi va u vertikal yo'nalishda cheksizlikka ketmaydi. Ya'ni, grafik butunlay ma'lum bir gorizontal tasma ichida joylashadi. Bu esa quyidagini anglatadi: funksiyaning grafigi "sakrashlar" hosil qilmaydi; grafik yuqoridan ham, pastdan ham ma'lum to'g'ri chiziqlar bilan chegaralanadi; kesmada funksiyaning barcha qiymatlari chekli bo'ladi.

Teorema (Veyershrassning ikkinchi teoremasi). Agar $f(x) \in C[a, b]$ bo'lsa, bu funksiya $[a, b]$ segmentda eng katta hamda eng kichik qiymatlarga erishadi, ya'ni

$$\exists c_1 \in [a, b], \forall x \in [a, b]: f(x) \leq f(c_1)$$

$$\exists c_2 \in [a, b], \forall x \in [a, b]: f(x) \geq f(c_2)$$

bo'ladi.

Mazkur teorema uzluksiz funksiyaning yopiq kesmada nafaqat chegaralanganligini, balki uning eng katta va eng kichik qiymatlari haqiqatan ham mavjud bo'lishini kafolatlaydi. Boshqacha aytganda, funksiya maksimum yoki minimum qiymatlarga "yaqinlashib qolmaydi", balki kesmaning biror nuqtasida aynan shu qiymatlarni qabul qiladi. Bu teorema matematik olimpiada masalalarida ekstremal qiymatlarni topishda, tengsizliklarni isbotlashda, funksiyaning eng qulay yoki eng noqulay holatini aniqlashda, parametrli masalalarni yechishda keng qo'llaniladi.

Ta'kidlash joizki, geometrik jihatdan qaralganda, uzluksiz funksiyaning grafigi $[a, b]$ kesmada eng yuqori va eng past nuqtalarga ega bo'ladi. Ya'ni grafikning eng tepada joylashgan nuqtasi - maksimum qiymatga, eng pastda joylashgan nuqtasi - minimum qiymatga mos keladi. Bu nuqtalar kesmaning ichki qismida ham, chekka nuqtalarida ham joylashishi mumkin.

Teorema (Bolsano-Koshining 1-teoremasi). Faraz qilaylik $f(x)$ funksiya $[a, b]$ segmentda berilgan bo'lib, quyidagi shartlarni bajarsin:

1) $f(x) \in C[a, b]$;

2) segmentning chetki nuqtalari a va b larda har xil ishorali qiymatlarga ega, ya'ni

$$f(a) < 0 < f(b) \text{ yoki } f(a) > 0 > f(b)$$

bo'lsin. U holda shunday $x_0 \in (a, b)$ nuqta topiladiki

$$f(x_0) = 0$$

bo'ladi.

Bayon qilingan teorema uzluksiz funksiyaning oraliq qiymatlar xossasini ifodalaydi. Ya'ni, uzluksiz funksiya bir qiymatdan ikkinchi qiymatga o'tishda ular orasidagi barcha qiymatlarni ham qabul qiladi. Funksiya qiymatlarda "sakrash" qilmaydi. Bu teorema olimpiada masalalarida tenglamaning yechimi mavjudligini asoslashda, funksiyaning ma'lum qiymatni qabul qilishini ko'rsatishda, kesishish nuqtalarini topishda, parametrlil masalalarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Geometrik jihatdan qaralganda, uzluksiz funksiyaning grafigi $(a, f(a))$ nuqtadan $(b, f(b))$ nuqtaga uzilishsiz o'tadi. Shuning uchun grafik $y = C$ gorizontall to'g'ri chiziqni kamida bir marta kesib o'tadi, agar C soni $f(a)$ va $f(b)$ orasida joylashgan bo'lsa. Boshqacha aytganda, uzluksiz grafik yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga o'tayotganda oradagi hech bir qiymatni "tashlab ketmaydi".

Teorema (Bolsano-Koshining 2-teoremasi). Agar $f(x) \in C[a, b]$ bo'lsa, u holda chegaralari $f(a)$ va $f(b)$ bo'lgan segmentga tegishli ixtiyoriy ℓ soni olinganda $[a, b]$ da shunday x_0 nuqta topiladiki,

$$f(x_0) = \ell$$

bo'ladi.

Mazkur teorema uzluksiz funksiyaning ishorasi o'zgaradigan kesmada kamida bitta ildizga ega bo'lishini kafolatlaydi. Ya'ni agar funksiya kesmaning bir uchida musbat, ikkinchi uchida manfiy qiymat qabul qilsa, u albatta nol qiymatdan o'tadi. Bu natija olimpiada masalalarida tenglamalarning yechimi mavjudligini isbotlashda, ildizlar sonini aniqlashda, parametrlil tenglamalarda yechim borligini ko'rsatishda, grafik kesishish nuqtalarini tahlil qilishda juda muhim rol o'ynaydi.

Geometrik jihatdan bu teorema shuni anglatadiki, uzluksiz funksiya grafigi $[a, b]$ kesmada x -o'qni (ya'ni $y = 0$ chizig'ini) kamida bir marta kesib o'tadi, agar funksiya qiymatlari kesmaning uchlarida turli ishorali bo'lsa. Boshqacha aytganda grafik bir tomondan x -o'qdan yuqorida, ikkinchi tomondan esa pastda joylashgan bo'lsa, uzluksizlik sababli u x -o'qni kesib o'tmasdan "sakrab" o'ta olmaydi.

3. Uzluksiz funksiyalar xossalriga asoslangan olimpiada masalalarini yechish usullari.

Uzluksiz funksiyalarning asosiy xossalari matematik olimpiada masalalarini yechishda kuchli va samarali vosita hisoblanadi. Ushbu bo'limda Veyershtass hamda Bolsano-Koshi teoremlarining amaliy qo'llanilishi orqali turli tipdagi olimpiada masalalarini yechish usullari ko'rib chiqiladi. Har bir usul masalaning mazmuniga mos ravishda tanlanib, yechimni qisqa va mantiqiy asoslash imkonini beradi. Shuningdek, uzluksizlik xossalariidan foydalanish murakkab ko'rinishdagi masalalarni sodda va tushunarli yondashuv bilan hal qilishga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchilarda analitik fikrlash va isbotlash madaniyatini rivojlantiradi.

1-masala (IMC 2011 1-kun 1-masala, [2])

$f: \mathbb{R} \rightarrow \mathbb{R}$ uzluksiz funksiya bo'lsin. Agar $y > x$ bo'lgan shunday $y \in \mathbb{R}$ nuqta mavjud bo'lib, $f(y) > f(x)$ bo'lsa, x nuqta soya nuqta deyiladi. $a < b$ haqiqiy sonlar uchun quyidagilar o'rinli deb faraz qilinsin:

- (a, b) ochiq intervalning barcha nuqtalari soya nuqtalardir
- a va b soya nuqtalar emas.

U holda quyidagilarni isbotlang:

a) Barcha $a < x < b$ uchun $f(x) \leq f(b)$

b) $f(a) = f(b)$.

Yechim. a) Teskarisidan faraz qilib isbotlaymiz.

Faraz qilaylik shunday $c \in (a, b)$ nuqta mavjudki $f(c) > f(b)$. $[c, b]$ kesmani qaraylik. f funksiya $[c, b]$ da uzluksiz. Veyershtass teoremasiga ko'ra f funksiya $[c, b]$ kesmada maksimal m qiymatga ega va bu qiymatni biror $d \in [c, b]$ nuqtada qabul qiladi:

$$f(d) = \max_{x \in [c, b]} f(x) \geq f(c) > f(b) \Rightarrow f(d) > f(b), d \neq b$$

demak $d \in [c, b) \subset (a, b) \Rightarrow d \in (a, b)$.

d nuqta (a, b) da yotgani uchun u soya nuqta. Soya nuqtaga ko'ra $y > d$ bo'lgan $y \in \mathbb{R}$ uchun $f(y) > f(d)$ bo'ladi. Tengsizliklarni birlashtirish orqali $f(y) > f(d) > f(b)$ hosil bo'ladi.

Endi y ning qayerda joylashganligiga qarab 2 holat ko'riladi.

1-holat. $y > b$. Shartga ko'ra $f(y) > f(b)$ -bu esa b ning soya nuqta ekanligini bildiradi. Lekin masala shartida b soya nuqta emas. Ziddiyat.

2-holat. $y \leq b$.

$y > d$ va $y \leq b \Rightarrow y \in (d, b] \subset [c, b]$.

$d \in [c, b]$ kesmadagi maksimum nuqta, ya'ni

$$f(d) = \max_{x \in [c, b]} f(x)$$

lekin $y \in [c, b]$ bo'lsa

$$f(y) \leq \max_{x \in [c, b]} f(x) = f(d) < f(y) \Rightarrow f(y) < f(y). \text{Ziddiyat.}$$

Ikkala hol ham ziddiyatga olib keldi. Demak boshlang'ich farazimiz noto'g'ri, ya'ni $f(c) > f(b)$ bo'ladigan $c \in (a, b)$ nuqta mavjud emas. Barcha $x \in (a, b)$ uchun $f(x) \leq f(b)$ bo'ladi.

b) 1) shartga ko'ra a nuqta soya nuqta emas va $a < b$, demak $b > a, f(b) \leq f(a)$ bo'ladi.

2) (a) qismdan $x > a, x \in (a, b)$ uchun $f(x) \leq f(b)$ ekanligi ma'lum.

$x \rightarrow a +$ yaqinlashsa, f uzluksizligidan

$$\lim_{x \rightarrow a+} f(x) = f(a)$$

bo'ladi. $f(x) \leq f(b)$,

$$\lim_{x \rightarrow a+} f(x) \leq \lim_{x \rightarrow a+} f(b) \Rightarrow f(a) \leq f(b)$$

hosil bo'ladi. $f(a) \geq f(b)$ va $f(a) \leq f(b) \Rightarrow f(a) = f(b)$.

2-masala (IMC 2000 2-kun 2-masala, [2])

f funksiya $[0, 1]$ segmentda uzluksiz va shu segmentning hech qayerida monoton bo'lmasin. f funksiya lokal minimumga erishadigan nuqtalar to'plami $[0, 1]$ da zich ekanligini isbotlang.

(Funksiya hech qayerda monoton deyiladi, agar birorta ham segmentda funksiya monoton bo'lmasa. To'plam zich deyiladi, agar har bir bo'sh bo'lmagan ochiq interval to'plamning hamida bitta elementini o'z ichiga olsa.)

Yechim. $(x - a, x + a) \subset [0, 1]$ ixtiyoriy bo'sh bo'lmagan ochiq interval bo'lsin. f funksiya $[x - a, x]$ va $[x, x + a]$ kesmalarda monoton emas, demak shunday haqiqiy sonlar mavjudki

$$x - a \leq p < q \leq x; x \leq r < s \leq x + a$$

bu sonlar uchun $f(p) > f(q)$ va $f(r) < f(s)$ bo'ladi. Veyershtass teoremasiga ko'ra f funksiya $[p, s]$ kesmada global minimumga ega. $f(p)$ va $f(s)$ qiymatlar minimum emas, chunki ular mos ravishda $f(q)$ va $f(r)$ dan katta. Demak minimum (p, s) intervalning ichki nuqtasida, bu minimum lokal minimumdir. Demak har qanday bo'sh bo'lmagan $(x - a, x + a) \subset [0, 1]$ interval kamida bitta lokal minimum nuqtasini o'z ichiga oladi. Bu esa lokal minimumlar to'plamining $[0, 1]$ da zich ekanligini bildiradi.

3-masala (IMC 2006 2-kun 2-masala, [2])

Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi barcha $f: \mathbb{R} \rightarrow \mathbb{R}$ funksiyalarni toping: har qanday $a < b$ haqiqiy sonlar uchun $f([a, b])$ obrazi uzunligi $b - a$ ga teng bo'lgan yopiq kesma bo'lsin.

Yechim. $y = x + c$ va $y = -x + c$ funksiyalar masala shartini qanoatlantirishini tekshiramiz.

$$f(x) = x + c; f([a, b]) = [a + c, b + c] \text{ uzunligi } (b + c) - (a + c) = b - a$$

$$f(x) = -x + c; f([a, b]) = [-b + c, -a + c], \text{ uzunligi } (-a + c) - (-b + c) = b - a$$

Endi faqat shu funksiyalar berilgan xususiyatga ega ekanligini isbotlaymiz.

Har qanday $x < y$ va ixtiyoriy $z \in [x, y]$ uchun $f(z) \in f([x, y])$ bo'ladi. $f([x, y])$ ning uzunligi $y - x$ ga teng. $f([x, y])$ ning eng katta qiymati $y - x$ ga teng, ya'ni $f([x, y])$ ichidagi har ikki qiymatning farqi $y - x$ dan oshib ketmaydi:

$$|f(x) - f(y)| \leq y - x = |x - y|$$

bu Lipschits sharti. Lipschits shartidan uzluksizlik kelib chiqadi. f uzluksiz bo'lganligi uchun, Veyersstrass teoremasiga asosan, f har qanday yopiq $[x, y]$ kesmada maksimum va minimumga erishadi. Ularni a va b ($a, b \in [x, y]$) nuqtalarda erishadi deylik. U holda $f([x, y]) = [f(b), f(a)]$

Masala shartiga ko'ra bu obrazning uzunligi $y - x$ ga teng, ya'ni

$$f(a) - f(b) = y - x$$

$$y - x = f(a) - f(b) = |f(a) - f(b)| \leq |a - b| \leq y - x$$

Bu har qanday $x < y$ uchun $\{a, b\} = \{x, y\}$ ekanligini bildiradi. Demak maksimum va minimumga har doim kesma uchlarida erishiladi. Bu esa f funksiyaning monoton ekanligini bildiradi. Endi 2 holatni ko'ramiz.

$$1) f \text{ o'suvchi bo'lsa } f(y) - f(x) = y - x,$$

$$f(x) - x = f(y) - y = \text{const} = c \Rightarrow f(x) = x + c$$

$$2) f \text{ kamayuvchi bo'lsa } f(x) - f(y) = y - x,$$

$$f(x) + x = f(y) + y = \text{const} = c \Rightarrow f(x) = -x + c, c \in \mathbb{R}.$$

4-masala (OMOUS 2023 B kategoriya 6-masala, [3])

Faraz qilaylik $f: [0, 1] \rightarrow [0, 1]$ uzluksiz funksiya bo'lsin. Shunday $a \in [0, 1]$ nuqta mavjudki, u uchun $f(a) < a < f(f(a))$ sharti bajariladi. Shunday $z \in [0, 1]$ nuqta mavjudligini isbotlangki, bunda $f(z) \neq z$ va $f(f(z)) = z$ bo'lsin.

Yechim. $f(a) < a$ va $f: [0, 1] \rightarrow [0, 1]$ bo'lgani uchun $f(a) \in [0, 1]$. f funksiya $[f(a), a]$ kesmada uzluksiz va $f(a) < a < f(f(a))$. Bolsano–Koshi teoremasiga asosan shunday $b \in (f(a), a)$ mavjudki $f(b) = a$ bo'ladi.

Quyidagi yordamchi funksiyani tanlab olamiz:

$$g(x) = f(f(x)) - x$$

f uzluksiz bo'lgani uchun g ham $[0, 1]$ da uzluksiz: $f \in C[0, 1] \Rightarrow g \in C[0, 1]$.

$$g(b) = f(f(b)) - b = f(a) - b < 0$$

$$g(0) = f(f(0)) - 0 = f(f(0)) \geq 0$$

Bolsano–Koshi teoremasiga asosan shunday $z \in [0, b]$ mavjudki

$$g(z) = 0 = f(f(z)) - z \Rightarrow f(f(z)) = z.$$

Endi $f(z) \neq z$ ekanligini isbotlaymiz.

$\Omega = \{x \in [0, 1] | f(x) = x\}$ f funksiyaning qo'zg'almas nuqtalar to'plami. f uzluksiz bo'lgani uchun Ω yopiq to'plam.

1-holat. $\Omega \cap [0, b] \neq \emptyset$.

Ω yopiq to'plam bo'lgani uchun $\alpha = \sup(\Omega \cap [0, b])$ ham Ω ga tegishli, ya'ni $f(\alpha) = \alpha$.

$f(b) = a > b$ bo'lgani uchun $b \notin \Omega$, demak $\alpha < b$.

Endi f ni $[\alpha, b]$ kesmada ko'rib chiqamiz: $f(\alpha) = \alpha$, $f(b) = a > b$. Bolsano–Koshi teoremasiga asosan shunday $c \in (\alpha, b)$ mavjudki $f(c) = b$.

$$g(c) = f(f(c)) - c = f(b) - c = a - c > 0$$

$$g(b) = f(f(b)) - b = f(a) - b < 0$$

Bolsano–Koshi teoremasiga asosan shunday $z \in (c, b)$ mavjudki $g(z) = 0 \Rightarrow f(f(z)) = z$.

$f(z) \neq z$. Sababi $z \in (c, b)$ va $c > \alpha = \sup(\Omega \cap [0, b])$. Demak $z > \alpha$, ya'ni $z \notin \Omega \cap [0, b]$. $z < b \leq 1$ va $z \in [0, 1] \Rightarrow z \notin \Omega$, demak $f(z) \neq z$.

2-holat. $\Omega \cap [0, b] = \emptyset$, ya'ni $[0, b]$ da f funksiyaning qo'zg'almas nuqtasi yo'q. ixtiyoriy $z \in [0, b]$ uchun $f(z) \neq z$.

5-masala (NCUMC 2021 1-masala, [4]).

Faraz qilaylik $f: (1, \infty) \rightarrow \mathbb{R}$ funksiya uzluksiz va chegaralangan bo'lsin. Shunday $\{x_n\}$ ketma-ketlik mavjudligini isbotlangki, unda quyidagi shartlar bajarilsin:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = +\infty$$

$$\lim_{n \rightarrow \infty} (f(x_n + 2021) - f(x_n)) = 0.$$

Yechim. $g(x) = f(x + 2021) - f(x)$ yordamchi funksiyani qaraymiz. f uzluksiz bo'lgani uchun g ham uzluksiz. Ikki holatni ko'ramiz.

1-holat. Faraz qilaylik, shunday $x_0 > 1$ mavjudki, barcha $x > x_0$ uchun $g(x) > 0$.

$x_n = x_0 + 2021n$ deb olamiz. U holda $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = +\infty$.

$$g(x) > 0$$

$$f(x_0 + 2021n + 2021) - f(x_0 + 2021n) > 0$$

$$f(x_0 + 2021(n + 1)) - f(x_0 + 2021n) > 0$$

$$f(x_0 + 2021(n + 1)) > f(x_0 + 2021n)$$

ya'ni $\{f(x_0 + 2021n)\}$ ketma-ketligi monoton o'suvchidir. f chegaralangan bo'lgani uchun bu ketma-ketlikning limiti mavjud:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} f(x_0 + 2021n) = L; L \in \mathbb{R}.$$

$$g(x_n) = f(x_0 + 2021n + 2021) - f(x_0 + 2021n)$$

$$\lim_{n \rightarrow \infty} g(x_n) = \lim_{n \rightarrow \infty} f(x_0 + 2021(n + 1)) - \lim_{n \rightarrow \infty} f(x_0 + 2021n) = L - L = 0$$

$$\lim_{n \rightarrow \infty} g(x_n) = 0.$$

2-holat. Faraz qilaylik bunday x_0 mavjud emas, ya'ni $g(x)$ hech qanday nuqtadan keyin doimiy ishorali bo'lmaydi. U holda har bir $n \geq 1$ uchun n dan katta qiymatlarda g musbat ham, manfiy ham qiymat oladi:

$$\exists a_n > n, g(a_n) > 0; \exists b_n > n, g(b_n) < 0.$$

$$\text{Bolsano-Koshi} \quad \text{teoremasiga} \quad \text{asosan} \quad \text{shunday} \quad x_n \in (a_n, b_n)$$

mavjudki, $g(x_n) = 0, x_n > n \Rightarrow \lim_{n \rightarrow \infty} x_n = +\infty$.

6-masala (SEEMOUS 2023 4-masala, [5]).

Faraz qilaylik $f: [0, 1] \rightarrow [0, 1]$ uzluksiz va qat'iy kamayuvchi funksiya bo'lsin. Har bir $n \in \mathbb{N} \setminus \{0\}$ uchun $f(x) = x^n$ tenglamasining $(0, 1)$ oraliqda yagona a_n yechimi mavjudligini isbotlang va $\lim_{n \rightarrow \infty} a_n = 1$ ekanligini ko'rsating.

Yechim. Mavjudlik. Yordamchi funksiyani kiritamiz: $g(x) = f(x) - x^n, x \in [0, 1]$. g funksiyasi $[0, 1]$ da uzluksizdir, chunki f uzluksiz va x^n ham uzluksizdir. Endi qiymatlarni hisoblaymiz.

$$g(0) = f(0) - 0^n = f(0)$$

f qat'iy kamayuvchi va $f([0, 1]) \subseteq [0, 1]$ bo'lgani uchun $f(0) > f(1) \geq 0$. Agar $f(0) = 0$ bo'lsa, f kamayuvchiligidan $f \equiv 0$ kelib chiqadi, bu esa qat'iy kamayuvchilikka zid. Demak $f(0) > 0$, ya'ni $g(0) > 0$.

$$g(1) = f(1) - 1^n = f(1) - 1$$

f qat'iy kamayuvchi va $f(0) \in [0, 1]$ bo'lgani uchun $f(1) < f(0) \leq 1$, demak $f(1) < 1$, ya'ni $g(1) < 0$.

Shunday qilib, $g(0) > 0$ va $g(1) < 0$. g funksiyasi $[0, 1]$ da uzluksiz bo'lgani uchun, Bolsano-Koshi teoremasiga asosan, shunday $a_n \in (0, 1)$ mavjudki $g(a_n) = 0$, ya'ni $f(a_n) = a_n^n$.

Yagonalik. Faraz qilaylik $a < b$ ikkala yechim bo'lsin, ya'ni $f(a) = a^n$ va $f(b) = b^n$. f qat'iy kamayuvchi va $a < b$ bo'lgani uchun $f(a) > f(b)$, ya'ni $a^n > b^n$. Lekin $0 < a < b < 1$ bo'lganda $a^n < b^n$ bo'ladi. Ziddiyat. Demak yechim yagonadir.

Endi $\lim_{n \rightarrow \infty} a_n = 1$ ekanligini isbotlaymiz.

1-qadam. (a_n) ketma-ketligi qat'iy o'suvchi.

Faraz qilaylik $a_n \geq a_{n+1}$. f kamayuvchi bo'lgani uchun $f(a_n) \leq f(a_{n+1})$, ya'ni $a_n^n \leq a_{n+1}^{n+1}$. Lekin $a_{n+1} \in (0, 1)$ bo'lgani uchun $a_{n+1}^{n+1} < a_{n+1}^n \cdot a_{n+1} \geq a_{n+1}$ dan $a_n^n \geq a_{n+1}^n$ kelib chiqadi. Demak $a_n^n \geq a_{n+1}^n > a_{n+1}^{n+1}$, bu esa $a_n^n \leq a_{n+1}^{n+1}$ ga zid. Demak $a_n < a_{n+1}$, ya'ni (a_n) qat'iy o'suvchidir.

2-qadam. (a_n) qat'iy o'suvchi va yuqoridan 1 bilan chegaralangan, demak biror $\ell \in (0, 1]$ limitga yaqinlashadi.

3-qadam. $\ell = 1$ ekanligini isbotlaymiz.

Faraz qilaylik $\ell < 1$. U holda barcha n uchun $a_n \leq \ell < 1$, demak $\lim_{n \rightarrow \infty} a_n^n = 0$ (chunki $a_n \leq \ell < 1$ va $\ell^n \rightarrow 0$). f uzluksiz bo'lgani uchun va $a_n \rightarrow \ell$ dan

$$f(\ell) = \lim_{n \rightarrow \infty} f(a_n) = \lim_{n \rightarrow \infty} a_n^n = 0.$$

Demak, $f(\ell) = 0$. Lekin f qat'iy kamayuvchi va $\ell < 1$ bo'lgani uchun $f(\ell) > f(1) \geq 0$. Agar $f(1) = 0$ bo'lsa, qat'iy kamayuvchilikdan $f(\ell) > f(1) = 0$ bo'ladi, bu $f(\ell) = 0$ ga zid. Agar $f(1) > 0$ bo'lsa, $f(\ell) > f(1) > 0$, bu ham $f(\ell) = 0$ ga zid. Har ikki holda ham ziddiyat. Demak $\ell = 1$, ya'ni $\lim_{n \rightarrow \infty} a_n = 1$.

4. Mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladigan masalalar

Ushbu bo'limda uzluksiz funksiyalar xossalari va ularning olimpiada masalalarini yechishdagi qo'llanilishiga oid mustaqil ishlash uchun masalalar keltiriladi. Berilgan topshiriqlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliy masalalarda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalalar turli murakkablik darajasida tanlangan bo'lib, mantiqiy fikrlash va isbotlash madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ularni yechish jarayonida o'quvchilar Veyershtass va Bolsano–Koshi teoremlaridan samarali foydalanish malakasini oshiradilar. Bu esa mustaqil ijodiy yondashuvni rivojlantirishga imkon beradi.

1-masala (Putnam and Beyond 389-masala, [6])

$f: \mathbb{R} \rightarrow \mathbb{R}$ -uzluksiz funksiya bo'lib, quyidagi shartni qanoatlantirsin:

$$\lim_{h \rightarrow 0^+} \frac{f(x+2h) - f(x+h)}{h} = 0; x \in \mathbb{R}$$

f funksiyasi o'zgarmas, ya'ni $f \equiv \text{const}$ ekanini isbotlang.

2-masala (IMC 2016 1-kun 1-masala, [2])

$f: [a, b] \rightarrow \mathbb{R}$ funksiya $[a, b]$ da uzluksiz va (a, b) da differensiallanuvchi funksiya bo'lsin. Faraz qilaylik f funksiya cheksiz ko'p nollarga ega, ammo hech qanday $x \in (a, b)$ nuqtada $f(x) = f'(x) = 0$ shart bajarilmasin.

(a) $f(a) \cdot f(b) = 0$ ekanini isbotlang.

(b) $[0, 1]$ kesmada yuqoridagi barcha shartlarni qanoatlantiruvchi funksiyaga misol keltiring.

3-masala (SEEMOUS 2008 1-masala, [5])

$f: [1, +\infty) \rightarrow (0, +\infty)$ -uzluksiz funksiya bo'lib, har bir $a > 0$ uchun $f(x) = ax$ tenglamasi $[1, +\infty)$ da kamida bitta yechimga ega bo'lsin.

(a) Har bir $a > 0$ uchun $f(x) = ax$ tenglamasi cheksiz ko'p yechimga ega ekanini isbotlang.

(b) Yuqoridagi xossani qanoatlantiruvchi qat'iy o'suvchi uzluksiz funksiyaga misol keltiring.

4-masala (IMC 1997 2-kun 6-masala, [2])

Aytaylik, $f: [0, 1] \rightarrow \mathbb{R}$ uzluksiz funksiya berilgan bo'lsin. Agar $f(x) = 0$ bo'lsa va x ning ixtiyoriy atrofida $f(y) < 0$ hamda $f(z) > 0$ bo'ladigan y, z nuqtalar topilsa, f funksiya x nuqtada “o'qni kesib o'tadi” deyiladi.

a) “o'qni” cheksiz ko'p marta kesib o'tuvchi uzluksiz funksiyaga misol keltiring.

b) uzluksiz funksiya “o'qni” cheksiz ko'p marta kesib o'ta oladimi? Javobingizni asoslang.

5-masala (IMC 2002 1-kun 4-masala, [2])

$f: [a, b] \rightarrow [a, b]$ -uzluksiz funksiya va $p \in [a, b]$ bo'lsin. $p_0 = p$ va $p_{n+1} = f(p_n), n = 0, 1, 2, \dots$ deb ta'riflansin. Faraz qilaylik,

$$T_p = \{p_n : n = 0, 1, 2, \dots\}$$

to'plami yopiq bo'lsin, ya'ni agar $x \notin T_p$ bo'lsa, u holda shunday $\delta > 0$ mavjudki, barcha $x' \in T_p$ uchun $|x' - x| \geq \delta$ bo'lsin.

T_p to'plam chekli ko'p elementdan iborat ekanligini isbotlang.

Xulosa. Ushbu maqolada matematik analiz kursining muhim bo'limlaridan biri hisoblangan uzluksiz funksiyalarning asosiy xossalari Veyershtass hamda Bolsano–Koshi teoremlari orqali sodda va tushunarli tarzda yoritildi. Mazkur nazariy natijalarning amaliy ahamiyatini ko'rsatish maqsadida xalqaro matematika olimpiadalarida uchragan turli tipdagi masalalar tahlil qilinib, ularning yechimlarida uzluksiz funksiyalar xossalariidan samarali foydalanish usullari namoyish etildi. Tahlil qilingan masalalar o'quvchilarda matematik mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash va nostandart yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada tavsiya etilgan mustaqil yechish uchun masalalar o'quvchilarning

mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga, nazariy bilimlarini mustahkamlashga hamda olimpiada masalalarini yechish bo'yicha amaliy tajribasini oshirishga yordam beradi. Olingan natijalar matematik analizni o'qitishda va iqtidorli o'quvchilarni xalqaro olimpiadalarga tayyorlash jarayonida samarali metodik manba sifatida foydalanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. G.Xudayberganov, A.K.Vorisov, X.T Mansurov, B.A.Shoimqulov. *Matematik analizdan ma'ruzalar 1-qism*. "Voriz-nashriyot". Toshkent-2010
2. IMC (International Mathematics Competition for University Students). <https://www.imc-math.org.uk/>
3. OMOUS (Open Mathematical Olympiad for University Students). <https://iuhd.edu.tm/competitions>
4. NCUMC (North Countries Universities Mathematical Competition). <https://im.itmo.ru/ru/events/ncumc>
5. SEEMOUS (South Eastern European Mathematical Olympiad for University Students). <https://massee-org.eu/seemous/>
6. Gelca R. Andreescu T. *Putnam and Beyond*. New York Springer, 2007

DISCRETE SPECTRUM OF THE EVEN PART OF A LATTICE SCHRÖDINGER OPERATOR WITH ON-SITE AND NEAREST-NEIGHBOUR INTERACTIONS

Khamidov Shakhobiddin Ilkhom ugli,

Senior Researcher of the V.I. Romanovskiy Institute
of Mathematics, Uzbekistan Academy of Sciences,
Tashkent, 100174, Uzbekistan, PhD
shoh.hamidov1990@mail.ru

Niyozkhonov Lazizkhon Latifkhonovich,

Master's Student of the Samarkand State University,
University boulevard, 15,
Samarkand, 140104 Uzbekistan
niyozxon2002@gmail.com

Sharipova Sadokat Fazliddinovna,

Teacher of the Jizzakh branch of National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, 259,
Sh. Rashidov avenue, Jizzakh, 130100, Uzbekistan
sadokatsharipova8@gmail.com

Abstract. We study a one-particle discrete Schrödinger operator on the lattice $\mathbb{Z}$ with a finite-range external potential. The potential consists of an on-site interaction of strength $\gamma \in \mathbb{R}$ and nearest-neighbour interactions of strength $\lambda \in \mathbb{R}$. The present paper is devoted to the restriction $H_{\gamma\lambda}^e := H_{\gamma\lambda}|_{L^{2,e}(\mathbb{T})}$ of this operator to the even subspace. The eigenvalues of $H_{\gamma\lambda}^e$ outside the essential spectrum are characterized by an explicit Fredholm determinant equation. This characterization yields a complete classification of the number and location of the discrete eigenvalues of the even part in terms of the parameters $(\gamma, \lambda) \in \mathbb{R}^2$.

Keywords: Schrödinger operator, one-particle operator, eigenvalue, lattice.

BIR TUGUNDA VA ENG YAQIN QO'SHNI TUGUNLARDA TA'SIRLARGA EGA PANJARADAGI SCHRÖDINGER OPERATORI JUFT QISMINING DISKRET SPEKTRI

Annotatsiya. Biz $\mathbb{Z}$ panjarada aniqlangan, chekli ta'sir radiusiga ega tashqi potensial bilan ta'sirlashadigan bir zarrachali diskret Schrödinger operatorini o'rganamiz. Mazkur potensial $\gamma \in \mathbb{R}$ kuchga ega bir tugundagi ta'sir hamda $\lambda \in \mathbb{R}$ kuchga ega eng yaqin qo'shni tugunlardagi ta'sirlardan iborat. Ushbu maqola mazkur operatorning juft funksiyalar fazosidagi qismi $H_{\gamma\lambda}^e := H_{\gamma\lambda}|_{L^{2,e}(\mathbb{T})}$ ni o'rganishga bag'ishlangan. $H_{\gamma\lambda}^e$ operatorning muhim spektrdan tashqarida joylashgan xos qiymatlari aniq Fredholm determinanti tenglamasi orqali tavsiflanadi. Ushbu tavsif $(\gamma, \lambda) \in \mathbb{R}^2$ parametrlar bo'yicha juft qismning ajralgan xos qiymatlari soni va joylashuvini to'liq tavsiflash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Schrödinger operatori, bir zarrachali operator, xos qiymat, panjara.

ДИСКРЕТНЫЙ СПЕКТР ЧЁТНОЙ ЧАСТИ РЕШЁТОЧНОГО ОПЕРАТОРА ШРЁДИНГЕРА С ОДНОУЗЕЛЬНЫМ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕМ И ВЗАИМОДЕЙСТВИЯМИ НА БЛИЖАЙШИХ СОСЕДНИХ УЗЛАХ

$$A = \sqrt{4\alpha^2 \beta^2 \operatorname{ch}^2 \alpha q + (\beta^2 - \alpha^2)^2 \operatorname{sh}^2 \alpha q} = \sqrt{4\alpha^2 \beta^2 + (\alpha^2 + \beta^2)^2 \operatorname{sh}^2 \alpha q}.$$

(24) tenglamadan topamiz:

$$\beta = \frac{1}{q} \left[\pi n + (-1)^n \arcsin \frac{2\alpha\beta}{A} - \gamma \right], \quad n \in \mathbb{N}, \quad (25)$$

chunki (24) tenglamaning o'ng tomoni noldan katta va birdan kichik.

Olingan (25) tenglik β ga nisbatan nochiziqli tenglama hisoblanadi. Uning yechimi mavjudligini asoslash uchun quyidagi funksional tenglamani qaraymiz:

$$\beta = f(\beta) = \frac{1}{q} \left[\pi n + (-1)^n \arcsin \frac{2\alpha\beta}{A} - \gamma \right]$$

berilgan n da.

Ma'lumki, bunday tenglamaning yechiluvchanligi uchun $|f'(\beta)| < 1$ bo'lishi yetarli. Hosilani topamiz:

$$f'(\beta) = \frac{2\alpha(\alpha^2 + 3\beta^2) \operatorname{sh} \alpha q}{A^2} \left[(-1)^n + \frac{\alpha^2 + \beta^2}{\alpha^2 - \beta^2} \operatorname{ch} \alpha q \right].$$

Bu yerdan quyidagi bahoni olamiz:

$$|f'(\beta)| = \frac{2\alpha(\alpha^2 + 3\beta^2)(\alpha^2 - \beta^2 + (\alpha^2 + \beta^2) \operatorname{ch} \alpha q)}{(\alpha^2 - \beta^2)(\alpha^2 + \beta^2)^2 \operatorname{sh} \alpha q}$$

katta β larda, demak katta α larda ham ($\alpha > \beta$ bo'lgani uchun) 1 dan kichikdir.

U holda (25) tenglama kamida bitta yechimga ega. n ga har xil qiymatlar berib, (24) tenglamadan topiladigan β_n qiymatlarining sanoqli to'plamini olamiz. Katta n larda asimptotik formula o'rinni:

$$\beta_n \approx \frac{\pi n}{q}.$$

Xos funksiyalarning tegishli sistemasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{aligned} \tilde{Y}_{nm}(y) &= \beta_n \operatorname{sh} \alpha_{nm} q - \alpha_{nm} \sin \beta_n q \operatorname{ch} \alpha_{nm} q - \cos \beta_n q (\cos \beta_n y - \operatorname{ch} \alpha_{nm} y) \\ &+ \beta_n \operatorname{sh} \alpha_{nm} y - \alpha_{nm} \sin \beta_n y \\ &= A_{nm} (\cos \beta_n y - \operatorname{ch} \alpha_{nm} y) + \beta_n \operatorname{sh} \alpha_{nm} y - \alpha_{nm} \sin \beta_n y \\ &= \frac{1}{\operatorname{ch} \alpha_{nm} q - \cos \beta_n q} [\beta_n (\operatorname{sh} \alpha_{nm} q \cos \beta_n y - \operatorname{sh} \alpha_{nm} y \cos \beta_n q) - \beta_n \operatorname{sh} \alpha_{nm} (q - y) - \alpha_{nm} \sin \beta_n (q - y) \\ &\quad + \alpha_{nm} (\operatorname{ch} \alpha_{nm} y \sin \beta_n q - \operatorname{ch} \alpha_{nm} q \sin \beta_n y)], \end{aligned} \quad (26)$$

bu funksiya umumiy holda m nomeriga bog'liq, chunki $\alpha^2 = C_0 + \lambda = 2C_0 + \beta_n^2 = 2d_m^2 + \beta_n^2$ n va m ga bog'liq.

(19), (20) masala xos funksiyalar sistemasining (26) ortogonalligi (20) chegaraviy shartlarini qanoatlantiruvchi $C^4(0, q) \cap C^3[0, q]$ funksiyalar to'plamida $Y^{IV} - 2C_0 Y''$ differensial ifodasi bilan aniqlangan differensial operatorning o'z-o'ziga qo'shma ekanligidan kelib chiqadi.

(26) xos funksiyalar sistemasining normasini topamiz:

$$\begin{aligned} \|\tilde{Y}_{nm}\|^2 &= \int_0^q \tilde{Y}_{nm}^2(y) dy = \int_0^q [A_{nm}^2 (\cos \beta_n y - \operatorname{ch} \alpha_{nm} y)^2 + 2A_{nm} (\cos \beta_n y - \operatorname{ch} \alpha_{nm} y) \\ &\times (\beta_n \operatorname{sh} \alpha_{nm} y - \alpha_{nm} \sin \beta_n y) + (\beta_n \operatorname{sh} \alpha_{nm} y - \alpha_{nm} \sin \beta_n y)^2] dy = J_1 + J_2 + J_3. \end{aligned}$$

J_i integrallarni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} J_1 &= A_{nm}^2 \int_0^q (\cos^2 \beta_n y - 2\cos \beta_n y \operatorname{ch} \alpha_{nm} y + \operatorname{ch}^2 \alpha_{nm} y) dy = \\ &= A_{nm}^2 \left(\frac{q}{2} + \frac{\sin 2\beta_n q}{4\beta_n} \right) - \frac{2A_{nm}^2}{\alpha_{nm}^2 + \beta_n^2} [\alpha_{nm} \cos \beta_n q \operatorname{sh} \alpha_{nm} q + \beta_n \sin \beta_n q \operatorname{ch} \alpha_{nm} q] + A_{nm}^2 \left(\frac{q}{2} + \frac{\operatorname{sh} 2\alpha_{nm} q}{4\alpha_{nm}} \right), \end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
 J_2 &= 2A_{nm} \int_0^q (\beta_n \cos \beta_n y \operatorname{sh} \alpha_{nm} y - \alpha_{nm} \cos \beta_n y \sin \beta_n y - \beta_n \operatorname{ch} \alpha_{nm} y \operatorname{sh} \alpha_{nm} y + \alpha_{nm} \operatorname{ch} \alpha_{nm} y \sin \beta_n y) dy = \\
 &= \frac{2A_{nm} \beta_n}{\alpha_{nm}^2 + \beta_n^2} [\alpha_{nm} \cos \beta_n q \operatorname{ch} \alpha_{nm} q + \beta_n \sin \beta_n q \operatorname{sh} \alpha_{nm} q - \alpha_{nm}] - 2A_{nm} \alpha_{nm} \frac{\sin^2 \beta_n q}{2\beta_n} - 2A_{nm} \beta_n \frac{\operatorname{sh}^2 \alpha_{nm} q}{2\alpha_{nm}} \\
 &+ \frac{2A_{nm} \alpha_{nm}}{\alpha_{nm}^2 + \beta_n^2} [\alpha_{nm} \sin \beta_n q \operatorname{sh} \alpha_{nm} q - \beta_n \cos \beta_n q \operatorname{ch} \alpha_{nm} q + \beta_n] = -\frac{A_{nm}}{\alpha_{nm} \beta_n} (\beta_n \operatorname{sh} \alpha_{nm} q - \alpha_{nm} \sin \beta_n q)^2, \\
 J_3 &= \int_0^q (\beta_n^2 \operatorname{sh}^2 \alpha_{nm} y - 2\beta_n \alpha_{nm} \operatorname{sh} \alpha_{nm} y \sin \beta_n y + \alpha_{nm}^2 \sin^2 \beta_n y) dy = \\
 &= \frac{\beta_n^2}{2} \left(\frac{\operatorname{sh} 2\alpha_{nm} q}{2\alpha_{nm}} - q \right) - \frac{2\beta_n \alpha_{nm}}{\alpha_{nm}^2 + \beta_n^2} (\alpha_{nm} \sin \beta_n q \operatorname{ch} \alpha_{nm} q - \beta_n \cos \beta_n q \operatorname{sh} \alpha_{nm} q) + \frac{\alpha_{nm}^2}{2} \left(q - \frac{\sin 2\beta_n q}{2\beta_n} \right).
 \end{aligned}$$

U holda quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned}
 \|\tilde{Y}_{nm}\|^2 &= \left(A_{nm}^2 + \frac{\alpha_{nm}^2 - \beta_n^2}{2} \right) q + \frac{A_{nm}^2}{4} \left(\frac{\sin 2\beta_n q}{\beta_n} + \frac{\operatorname{sh} 2\alpha_{nm} q}{\alpha_{nm}} \right) \\
 &+ \frac{\beta_n^2 \operatorname{sh} 2\alpha_{nm} q}{4\alpha_{nm}} - \frac{\alpha_{nm}^2}{4\beta_n} \sin 2\beta_n q - \frac{A_{nm} \beta_n}{\alpha_{nm}} \operatorname{sh}^2 \alpha_{nm} q - \frac{A_{nm} \alpha_{nm}}{\beta_n} \sin^2 \beta_n q. \quad (27)
 \end{aligned}$$

(19), (20) masala xos funksiyalarining ortonormal sistemasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Y_{nm}(y) = \frac{1}{\|\tilde{Y}_{nm}\|} \tilde{Y}_{nm}(y), \quad (28)$$

bu yerda $\tilde{Y}_{nm}(y)$ (26) formula bilan topiladi, norma $\|\tilde{Y}_{nm}\|$ (27) formuladan, β_n xos qiymatlari esa (25) tenglikdan olinadi.

Topilgan bir o'lchovli spektral masalalarning (15), (16) va (19), (20) xos funksiyalari (17) va (28) asosida quyidagi xos funksiyalarni tuzamiz:

$$v_{nm}(x, y) = X_{nm}(x) Y_{nm}(y), \quad (29)$$

ular

$$\lambda_{nm} = d_m^2 + \beta_n^2 \quad (30)$$

xos qiymatlariga mos keladi, bunda d_m va β_n mos ravishda (18) va (25) formulalardan topiladi.

(2)–(5) masala yechimini formal ravishda qator yig'indisi ko'rinishida ifodalaymiz:

$$u(x, y, t) = \sum_{m,n=1}^{\infty} u_{nm}(t) v_{nm}(x, y), \quad (31)$$

bu yerda

$$u_{nm}(t) = \iint_D u(x, y, t) v_{nm}(x, y) dx dy. \quad (32)$$

(32) tenglikni $t \in (0, T)$ bo'yicha ikki marta differensiallaymiz va (1) tenglamaga qo'yamiz, natijada quyidagini olamiz:

$$\begin{aligned}
 &\iint_D u_{tt}(x, y, t) v_{nm}(x, y) dx dy + \alpha^2 \iint_D (u_{xxxx} + 2u_{xxyy} + u_{yyyy}) v_{nm}(x, y) dx dy \\
 &\iint_D q(t) u_t(x, y, t) v_{nm}(x, y) dx dy = \iint_D F(x, y, t) v_{nm}(x, y) dx dy. \quad (33)
 \end{aligned}$$

Chegaraviy shartlar (2) va (11), (12) ni hisobga olib, bo'laklab integrallaymiz:

$$\begin{aligned}
 &\iint_D u_{tt}(x, y, t) v_{nm}(x, y) dx dy = \frac{\partial^2}{\partial t^2} \iint_D u(x, y, t) v_{nm}(x, y) dx dy = u_{nm}''(t), \\
 &\iint_D q(t) u_t(x, y, t) v_{nm}(x, y) dx dy = q(t) \frac{\partial}{\partial t} \iint_D u(x, y, t) v_{nm}(x, y) dx dy = q(t) u_{nm}'(t), \\
 &\iint_D u_{xxxx} v_{nm}(x, y) dx dy = d_m^4 \iint_D u v_{nm}(x, y) dx dy, \\
 &\iint_D u_{yyyy} v_{nm}(x, y) dx dy = \iint_D u(x, y) X_{nm}(x) [2C_0 Y_{nm}''(y)
 \end{aligned}$$

$$+(\lambda_{mn}^2 - C_0^2)Y_{mn}(y)]dx dy = 2d_m^2 \iint_D uX_{mn}(x)Y_{mn}(y)dx dy + (\lambda_{mn}^2 - d_m^4) \iint_D uv_{mn}(x,y)dx dy,$$

$$\iint_D u_{xy}v_{mn}(x,y)dx dy = -d_m^2 \iint_D u(x,y)X_{mn}(x)Y_{mn}(y)dx dy.$$

Topilgan integral qiymatlarini (33) tenglikka qo'yib, $u_{mn}(t)$ ga nisbatan ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamani olamiz:

$$u_{mn}''(t) + \alpha^2 \lambda_{mn}^2 u_{mn}(t) + q(t)u_{mn}'(t) = F_{mn}(t), \quad (34)$$

bu yerda

$$F_{mn}(t) = \iint_D F(x,y,t)v_{mn}(x,y)dx dy.$$

(34) differensial tenglamaning umumiy yechimi quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$u_{mn} = a_{mn} \cos \alpha \lambda_{mn} t + b_{mn} \sin \alpha \lambda_{mn} t + \frac{1}{\omega_{mn}} \int_0^t (F_{mn}(s) - q(s)u_{mn}'(s)) \sin[\omega_{mn}(t-s)] ds, \quad (35)$$

bu yerda $\omega_{mn} = \alpha \lambda_{mn}$, a_{mn} va b_{mn} — ixtiyoriy o'zgarmaslar.

Noma'lum a_{mn} va b_{mn} larni aniqlash uchun boshlang'ich shartlar (3) va (32) formuladan foydalanamiz:

$$u_{mn}(0) = \iint_D u(x,y,0)v_{mn}(x,y)dx dy = \iint_D \varphi(x,y)v_{mn}(x,y)dx dy = \varphi_{mn}, \quad (36)$$

$$u_{mn}'(0) = \iint_D u_t(x,y,0)v_{mn}(x,y)dx dy = \iint_D \psi(x,y)v_{mn}(x,y)dx dy = \psi_{mn}. \quad (37)$$

(35) dagi nomalum koeffitsiyentlarni, boshlang'ich shartlar (37) va (38) shatlardan foydalanib quyidagicha topamiz:

$$a_{mn} = \varphi_{mn}, \quad b_{mn} = \frac{\psi_{mn}}{\alpha \lambda_{mn}}.$$

Topilgan a_{mn} va b_{mn} qiymatlarni (35) formulaga qo'yib, funksiyalarning aniq ko'rinishini olamiz:

$$u_{mn}(t) = \varphi_{mn} \cos \alpha \lambda_{mn} t + \frac{\psi_{mn}}{\alpha \lambda_{mn}} \sin \alpha \lambda_{mn} t + \frac{1}{\omega_{mn}} \int_0^t F_{mn}(s) \sin[\omega_{mn}(t-s)] ds + \frac{1}{\omega_{mn}} \int_0^t q(s)u_{mn}'(s) \sin[\omega_{mn}(t-s)] ds, \quad (38)$$

(38) integral ostida $u_{mn}'(t)$ ishtirok etmoqda. Shuning uchun (38) tenglamani t bo'yicha differensiallaymiz va $u_{mn}'(t)$ ga nisbatan quyidagi integral tenglamani olamiz

$$u_{mn}'(t) = -\alpha \lambda_{mn} \varphi_{mn} \sin \alpha \lambda_{mn} t + \psi_{mn} \cos \alpha \lambda_{mn} t + \int_0^t (F_{mn}(s) - q(s)u_{mn}'(s)) \sin[\omega_{mn}(t-s)] ds. \quad (39)$$

Endi, biz $u_{mn}(t)$, $u_{mn}'(t)$ va $u_{mn}''(t)$ funksiyalar uchun quyidagi tasdiqni isbotlaymiz.

1-lemma. Faraz qilaylik, $q \in C[0, T]$, barcha $\forall t \in [0, T]$ va yetarlicha katta $n \in \mathbb{N}$ uchun quyidagi baholar

o'rinli:

$$|u_{mn}(t)| \leq |\varphi_{mn}| + \frac{|\psi_{mn}|}{\alpha \lambda_{mn}} + \frac{t}{\omega_{mn}} \|F_{mn}\|_{C[0, T]} + \frac{t \|q\|_{C[0, T]}}{\omega_{mn}} (\alpha \lambda_{mn} |\varphi_{mn}| + |\psi_{mn}| + t \|F_{mn}\|_{C[0, T]}) \exp(t \|q\|_{C[0, T]}), \quad (40)$$

$$|u_n'(t)| \leq (\alpha \lambda_{mn} |\varphi_{mn}| + |\psi_{mn}| + t \|F_{mn}\|_{C[0,T]}) \exp(t \|q\|_{C[0,T]}), \quad (41)$$

$$|u_n''(t)| \leq \|F_{mn}\|_{C[0,T]} + \alpha^2 \lambda_{mn}^2 \left[|\varphi_{mn}| + \frac{|\psi_{mn}|}{\alpha \lambda_{mn}} + \frac{t}{\omega_{mn}} \|F_{mn}\|_{C[0,T]} + \frac{t \|q\|_{C[0,T]}}{\omega_{mn}} (\alpha \lambda_{mn} |\varphi_{mn}| + |\psi_{mn}| + t \|F_{mn}\|_{C[0,T]}) \exp(t \|q\|_{C[0,T]}) \right] + \|q\|_{C[0,T]} (\alpha \lambda_{mn} |\varphi_{mn}| + |\psi_{mn}| + t \|F_{mn}\|_{C[0,T]}) \exp(t \|q\|_{C[0,T]}). \quad (42)$$

Isbot. Dastlab, (39) integral tenglamaning ikkila tomondan modul olamiz

$$|u_n'(t)| = \left| -\alpha \lambda_{mn} \varphi_{mn} \sin \alpha \lambda_{mn} t + \psi_{mn} \cos \alpha \lambda_{mn} t + \int_0^t F_{mn}(s) \sin[\omega_{mn}(t-s)] ds - \int_0^t q(s) u_{mn}'(s) \sin[\omega_{mn}(t-s)] ds \right|.$$

So'ng baholaymiz:

$$|u_n'(t)| \leq \alpha \lambda_{mn} |\varphi_{mn}| + |\psi_{mn}| + t \|F_{mn}\|_{C[0,T]} + \|q\|_{C[0,T]} \int_0^t |u_{mn}'(s)| ds.$$

Gronoull integral tengsizligiga asosan, yuqoridagidan (41) bahoni olamiz.

Endi (38) tenglamadan foydalanib, quyidagini olamiz

$$|u_n(t)| = \left| \varphi_{mn} \cos \alpha \lambda_{mn} t + \frac{\psi_{mn}}{\alpha \lambda_{mn}} \sin \alpha \lambda_{mn} t + \frac{1}{\omega_{mn}} \int_0^t \sin[\omega_{mn}(t-s)] F_{mn}(s) ds + \frac{1}{\omega_{mn}} \int_0^t \sin[\omega_{mn}(t-s)] q(s) u_n'(s) ds \right| \leq |\varphi_{mn}| + \frac{|\psi_{mn}|}{\alpha \lambda_{mn}} + \frac{t}{\omega_{mn}} \|F_{mn}\|_{C[0,T]} + \frac{t \|q\|_{C[0,T]}}{\omega_{mn}} |u_n'(\tau)|.$$

Yuqoridagi tengsizlikda (41) tengsizlikdan foydalanib 2-lemmadagi (40) tengsizlikni olamiz. (24) tenglamadan foydalangan holda, biz $u_n''(t)$ ga nisbatan (42) bahoni oldik.

Faraz qilaylik, $u_n(t)$ va $\tilde{u}_n(t)$ funksiyalar (34), (36), (37) Koshi masalasining turli yechimlari bo'lsin.

Bunda $u_n(t)$ (34), (36), (37) Koshi masalasining yechimi, $\tilde{u}_n(t)$ esa bu tenglamaning $\tilde{\varphi}_{mn}$, $\tilde{\psi}_{mn}$ va $\tilde{F}_{mn}(t)$ funksiyalari bilan o'zgartirilgan holdagi yechim:

$$\tilde{u}_{mn}(t) = \tilde{\varphi}_{mn} \cos \alpha \lambda_{mn} t + \frac{\tilde{\psi}_{mn}}{\alpha \lambda_{mn}} \sin \alpha \lambda_{mn} t + \frac{1}{\omega_{mn}} \int_0^t \tilde{F}_{mn}(s) \sin[\omega_{mn}(t-s)] ds + \frac{1}{\omega_{mn}} \int_0^t q(s) \tilde{u}_{mn}'(s) \sin[\omega_{mn}(t-s)] ds. \quad (43)$$

(43) tenglamaning t bo'yicha differensialsi esa

$$\tilde{u}_n'(t) = -\alpha \lambda_{mn} \tilde{\varphi}_{mn} \sin \alpha \lambda_{mn} t + \tilde{\psi}_{mn} \cos \alpha \lambda_{mn} t + \int_0^t \tilde{F}_{mn}(s) \cos[\omega_{mn}(t-s)] ds + \int_0^t \tilde{q}(s) \tilde{u}_{mn}'(s) \cos[\omega_{mn}(t-s)] ds. \quad (44)$$

$u_{mn}(t) - \tilde{u}_{mn}(t)$ va $u_{mn}'(t) - \tilde{u}_{mn}'(t)$ ayirmalarni tuzib, dastlab (39) va (44) integral tenglamalar yordamida quyidagi integral tenglamani hosil qilamiz:

$$u_{mn}'(t) - \tilde{u}_{mn}'(t) = -\alpha \lambda_{mn} \sin \alpha \lambda_{mn} t (\varphi_{mn} - \tilde{\varphi}_{mn}) + \cos \alpha \lambda_{mn} t (\psi_{mn} - \tilde{\psi}_{mn}) + \int_0^t (F_{mn}(s) - \tilde{F}_{mn}(s)) \cos[\omega_{mn}(t-s)] ds + \int_0^t \cos[\omega_{mn}(t-s)] \tilde{q}(s) (u_{mn}'(s) - \tilde{u}_{mn}'(s)) ds$$

$$+ \int_0^t \cos[\omega_{mn}(t-s)](q(s)-\tilde{q}(s))u'_{mn}(s)ds. \quad (45)$$

Shundan so'ng, (38) va (43) integral tenglamalar yordamida $u_{mn}(t)-\tilde{u}_{mn}(t)$ ayirmaga nisbatan quyida integral tenglamani hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} u_{mn}(t)-\tilde{u}_{mn}(t) &= \cos\alpha\lambda_{mn}t (\varphi_{mn}-\tilde{\varphi}_{mn}) + \frac{\sin\alpha\lambda_{mn}t}{\alpha\lambda_{mn}} (\psi_{mn}-\tilde{\psi}_{mn}) \\ &+ \frac{1}{\omega_{mn}} \int_0^t (F_{mn}(s)-\tilde{F}_{mn}(s)) \sin[\omega_{mn}(t-s)]ds + \frac{1}{\omega_{mn}} \int_0^t \tilde{q}(s) (u'_{mn}(s)-\tilde{u}'_{mn}(s)) \sin[\omega_{mn}(t-s)] ds \\ &+ \frac{1}{\omega_{mn}} \int_0^t u'_{mn}(s) (q(s)-\tilde{q}(s)) \sin[\omega_{mn}(t-s)] ds. \end{aligned} \quad (46)$$

So'ngra (45) tenglamadan foydalanib, $u'_n(t)-\tilde{u}'_n(t)$ ayirmani baholab, $|u'_{mn}(t)-\tilde{u}'_{mn}(t)|$ uchun quyidagi chiziqli integral tengsizlikni keltirib chiqaramiz:

$$\begin{aligned} |u'_{mn}(t)-\tilde{u}'_{mn}(t)| &\leq \alpha\lambda_{mn}|\varphi_{mn}-\tilde{\varphi}_{mn}| + |\psi_{mn}-\tilde{\psi}_{mn}| + t\|F_{mn}-\tilde{F}_{mn}\|_{C[0,T]} \\ &+ t\|q-\tilde{q}\|_{C[0,T]} (\alpha\lambda_{mn}|\varphi_{mn}| + |\psi_{mn}| + t\|F_{mn}\|_{C[0,T]}) \exp(t\|q\|_{C[0,T]}) + \|\tilde{q}\|_{C[0,T]} \int_0^t |u'_{mn}(s)-\tilde{u}'_{mn}(s)| ds. \end{aligned}$$

Gronoull integral tengsizligiga ko'ra quyidagi bahoni olamiz

$$\begin{aligned} |u'_{mn}(t)-\tilde{u}'_{mn}(t)| &\leq [\alpha\lambda_{mn}|\varphi_{mn}-\tilde{\varphi}_{mn}| + |\psi_{mn}-\tilde{\psi}_{mn}| + t\|F_{mn}-\tilde{F}_{mn}\|_{C[0,T]} + t\|q-\tilde{q}\|_{C[0,T]} \\ &\times (\alpha\lambda_{mn}|\varphi_{mn}| + |\psi_{mn}| + t\|F_{mn}\|_{C[0,T]}) \exp(t\|q\|_{C[0,T]})] \exp(t\|\tilde{q}\|_{C[0,T]}). \end{aligned} \quad (47)$$

Xuddi shunday, (35) tenglamadan foydalanib, $u_{mn}(t)-\tilde{u}_{mn}(t)$ ayirmani baholab, $|u_{mn}(t)-\tilde{u}_{mn}(t)|$ uchun quyidagi chiziqli integral tengsizlikni keltirib chiqaramiz

$$\begin{aligned} |u_{mn}(t)-\tilde{u}_{mn}(t)| &\leq |\varphi_{mn}-\tilde{\varphi}_{mn}| + \frac{|\psi_{mn}-\tilde{\psi}_{mn}|}{\alpha\lambda_{mn}} + \frac{t}{\omega_{mn}} \|F_{mn}-\tilde{F}_{mn}\|_{C[0,T]} \\ &+ \frac{t\|q-\tilde{q}\|_{C[0,T]}}{\omega_{mn}} (\alpha\lambda_{mn}|\varphi_{mn}| + |\psi_{mn}| + t\|F_{mn}\|_{C[0,T]}) \exp(t\|q\|_{C[0,T]}) \\ &+ \frac{t\|\tilde{q}\|_{C[0,T]}}{\omega_{mn}} [\alpha\lambda_{mn}|\varphi_{mn}-\tilde{\varphi}_{mn}| + |\psi_{mn}-\tilde{\psi}_{mn}| + t\|F_{mn}-\tilde{F}_{mn}\|_{C[0,T]} + t\|q-\tilde{q}\|_{C[0,T]} \\ &\times (\alpha\lambda_{mn}|\varphi_{mn}| + |\psi_{mn}| + t\|F_{mn}\|_{C[0,T]}) \exp(t\|q\|_{C[0,T]})] \exp(t\|\tilde{q}\|_{C[0,T]}). \end{aligned} \quad (48)$$

Bu baholar teskari masalani tadqiq qilishda qo'llaniladi.

So'ngra, hosil qilingan integral tenglama (38) ni (31) ga qo'yib, $u(x,t)$ funksiyasiga nisbatan quyidagini topamiz

$$\begin{aligned} u(x,y,t) &= \sum_{m,n=1}^{\infty} \left(\varphi_{mn} \cos\alpha\lambda_{mn}t + \frac{\psi_{mn}}{\alpha\lambda_{mn}} \sin\alpha\lambda_{mn}t + \frac{1}{\omega_{mn}} \int_0^t F_{mn}(s) \sin[\omega_{mn}(t-s)]ds \right. \\ &\left. + \frac{1}{\omega_{mn}} \int_0^t q(s)u'_{mn}(s) \sin[\omega_{mn}(t-s)] ds \right) v_{mn}(x,y), \end{aligned} \quad (49)$$

Dastlab, $u(x,t)$ funksiyaning uzluksizligini isbotlaymiz. (49) qatorning $\Omega_T := \{(x,t): 0 \leq x \leq 1, t \in [0,T]\}$ sohasida tekis yaqinlashuvini isbotlaymiz. Bu qator barcha $(x,t) \in \Omega_T$ lar uchun quyidagi sonli qator bilan majorantlanadi:

$$\sum_{m,n=1}^{\infty} \left(|\varphi_{mn}| + \frac{|\psi_{mn}|}{\alpha\lambda_{mn}} + \frac{T}{\omega_{mn}} \|F_{mn}\|_{C[0,T]} + \frac{T\|q\|_{C[0,T]}}{\omega_{mn}} (\alpha\lambda_{mn}|\varphi_{mn}| + |\psi_{mn}| + T\|F_{mn}\|_{C[0,T]}) \exp(T\|q\|_{C[0,T]}) \right). \quad (50)$$

Oxirgi qatorning yaqinlashuvini ta'minlash uchun quyidagi lemmani keltiramiz:

Lemma 3 *Quyidagi shartlar berilgan bo'lsin:*

$$\begin{aligned} \varphi(x,y) &\in C_{x,y}^{2,2}(\bar{D}), \quad \varphi(0,y) = \varphi(p,y) = 0, \quad 0 \leq y \leq q; \\ \varphi^{(2,0)}(x,0) &= \varphi^{(2,0)}(x,q) = \varphi^{(2,1)}(x,0) = \varphi^{(2,1)}(x,q) = 0, \quad 0 \leq x \leq p; \\ \psi(x,y) &\in C_{x,y}^{1,1}(\bar{D}), \quad \psi(0,y) = \psi(p,y) = 0, \quad 0 \leq y \leq q; \\ \psi^{(1,0)}(x,0) &= \psi^{(1,0)}(x,q) = 0, \quad 0 \leq x \leq p; \\ F(x,y,t) &\in C(\bar{Q}) \cap C_{x,y}^{1,1}(\bar{D}), \quad F(0,y,t) = F(p,y,t) = 0, \quad 0 \leq y \leq q, \quad 0 \leq t \leq T; \\ F_x(x,0,t) &= F_x(x,q,t) = 0, \quad 0 \leq x \leq p, \quad 0 \leq t \leq T. \end{aligned}$$

U holda quyidagi baholar o'rinli:

$$|\varphi_{mn}| \leq \frac{M_1}{d_m^2 \beta_n^2}, \quad |\psi_{mn}| \leq \frac{M_2}{d_m \beta_n}, \quad \|F_{mn}\| \leq \frac{M_3}{d_m \beta_n}. \quad (51)$$

Proof. (36) dagi integralni x o'zgaruvchi bo'yicha ikki marta bo'laklab integrallaymiz. U holda

$$\varphi_{mn} = \frac{1}{d_m^2} \iint_D \varphi_{(x,y)}^{(2,0)} v_{nm}(x,y) dx dy = \frac{1}{d_m^2} \int_0^p X_m(x) dx \int_0^q \varphi^{(2,0)} Y_{nm}(y) dy. \quad (52)$$

Ichki integralni yana ikki marta bo'laklab integrallaymiz:

$$\int_0^q \varphi^{(2,0)} Y_{nm}(y) dy = \varphi^{(2,0)}(x,y) Y_{nm}^{(1)}(y) \Big|_0^q - \int_0^q \varphi^{(2,1)}(x,y) Y_{nm}^{(1)}(y) dy,$$

bu yerda

$$\begin{aligned} Y_{nm}^{(1)}(y) &= \int \tilde{Y}_{nm}(y) dy = \frac{1}{\|\tilde{Y}_{nm}\|} \frac{1}{ch\alpha_{nm}q - \cos\beta_n q} [sh\alpha_{nm}q \sin\beta_n y - \frac{\beta_n}{\alpha_{nm}} ch\alpha_{nm}y \cos\beta_n q \\ &+ \frac{\beta_n}{\alpha_{nm}} ch\alpha_{nm}(q-y) - \frac{\alpha_{nm}}{\beta_n} \cos\beta_n(q-y) + sh\alpha_{nm}y \sin\beta_n q - \frac{\alpha_{nm}}{\beta_n} ch\alpha_{nm}q \sin\beta_n y] = \frac{1}{\beta_n} \bar{Y}_{nm}^{(1)}(y); \end{aligned}$$

$\bar{Y}_{nm}^{(1)}(y)$ funksiya katta n va m larda chegaralangan. U holda yuqoridagi tenglik quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\int_0^q \varphi^{(2,0)}(x,y) Y_{nm}(y) dy = -\frac{1}{\beta_n} \int_0^q \varphi^{(2,1)}(x,y) \bar{Y}_{nm}^{(1)}(y) dy = -\frac{1}{\beta_n} \int_0^q \varphi^{(2,2)}(x,y) Y_{nm}^{(2)}(y) dy.$$

Bu yerda

$$\begin{aligned} Y_{nm}^{(2)}(y) &= \int \bar{Y}_{nm}^{(1)}(y) dy = \frac{1}{\beta_n} \frac{\alpha_{nm}}{\|\tilde{Y}_{nm}\|} \frac{1}{ch\alpha_{nm}q - \cos\beta_n q} [-\frac{\beta_n}{\alpha_{nm}} sh\alpha_{nm}q \cos\beta_n y \\ &- \frac{\beta_n^3}{\alpha_{nm}^3} sh\alpha_{nm}y \cos\beta_n q - \frac{\beta_n^3}{\alpha_{nm}^3} sh\alpha_{nm}(q-y) + \sin\beta_n(q-y) + \frac{\beta_n^2}{\alpha_{nm}^2} ch\alpha_{nm}y \sin\beta_n q - ch\alpha_{nm}q \sin\beta_n y] = \frac{1}{\beta_n} \bar{Y}_{nm}^{(2)}(y); \end{aligned}$$

$\bar{Y}_{nm}^{(2)}(y)$ funksiya ham katta n va m larda chegaralangan. Bundan, $\int_0^q \varphi^{(2,0)}(x,y) Y_{nm}(y) dy$ integralni quyidagiga tengligini olamiz:

$$\int_0^q \varphi^{(2,0)}(x,y) Y_{nm}(y) dy = \frac{1}{\beta_n^2} \int_0^q \varphi^{(2,2)}(x,y) \bar{Y}_{nm}^{(2)}(y) dy. \quad (53)$$

U holda (52), (53) tengliklardan foydalanib, (51) dagi birinchi qismi uchun baho olamiz:

$$|\varphi_{mn}| \leq \frac{M_1}{d_m^2 \beta_n^2}.$$

Endi, ψ_{mn} va $F_{mn}(t)$ hadlarni ham xuddi yuqoridagidek quyidagi yozamiz:

$$\psi_{mn} = \frac{1}{d_m} \sqrt{\frac{2}{p}} \int_0^p \cos d_m x dx \int_0^q \psi^{(1,0)}(x,y) Y_{nm}(y) dy = \frac{1}{d_m \beta_n} \sqrt{\frac{2}{p}} \iint_D \psi^{(1,1)}(x,y) \cos d_m(x) Y_{nm}^{(1)}(y) dx dy,$$

$$F_{mn}(t) = \frac{1}{d_m \beta_n} \sqrt{\frac{2}{p}} \iint_D F^{(1,1)}(x,y,t) \cos d_m(x) Y_{nm}^{(1)}(y) dx dy,$$

bularga asosan (51) ning qolgan baholarining o'rinliligiga ishonch hosil qilamiz.

$$|\psi_{mn}| \leq \frac{M_2}{d_m \beta_n}, \quad \|F_{mn}\| \leq \frac{M_3}{d_m \beta_n}.$$

(51) baholarga ko'ra, majoranta qilingan (50) qator $m, n \geq N_0$ da, N_0 yetarlicha katta natural son, quyidagi yaqinlashuvchi qator bilan majorantlanadi:

$$\sum_{m,n \geq N_0} \left(\frac{M_1}{d_m^2 \beta_n^2} + \frac{M_2}{d_m \beta_n} + \frac{M_3}{d_m \beta_n} \right) \leq C_1 \sum_{m,n \geq N_0} \frac{1}{m^2 n^2}.$$

Demak, (49) funksional qator tekis va absolyut yaqinlashuvchi ekan. Bundan $u(x,y,t)$ funksiyaning mavjudligi kelib chiqadi.

Endi, yechimning yegulyarligini tekshiramiz. Ya'ni $u(x,y,t)$ yechim klassik ma'noda mavjud bo'lishini tekshiramiz. (31) qatordan hadlab differensiallash bilan quyidagi qatorlarni tuzamiz:

$$u_{tt} = \sum_{m,n=1}^{\infty} u_{mn}''(t) v_{mn}(x,y), \quad (54)$$

$$u_{xxxx} = \sum_{m,n=1}^{\infty} d_m^4 u_{mn}(t) v_{mn}(x,y), \quad (55)$$

$$\begin{aligned} u_{yyyy} &= \sum_{m,n=1}^{\infty} u_{mn}(t) X_m(x) Y_{nm}^{IV}(y) \\ &= 2 \sum_{m,n=1}^{\infty} d_m^2 u_{mn}(t) X_m(t) Y_{nm}''(y) + \sum_{m,n=1}^{\infty} \beta_n^2 \alpha_{nm}^2 u_{mn}(t) v_{mn}(x,y), \end{aligned} \quad (56)$$

$$u_{xxyy} = - \sum_{m,n=1}^{\infty} d_m^2 u_{mn}(t) X_m(x) Y_{nm}''(y). \quad (57)$$

(54)–(57) qatorlarni tekis va absolyut yaqinlashuvchanlikka tekshirganda, xuddi shunday $(x,y,t) \in \bar{Q}$ da 1 va 2 lemmalarga asosan (54)–(57) qatorlarni majorantlaymiz va quyidagi sonli qatorni olamiz:

$$\sum_{m,n=1}^{\infty} \alpha_m^4 \left(|\varphi_{mn}| + \frac{1}{\lambda_{mn}} |\psi_{mn}| + \frac{1}{\lambda_{mn}} \|F_{mn}\|_{C[0,T]} \right). \quad (58)$$

(58) qatorning yaqinlashishini ko'rsatish uchun berilgan $\varphi(x,y)$, $\psi(x,y)$ va $F(x,y,t)$ funksiyalarga qo'shimcha shartlar kerak. Shuning uchun $\varphi(x,y)$, $\psi(x,y)$ va $F(x,y,t)$ funksiyalarga qo'shimcha shartlar talab qilib quyidagi lemmani keltiramiz:

Lemma 4. Faraz qilaylik, $0 \leq y \leq q$ va $0 \leq x \leq p$ lar uchun quyidagi shartlar bajarilsin:

1. $\varphi(x,y) \in C^{10}(\bar{D})$, $\varphi(0,y) = \varphi(p,y) = 0$, $\varphi^{(2,2)}(0,y) = \varphi^{(2,2)}(p,y) = 0$;
 $\varphi^{(2,0)}(x,q) = \varphi^{(2,0)}(x,0) = \varphi^{(2,1)}(x,q) = \varphi^{(2,1)}(x,0) = 0$,
 $\varphi^{(2,4)}(x,0) = \varphi^{(2,4)}(x,q) = \varphi^{(2,5)}(x,0) = \varphi^{(2,5)}(x,q) = 0$,
 $\varphi^{(4,2)}(x,0) = \varphi^{(4,2)}(x,q) = \varphi^{(4,3)}(x,0) = \varphi^{(4,3)}(x,q) = 0$, ;
2. $\psi(x,y) \in C^6(\bar{D})$, $\psi(0,y) = \psi(p,y) = \psi^{(2,2)}(0,y) = \psi^{(2,2)}(p,y) = 0$,
 $\psi^{(2,0)}(x,q) = \psi^{(2,0)}(x,0) = \psi^{(2,1)}(x,q) = \psi^{(2,1)}(x,0) = 0$;
3. $F(x,y,t) \in C(\bar{Q}) \cap C_{x,y}^6(\bar{D})$, $F(0,y,t) = F(p,y,t) = 0$,
 $F_{x,y}^{(2,2)}(0,y,t) = F_{x,y}^{(2,2)}(p,y,t) = 0$, $0 \leq t \leq T$;

$$F_{x,y}^{(2,0)}(x,0,t)=F_{x,y}^{(2,0)}(x,q,t)=F_{x,y}^{(2,1)}(x,0,t)=F_{x,y}^{(2,1)}(x,q,t)=0, \quad 0 \leq t \leq T.$$

U holda quyidagi baholar o'rinli:

$$|\varphi_{mn}| \leq \frac{M_4}{d_m^2 \beta_n^4 \alpha_{nm}^4}, \quad |\psi_{mn}| \leq \frac{M_5}{d_m^2 \beta_n^2 \alpha_{nm}^2}, \quad \|F_{mn}\|_{C[0,T]} \leq \frac{M_6}{d_m^2 \beta_n^2 \alpha_{nm}^2}. \quad (59)$$

Isbot. (36) tenglikni qaraymiz. Unda x o'zgaruvchi bo'yicha ikki marta bo'laklab integrallab, quyidagini olamiz:

$$\varphi_{mn} = \iint_D \varphi(x,y) v_{mn}(x,y) dx dy = -\frac{1}{d_m^2} \iint_D \varphi^{(2,0)}(x,y) v_{mn}(x,y) dx dy. \quad (60)$$

So'ngra yuqoridagi (60) tenglikning o'ng tomonidagi integralni quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz:

$$\begin{aligned} \iint_D \varphi^{(2,0)}(x,y) v_{mn}(x,y) dx dy &= \int_0^p X_m(x) dx \int_0^q \varphi^{(2,0)}(x,y) Y_{nm}(y) dy \\ &= \frac{1}{\lambda_{nm}^2 - d_m^4} \int_0^p X_m(x) dx \int_0^q \varphi^{(2,0)} [Y_{nm}'(y) - 2d_m^2 Y_{nm}''(y)] dy. \end{aligned}$$

Yana bo'laklab integrallaymiz:

$$\begin{aligned} \iint_D \varphi^{(2,0)}(x,y) v_{mn}(x,y) dx dy \\ = \frac{1}{\beta_n^2 \alpha_{nm}^2} \iint_D [\varphi^{(2,4)}(x,y) + 2\varphi^{(4,2)}(x,y)] v_{mn}(x,y) dx dy. \end{aligned} \quad (61)$$

(61) tenglikning o'ng tomonidagi integralni qaraymiz va uni quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz:

$$\begin{aligned} \iint_D [\varphi^{(2,4)}(x,y) + 2\varphi^{(4,2)}(x,y)] v_{mn}(x,y) dx dy &= \int_0^p X_m(x) dx \int_0^q [\varphi^{(2,4)}(x,y) + 2\varphi^{(4,2)}(x,y)] Y_{nm}(y) dy \\ &= \frac{1}{\beta_n^2 \alpha_{nm}^2} \int_0^p X_m(x) dx \int_0^q [\varphi^{(2,8)}(x,y) - 2d_m^2 \varphi^{(2,6)}(x,y) + 2\varphi^{(4,6)}(x,y) - 4d_m^2 \varphi^{(4,4)}(x,y)] Y_n(y) dy \\ &= \frac{1}{\beta_n^2 \alpha_{nm}^2} \iint_D [\varphi^{(2,8)}(x,y) + 4\varphi^{(4,6)}(x,y) + 4\varphi^{(6,4)}(x,y)] v_{mn}(x,y) dx dy. \end{aligned}$$

U holda (60) tenglik (61) va oxirgi tenglikni hisobga olib, quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\varphi_{mn} = -\frac{1}{d_m^2 \beta_n^4 \alpha_{nm}^4} \times \iint_D [\varphi^{(2,8)}(x,y) + 4\varphi^{(4,6)}(x,y) + 4\varphi^{(6,4)}(x,y)] v_{mn}(x,y) dx dy. \quad (62)$$

Xuddi shunday (60) va (61) ga asosan:

$$\psi_{mn} = -\frac{1}{d_m^2 \beta_n^2 \alpha_{nm}^2} \iint_D [\psi^{(2,4)}(x,y) + 2\psi^{(4,2)}(x,y)] v_{mn}(x,y) dx dy, \quad (63)$$

$$F_{mn}(t) = -\frac{1}{d_m^2 \beta_n^2 \alpha_{nm}^2} \iint_D [F^{(2,4)}(x,y,t) + 2F^{(4,2)}(x,y,t)] v_{mn}(x,y) dx dy. \quad (64)$$

(62)–(64) tengliklardan quyidagi bahoning o'rirliligi kelib chiqadi

$$\sum_{m,n > N_0} \left(\frac{M_4}{d_m^2 \beta_n^4} + \frac{M_5}{d_m^2 \beta_n^2} + \frac{M_6}{d_m \beta_n^2} \right) \leq C_2 \sum_{m,n > N_0} \frac{1}{m^2 n^2}.$$

4-lemmaga va yuqoridagi bahoga asosan (58) qator $m,n > N_0$ da quyidagi yaqinlashuvchi qator bilan baholanadi:

$$\sum_{m,n > N_0} \left(\frac{1}{d_m^2 \beta_n^4} + \frac{\alpha_{mn}^2}{d_m^2 \beta_n^2 \lambda_{mn}} \right) \leq C_2 \sum_{m,n > N_0} \frac{1}{(mn)^2}.$$

Shunday qilib, biz quyidagi teorema isbotladik:

Teorema 2. Agar $\varphi(x,y)$, $\psi(x,y)$ va $F(x,y,t)$ funksiyalar 3- va 4-lemmalar shartlarini qanoatlantirsa, u holda (2)–(5) masalasining $C_{xy,t}^{4,2}(\bar{Q})$ sinfida yagona yechimi mavjud bo'lib, u (49) qatorning yig'indisi bilan aniqlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. A. N. Tikhonov and A. A. Samarskii, *Equations of Mathematical Physics* (Nauka, Moscow, 1966).
2. S. P. Timoshenko, *Vibration Problems in Engineering*, 3rd ed. (D. Van Nostrand, New York, 1955).
3. K. B. Sabitov, "Oscillations of a beam with clamped ends," *Vestn. Samar. Gos. Tekh. Univ. Ser. Fiziko-Mat. Nauki* 19, 311–324 (2015).
4. K. B. Sabitov, "A remark on the theory of initial-boundary value problems for the equation of rods and beams," *Differ. Equations* 53, 86–98 (2017).
5. K. B. Sabitov and A. A. Akimov, "Initial-boundary value problem for a nonlinear beam vibration equation," *Differ. Equations* 56, 621–634 (2020).
6. U. D. Durdiev, "Inverse problem of determining an unknown coefficient in the beam vibration equation," *Differ. Equat.* 58, 37–44 (2022).
7. U. D. Durdiev, "A time-nonlocal inverse problem for the beam vibration equation with an integral condition," *Differ. Equat.* 59, 359–370 (2023).
8. S. Moaveni and R. Hyde, "Reconstruction of the area-moment-of-inertia of a beam using a shifting load and the end-slope data," *Inverse Probl. Sci. Eng.* 24, 990–1010 (2016).
9. U. D. Durdiev, "Inverse problem of determining the unknown coefficient in the beam vibration equation in an infinite domain," *Differ. Equat.* 59, 462–472 (2023).
10. K. B. Sabitov, *Plate Oscillations with Mixed Boundary Conditions*, *Russ Math.* 67, 53–65 (2023)

SIMMETRIK KO'PHADLAR VA ULARNING ELEMENTAR MATEMATIKAGA AYRIM TATBIQLARI

Ummatova Mahbuba Axmedovna,

Qo'qon davlat universiteti katta o'qituvchisi

Gofurova Mavjuda Aliyevna,

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada algebra kursining muhim mavzularidan biri ko'phadlar nazariyasi bo'limidagi simmetrik ko'phadlar bilan, ya'ni ixtiyoriy ikkita o'zgaruvchisining o'rnini almashtirganimizda o'zgarmaydigan ko'phadlar bilan yetarlicha tanishtirilib, antisimmetrik ko'phadlar haqidagi fikrlar va uning elementar matematikaga ayrim tatbiqlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, algoritm, algebra, ko'phadlar nazariyasi, simmetrik ko'phadlar, o'zgaruvchi, simmetrik ko'phadlar haqidagi asosiy teorema va uning natijalari, antisimmetrik ko'phadlar, n ta noma'lumli simmetrik ko'phadlarning algebratik yig'indisi va ko'paytmasi.

СИММЕТРИЧНЫЕ МНОГОЧЛЕНЫ И НЕКОТОРЫЕ ПРИМЕНЕНИЯ К ЭЛЕМЕНТАРНОЙ МАТЕМАТИКЕ

Аннотация. В данной статье представлены достаточные сведения о симметричных многочленах в разделе теории многочленов, одной из важных тем курса алгебры, то есть многочлены, которые не изменяются при замене двух произвольных переменных, а также изучаются сведения об антисимметричных многочленах и некоторые их приложения к элементарной математике.

Ключевые слова: компетенция, алгоритм, алгебра, теория многочленов, симметричные многочлены, переменная, основная теорема о симметричных многочленах и ее результаты, антисимметричные многочлены, алгебраическая сумма и произведение симметричных многочленов от n неизвестных.

SYMMETRIC POLYNOMIALES AND SOME APPLICATIONS TO ELEMENTARY MATHEMATICS

Abstract. This article provides a sufficient introduction to symmetric polynomials in the section of polynomial theory, one of the important topics of the algebra course, that is, polynomials that do not change when we replace two arbitrary variables, and studies ideas about antisymmetric polynomials and some of their applications to elementary mathematics.

Key words: competence, algorithm, algebra, polynomial theory, symmetric polynomials, variable, the main theorem on symmetric polynomials and its results, antisymmetric polynomials, algebraic sum and product of n unknown symmetric polynomials.

Kirish. Matematika qadimdan “fanlar onasi” deya e'tirof etilgan. Chunki bu fan tafakkurda aniqlik, izchillik, tizimlilik, mantiqiy tahlil kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi. Barcha tabiiy va aniq fanlarning negizida matematika yotadi. Bugun sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, zamonaviy injiniring va texnologik innovatsiyalar haqida so'z yuritilar ekan, ularning barchasining asosi bo'lib aynan matematik modellashirish, algoritmlar va tahlil vositalari xizmat qilmoqda.

Shunday ekan, har qanday islohot, har qanday strategik rejaning markazida matematika fanining rivoji turmog'i zarur.

Yurtimizda so'nggi yillarda matematika fanini rivojlantirish, uni xalqaro andozalarga mos ravishda o'qitish, yoshlarni bu sohaga qiziqtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Xususan, Prezident qarori bilan Matematika fani bo'yicha ilg'or ilmiy maktablar tashkil etildi; iqtidorli o'quvchilar uchun maxsus matematika maktablari va litseylar ochildi; nufuzli xalqaro olimpiadalar va tanlovlarda qatnashayotgan yoshlar uchun mukofotlar va grant tizimi yo'lga qo'yildi; yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha magistratura va doktorantura dasturlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Algebra kursining ko'phadlar nazariyasi bo'limida simmetrik ko'phadlar bilan, ya'ni ixtiyoriy ikkita o'zgaruvchisining o'rnini almashtirganimizda o'zgarmaydigan ko'phadlar bilan yetarlicha

tanishtirilib, simmetrik ko'phadlar haqidagi asosiy teorema va uning ayrim tatbiqlari o'rganiladi.

Ushbu maqolada esa dastlab simmetrik ko'phadlar, keyin esa, nisbatan kam o'rganilgan, simmetrik ko'phadlarga juda ham yaqin bo'lgan ko'phadlar sinfi - *antisimmetrik ko'phadlar bilan tanishtirishga va ularning elementar matematikaga ba'zi tatbiqlarini ko'rib chiqiladi.*

Ta'rif. Agar ko'p noma'lumli ko'phaddagi ixtiyoriy ikkita noma'lumning o'rinlarini almashtirganda ko'phad o'zgarmasa, u holda bunday ko'phad simmetrik ko'phad deyiladi.

n ta noma'lumli simmetrik ko'phadlarning algebraik yig'indisi yana n ta noma'lumli simmetrik ko'phadlar bo'ladi. Haqiqatan ham, noma'lumlarning istalgan o'rin almashtirishida har qaysi simmetrik ko'phad o'zgarmasa, ravshanki, ularning algebraik yig'indisi va ko'paytmasi ham o'zgarmaydi. Masalan,

$$f_1(x_1, x_2, x_3) = x_1 + x_2 + x_3 \text{ va } f_2(x_1, x_2, x_3) = x_1 x_2 x_3$$

simmetrik ko'phadlarning quyidagi algebraik yig'indisi va ko'paytmasi yana simmetrik ko'phadlardir:

$$f_1 \pm f_2 = x_1 + x_2 + x_3 \pm x_1 x_2 x_3;$$

$$f_1 \cdot f_2 = x_1^2 x_2 x_3 + x_1 x_2^2 x_3 + x_1 x_2 x_3^2$$

Ta'rif. $x_1, x_2, \dots, x_n$ noma'lumlardan tuzilgan simmetrik ko'phadlar asosiy (elementar) simmetrik ko'phadlar deb ataladi.

$$\tau_1 = x_1 + x_2 + \dots + x_n,$$

$$\tau_2 = x_1 x_2 + x_1 x_3 + \dots + x_{n-1} x_n,$$

$$\tau_n = x_1 x_2 \dots x_n \quad (1)$$

Antisimmetrik ko'phadlar ixtiyoriy ikkita o'zgaruvchisining o'rnini almashtirganimizda ishorasi o'zgaradigan ko'phadlarga aytiladi.

Avvalo, ikki o'zgaruvchili *antisimmetrik ko'phadlarni* ko'rib chiqaylik. Bunday ko'phadlarga misol tarzida, $x - y$, $x^3 - y^3$, $x^4 y - xy^4$ ko'phadlarni olishimiz mumkin. Aslida agar, masalan, $x^3 - y^3$ ko'phadda x va y o'zgaruvchilarning o'rinlarini almashtirsak, u holda ko'phad, $y^3 - x^3$ ko'rinishga o'tadi. $y^3 - x^3 = -(x^3 - y^3)$, bo'lganligi uchun $x^3 - y^3$ ko'phad *antisimmetrik ko'phaddir*. Xuddi shu kabi, $x - y$ va $xy - xy^4$ ko'phadlarning ham *antisimmetrik ko'phadlar* ekanligini isbotlash mumkin.

Uch o'zgaruvchili *antisimmetrik ko'phadlarga* misol tarzida $(x - y)(x - z)(y - z)$ ko'phadni olish mumkin. Bu ko'phadda x va y o'zgaruvchilarning o'rinlarini almashtirsak, u holda $(y - x)(y - z)(x - z) = -(x - y)(x - z)(y - z)$ ko'rinishga o'tadi. Xuddi shu kabi boshqa o'zgaruvchilar o'rnini almashtirilganda ham ko'phadning ishorasi o'zgaradi. *Antisimmetrik ko'phadlar* uchun o'rinli bo'lgan quyidagi muhim xossani keltiramiz: *antisimmetrik ko'phadning kvadrati simmetrik ko'phad bo'ladi.*

Aslida, ixtiyoriy ikkita o'zgaruvchisining o'rnini almashtirganimizda *antisimmetrik ko'phadlar* ishorasini o'zgartiradi. Lekin ko'phadning kvadratining ishorasi o'zgarmaydi. Demak, *antisimmetrik ko'phadlarning kvadratida ixtiyoriy ikkita o'zgaruvchisining o'rnini almashtirganimizda ko'phad o'zgarmaydi*, ya'ni *antisimmetrik ko'phadlarning kvadrati simmetrik ko'phaddir.*

Antisimmetrik ko'phadlarning nafaqat kvadrati, balki, ixtiyoriy ikkita *antisimmetrik ko'phadlarning* ko'paytmasi ham simmetrik ko'phaddir. Chunki, ixtiyoriy ikkita o'zgaruvchisining o'rnini almashtirganimizda har ikkala ko'phadlar ishorasini o'zgartiradi, shuning usun ko'paytmaning ishorasi o'zgarmaydi. *Antisimmetrik ko'phadni simmetrik ko'phadga ko'paytirish natijasida esa antisimmetrik ko'phad hosil bo'ladi.* Chunki, ixtiyoriy ikkita o'zgaruvchisining o'rnini almashtirganimizda bir ko'phad ishorasini o'zgartiradi, ikkinchisi esa o'zgartirmaydi, shuning uchun ko'paytmaning ishorasi o'zgaradi. Ixtiyoriy *antisimmetrik ko'phad* qanday tuzilganini aniqlashtiraylik. Yuqorida keltirilgan jumla *antisimmetrik ko'phadni* qurish usulini ko'rsatib turibdi. Biror *antisimmetrik ko'phadni* ixtiyoriy simmetrik ko'phadga ko'paytiramiz va ko'paytmada *antisimmetrik ko'phadlar* hosil bo'ladi. Tabiiy savol kelib chiqadi. Biror *antisimmetrik ko'phadni* topish mumkinmiki, uni barcha simmetrik ko'phadlarga ko'paytirish natijasida barcha *antisimmetrik ko'phadlarni* hosil qilish mumkin bo'lsin. (o'zgaruvchilar soni berilgan). Bu savolga quyidagicha javob beriladi. Ikki o'zgaruvchili ko'phadlardan boshlaylik. Bu holda, izlanayotgan *antisimmetrik ko'phad* $x - y$ dan iborat bo'ladi. Boshqacha aytganda, quyidagi teorema o'rinli.

Antisimmetrik ko'phadlar haqidagi asosiy teoremani va lemmani keltiramiz.

Teorema. Ixtiyoriy ikki o'zgaruvchili $f(x,y)$ antisimmetrik ko'phad

$f(x,y)=(x-y)g(x,y)$ ko'rinishda bo'ladi, bunda, $g(x,y)$ - x va y o'zgaruvchilarning simmetrik ko'phadi.

Lemma. Agar $f(x,y)$ — antisimmetrik ko'phad bo'lsa, u holda $f(x,x) = 0$ bo'ladi.

Yoki boshqacha aytganda, x va y o'zgaruvchilar ustma-ust tushganda antisimmetrik ko'phad nolga aylanadi.

Antisimmetrik ko'phadlarning matematikaning ko'plab sohalariga tatbiqlari uchraydi. Misol tarzida, ko'phadni ko'paytuvchilarga ajratish, ko'phadning diskriminantini va uning tenglamalar ildizlarini tekshirishga tatbiqlari, tengsizliklarni isbotlash, ayniyatlarni isbotlash, kasr maxrajini irratsionallikdan qutqarishni keltirish mumkin. Shundan elementar matematikaga ba'zi tatbiqlarini, xususan, ko'paytuvchilarga ajratishga tatbiqlarini ko'rib o'tamiz.

Antisimmetrik ko'phadlar haqidagi asosiy teorema elementar algebraning bir qator masalalarni

yechimini sezilarli darajada soddalashtirish imkonini beradi. x,y,z uch o'zgaruvchili ixtiyoriy antisimmetrik ko'phad

$$T(x,y,z)=(x-y)(x-z)(y-z)$$

ko'phadga bo'linganligi uchun ixtiyoriy $f(x,y,z)$ antisimmetrik ko'phadni $f(x,y,z)=T(x,y,z)g(x,y,z)$

ko'paytuvchilarga ajratish imkoni mavjud. Bu yerda $g(x,y,z)$ simmetrik ko'phad. O'z navbatida $g(x,y,z)$ simmetrik ko'phad ham ba'zan ko'paytuvchilarga ajratilgan bo'lishi mumkin. Ta'kidlash kerakki,

$g(x,y,z)=\frac{f(x,y,z)}{T(x,y,z)}$ nisbatni topish uchun $f(x,y,z)$ antisimmetrik ko'phadni $T(x,y,z)$ kubik ko'phadga ustun

shaklida bo'lish maqsadga muvofiq emas. Xususiy qiymatlar usuli nisbatan qulayroq. Aynan $f(x,y,z)$

antisimmetrik ko'phad uchinchi darajaga ega bo'lsa, $\frac{f(x,y,z)}{T(x,y,z)}$ nisbat nolinch darajali ko'phad bo'ladi, ya'ni

son bo'ladi. $f(x,y,z)=kT(x,y,z)$ munosabat ayniyat bo'ladi, ya'ni (x,y,z) larning ixtiyoriy qiymatlarida

o'rinli bo'ladi. Shuning uchun, k sonini aniqlash uchun oxirgi tenglikga (x,y,z) ga qandaydir (o'zaro har

xil) son qiymatlarni berish yetarlidir, bundan k soni aniqlanadi. Agar $f(x,y,z)$ antisimmetrik ko'phad

to'rtinchi darajali bir jinsli ko'phad bo'lsa, u holda $\frac{f(x,y,z)}{T(x,y,z)}$ nisbat birinchi darajali bir jinsli simmetrik

ko'phad bo'ladi, ya'ni $f(x,y,z)=T(x,y,z)k\sigma_1$ (k -son) va bu yerda k noma'lumli koeffitsiyentni aniqlash

uchun x,y,z larga qandaydir son qiymatlar berish yetarli. Xuddi shunday, agar $f(x,y,z)$ 5-darajali bir jinsli

antisimmetrik ko'phad bo'lsa, u holda $\frac{f(x,y,z)}{T(x,y,z)}$ nisbat ikkinchi darajali bir jinsli simmetrik ko'phad

bo'ladi, ya'ni $k\sigma_1^2+l\sigma_2$ ko'rinishga ega bo'ladi, bu yerda k va l lar noma'lum koeffitsiyentlar.

$f(x,y,z)=T(x,y,z)(k\sigma_1^2+l\sigma_2)$ k va l ikkita noma'lumlarni topish uchun biz x,y,z larga ikki marta

qandaydir son qiymatlar berishimiz kerak. Agar $f(x,y,z)$ 6-darajali bir jinsli antisimmetrik ko'phad bo'lsa,

u holda $f(x,y,z)=T(x,y,z)(k\sigma_1^3+l\sigma_1\sigma_2+m\sigma_3)$, bo'ladi.

1-misol. $f(x,y,z)=(x-y)^3+(y-z)^3+(z-x)^3$ ko'phadni ko'paytuvchilarga ajrating.

Yechish. Bu ko'phad yuqoridagi ta'rifga asosan, antisimmetrik ko'phad. Yana shuni aytish

mumkinki, u uchinchi darajaga ega bo'lgani uchun, $f(x,y,z)=k T(x,y,z)$ bo'ladi. k noma'lum koeffitsiyentni topish uchun $x=0, y=1, z=2$ qiymatlarni qo'yamiz. $6=-2k$ ni hosil qilib, $k=-3$ ni topamiz.

Shunday qilib,

$$f(x,y,z)=(x-y)^3+(y-z)^3+(z-x)^3 = -3(x-y)(x-z)(y-z) = 3(x-y)(y-z)(z-x)$$

2-misol. $f(x,y,z)=yz(y^2-z^2)+xz(z^2-x^2)+xy(x^2-z^2)$ ko'phadni ko'paytuvchilarga ajrating.

Yechish. Yuqorida aytilganlarga ko'ra,

$$f(x,y,z)=T(x,y,z)k\sigma_1 \quad (k\text{-son})$$

Ya'ni

$$yz(y^2-z^2)+xz(z^2-x^2)+xy(x^2-z^2) = k(x+y+z)(x-y)(x-z)(y-z)$$

k noma'lum koeffitsiyentni topish uchun $x=0, y=1, z=2$ qiymatlarni qo'yamiz. $k=1$ ni hosil qilib, javobni topamiz:

$$yz(y^2-z^2)+xz(z^2-x^2)+xy(x^2-z^2) = (x+y+z)(x-y)(x-z)(y-z)$$

ADABIYOTLAR:

1. В. Г. Болтянский, н. Я. Виленкин. Симметрия в алгебре. Издательство Московского центра непрерывного математического образования. Москва, 2002.
2. Р.Н. Назаров, Б.Т.Тошпулатов, А.Д. Дусумбетов. Алгебра ва сонлар назарияси Тошкент, Ўқитувчи. II қисм, 1995.
3. J. H.Xoijiyev, A.S. Faynleb. Algebra va sonlar nazariyasi kursi, Toshkent, O'zbekiston, 2001.
4. Kenneth Kuttler. Elementary linear algebra. 2012, Ventus Publishing Aps, ISBN 978-87-403-0018-5.
5. Shukurovich, Madrahimov Shuhratjon, and Madrahimova Mahfuza Ahmedovna. "Measures For Monitoring And Evaluation Of Power Activity In Higher Education." JournalNX: 423-426.
6. Madrakhimov, Shukhrat Shukurovich, and Mahfuza Akhmedovna Madrakhimova. «A HERO WHO SAW THE WAR!».» 75-летию Победы Великого народа посвящается: Люди. События. Факты. 2020.
7. Madrakhimova Mahfuza Akhmedovna, and Maftuna Islomjon qizi Yakubjonova. "Criteria of monitoring and evaluation for educational activities."// Scientific Bulletin of Namangan State University 1.6 (2019): 346-347.
8. Ummatova, Mahbuba, and Temurbek Yoqubov. "Talabalar mustaqil ishlari va uni bajarishni o'rgatish metodikasidan". // Talqin va tadqiqotlar 1.22 (2023).
9. Axmedovna, Ummatova Mahbubaxon, Gofurova Mavjuda Aliyevna, and Yakubov Temurbek G'ulomjon o'g. "The sufficiency conditions for a function that is continuous over each variable to be continuous over both variables." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.12 (2023): 1201-1204.
10. Axmedovna, Ummatova Maxbubaxon, and Savriddinova Madinaxon. "Matematikani o'qitishni takomillashtirishda mantiqiy testlardan foydalanish." // Interdiscipline innovation and scientific research conference. Vol. 2. No. 15. 2023.
11. Akhmedovna, Ummatova Makhbuba. "From the methodology of using nonstandard tests in the design of practical training on number theory." // Genius Repository 27 (2023): 17-22.
12. Akhmedovna, Ummatova Makhbuba. "Teaching of Numerical Systems and Their Extensions." // Genius Repository 27 (2023): 23-28.
13. Maxbubaxon, Ummatova, Muydinjanov Davlatjon, and Nematov Bexruzбек. "Affin koordinatalar sistemasida nuqtani koordinata o'qlariga nisbatan simmetrik bo'lgan nuqtaning koordinatalarini topish usullari." // Innovative developments and research in education 2.24 (2023): 329-333.
14. Axmedovna, Ummatova Mahbuba. "Using anti-symmetrical ponyns in solving elementary mathematics problems." // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 507-509.
15. Sulaymonov, M. M., and M. A. Ummatova. "Kasr tartibli differensial operator ishtirok etgan integro-differensial tenglamalar uchun integral shartli masalalar." // Экономика и социум. 6-2 (109) (2023): 526-530.

16. Ummatova Maxbuba. "Matematikani o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish". // *Science web academic papers collection* (2023).
17. Ummatova Maxbuba. "Bo'linish belgilari, sonlarning umumiy bo'luvchisi va karrali mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotni loyihalashda nostandart testlardan foydalanish metodikasidan". // *Science web academic papers collection* (2023).
18. Ummatova M., and M. Yakubjanova. "About the history of complex numbers."
19. Ummatova Mahbuba Axmedovna, and Olimaxon Oxunjonovna Rahmonova. "Elementar matematikada antisimmetrik ko 'phadlar". *International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century*. Vol. 1. No. 10. 2022.
20. Axmedovna, Ummatova Mahbuba, and Ilhomjonova Shahnozaxon Ilhomjonovna. "Talimda biologiya va matematika fanlarining ozaro aloqasi haqida". // *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali* 2.12 (2022): 816-817.
21. Ummatova, Mahbuba Axmedovna, and Abdurahim Tursunboyevich Mamatqulov. "AL-Xorazmiy asarlarining amaliy ahamiyati haqida." // *International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century*. Vol. 1. No. 10. 2022.
22. Ahmedovna, Ummatova Mahbuba, and Esonov Munavvarjon Mukimjonovich. "Methodology of performing practical independent work." *Open Access Repository* 8.12 (2022): 171-176.
23. Nosirovich, Nosirov Sobirzhon, and Ummatova Makhbuba Ahmedovna. "Automorphism of numerical systems." *Open Access Repository* .12 (2022): 197-201.
24. Ummatova, M. A. "Didactical and practical functions of math class." // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 259-262.

PARABOLO-GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMA UCHUN 3-TUR INTEGRAL SHARTLI MASALA HAQIDA

Xalilov Qobiljon Solijonovich,

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
qshalilov@gmail.com

Xolmatova Robiyaxon Xasanboy qizi,

Farg‘ona davlat universiteti magistranti
xolmatovarobiyaxon77@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikkinchi tartibli singulyar koeffitsiyent qatnashgan parabolo-giperbolik tipdagi tenglama uchun uchinchi tur integral shartli masala o‘rganilgan. Masala maxsus sohada qo‘yilib, uning yechimi mavjudligi va yagonaligi integral tenglamalar nazariyasi asosida isbotlangan. Tadqiqot jarayonida masala Volterra va Abel tipidagi integral tenglamalarga keltirilib, ularning xossalari yordamida yechimning aniqlanishi asoslab berilgan. Shuningdek, yechimni ifodalashda Grin funksiyasi va maxsus funksiyalar, xususan, Mittag–Leffler funksiyasidan foydalanilgan. Olingan natijalar parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun integral shartli masalalarni chuqurroq o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: parabolo-giperbolik tenglama, integral shart, Volterra integral tenglamasi, Abel integral tenglamasi, Mittag – Leffler funksiyasi, integro- differensial tenglamalari, Grin funksiyasi.

ЗАДАЧА С ИНТЕГРАЛЬНЫМ УСЛОВИЕМ ТРЕТЬЕГО РОДА ДЛЯ ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО УРАВНЕНИЯ

Аннотация. В данной статье исследуется задача с интегральным условием третьего рода для уравнения второго порядка параболо-гиперболического типа с сингулярным коэффициентом. Задача рассматривается в специальной области, а существование и единственность её решения доказываются с использованием теории интегральных уравнений. В процессе исследования задача сводится к интегральным уравнениям типа Вольтерра и Абеля, и их свойства используются для обоснования нахождения решения. Кроме того, для представления решения применяются функция Грина и специальные функции, в частности функция Миттага–Леффлера. Полученные результаты имеют важное значение для более глубокого изучения задач с интегральными условиями для уравнений параболо-гиперболического типа.

Ключевые слова: параболо-гиперболическое уравнение, интегральное условие, интегральное уравнение Вольтерра, интегральное уравнение Абеля, функция Миттага–Леффлера, интегро-дифференциальные уравнения, функция Грина.

THIRD-KIND INTEGRAL CONDITION PROBLEM FOR A PARABOLIC-HYPERBOLIC EQUATION

Abstract. This article investigates a third-type integral boundary value problem for a second-order parabolic-hyperbolic equation with a singular coefficient. The problem is formulated in a special domain, and the existence as well as uniqueness of its solution are proven using the theory of integral equations. In the course of the study, the problem is reduced to Volterra and Abel type integral equations, and their properties are used to justify the determination of the solution. In addition, Green’s function and special functions, in particular the Mittag–Leffler function, are applied to represent the solution. The obtained results are important for a deeper study of integral condition problems for parabolic-hyperbolic type equations.

Keywords: Parabolic-hyperbolic equation, integral condition, Volterra integral equation, Abel integral equation, Mittag–Leffler function, integro-differential equations, Green’s function.

Kirish. Aralash turdagi tenglamalarni o‘rganish XX asrning o‘rtalaridan boshlab shakllana boshlagan bo‘lib, bu yo‘nalishda respublikamiz hamda xorijiy olimlar tomonidan turli masalalar ilgari surilgan va ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Hozirgi kunda ham aralash turdagi tenglamalar bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish jadal sur‘atlarda davom etmoqda. Ayniqsa, xususiyl hosilali differensial tenglamalar uchun integral shartli masalalarga bo‘lgan qiziqish tadqiqotchilar orasida tobora ortib bormoqda.

O'tgan davrda parabolo-giperbolik tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalarni bayon qilish va o'rganish bo'yicha A.M.Naxushev, V.A.Vragov, N.Y.Kapustin, M.S.Saloxiddinov, T.D.Jo'rayev, Y.P.Apakov, U.I.Boltayeva, A.S. Berdishev, V.A.Eleev, B.Islomov, E.T.Karimov, O.A.Repin, K.B.Sabitov, M.A. Sadibekov, A.Sopuyev, J.O.Taxirov, A.K.Urinov, T.G.Ergashov va boshqalar tomonidan muhim ilmiy natijalar olindi.

10. J. K. Hale and S. M. Verduyn Lunel, *Introduction to Functional Differential Equations*, Springer, New York, 1993.
11. R. Bellman and K. L. Cooke, *Differential-Difference Equations*, Academic Press, New York, 1963.

HAQIQIY KO'RSATKICHLI BERNULLI TENGSIKZLIGINING KVADRATIK KUCHAYTIRILGAN VARIANTLARI VA ULARNING KO'P O'ZGARUVCHILI UMUMLASHMALARI

Yodgarov Samat Jo'rayevich,

Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi

Abdurahmatova Mohidil Olim qizi,

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi

Omonov Olim Isoqovich,

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

anoraolimovna2007@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada haqiqiy ko'rsatkichli klassik Bernulli tengsizligining kvadratik hadlar yordamida kuchaytirilgan variantlari tadqiq etiladi. Xususan, $(1+t)^\alpha \geq 1 + \alpha t + Ct^2$ ko'rinishdagi tengsizlik uchun optimal konstanta masalasi o'rganiladi. Parametr $\alpha \geq 2$ bo'lgan holatda tengsizlikning optimal konstantasi $C_\alpha^{\max} = \alpha - 1$ ekanligi qat'iy isbotlanadi. Shuningdek, tadqiqot doirasida ushbu tengsizlikning ko'p o'zgaruvchili umumlashmalari ham keltirib chiqariladi.

Kalit so'zlar: bernulli tengsizligi, optimal konstanta, kvadratik kuchaytirish, haqiqiy ko'rsatkich, ko'p o'zgaruvchili umumlashma.

КВАДРАТИЧНЫЕ УСИЛЕНИЯ НЕРАВЕНСТВ БЕРНУЛЛИ С ВЕЩЕСТВЕННЫМИ ПОКАЗАТЕЛЯМИ И ИХ МНОГОМЕРНЫЕ ОБОБЩЕНИЯ

Аннотация. В данной статье исследуются квадратичные усиления классического неравенства Бернулли с вещественным показателем. В частности, рассматривается задача определения оптимальной константы в неравенстве вида $(1+t)^\alpha \geq 1 + \alpha t + Ct^2$. Строго доказано, что при $\alpha \geq 2$ оптимальная константа имеет вид $C_\alpha^{\max} = \alpha - 1$. Кроме того, в рамках настоящего исследования получены многомерные обобщения данного неравенства.

Ключевые слова: неравенство Бернулли, оптимальная константа, квадратичное усиление, вещественный показатель, многомерное обобщение.

QUADRATIC REFINEMENTS OF BERNOULLI INEQUALITIES WITH REAL EXPONENTS AND THEIR MULTIVARIATE GENERALIZATIONS

Abstract. This paper investigates quadratic refinements of the classical Bernoulli inequality with a real exponent. In particular, the problem of determining the optimal constant in the inequality $(1+t)^\alpha \geq 1 + \alpha t + Ct^2$ is studied. For the parameter range $\alpha \geq 2$, it is rigorously proven that the optimal constant is given by $C_\alpha^{\max} = \alpha - 1$. Furthermore, multivariate generalizations of this inequality are derived within the scope of this study.

Keywords: Bernoulli inequality, optimal constant, quadratic refinement, real exponent, multivariate generalization.

Kirish. Klassik analizda funksiyalarning asimptotik xulqini hamda ularning chiziqli yaqinlashishdan og'ishlarini baholashda Bernulli tengsizligi fundamental ahamiyat kasb etadi. Ushbu tengsizlik dastlab J.Bernulli nomi bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik ko'plab matematiklar tomonidan umumlashtirilgan va turli yo'nalishlarda rivojlantirilgan. Klassik ko'rinishda Bernulli tengsizligi

$$(1+x)^n \geq 1 + nx \tag{1}$$

ko'rinishda ifodalanadi, bu yerda $x > -1$ va $n \in \mathbb{N}$. Mazkur tengsizlikning analitik xossalari D.S.Mitrinovich, J. E. Pecharich va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida batafsil o'rganilgan [1].

Ushbu tengsizlik ixtiyoriy haqiqiy ko'rsatkichlar uchun umumlashtirilganda, ko'rsatkichning qiymatiga qarab tengsizlik ishorasi o'zgarishi kuzatiladi.

1-Teorema. Faraz qilaylik, $x > -1$ ($x \neq 0$) va $\alpha \in \mathbb{R}$ bo'lsin. U holda $[1, 2]$:

i) Agar $\alpha < 0$ yoki $\alpha > 1$ bo'lsa, u holda $(1+x)^\alpha > 1+\alpha x$ qat'iy tengsizlik o'rinli bo'ladi.

ii) Agar $0 < \alpha < 1$ bo'lsa, tengsizlik teskarisiga o'zgaradi: $(1+x)^\alpha < 1+\alpha x$.

So'nggi yillarda Bernulli tengsizligining yangi isbotlari va yanada kuchliroq variantlari ishlab chiqilmoqda. Xususan, Christophe Chesneau tomonidan 2024-yilda Bernulli tengsizligi uchun cheksiz ko'paytma asosidagi yangi yondashuv taklif qilindi [4]. Ushbu yondashuv Seidel formulasi yordamida

$$\frac{\alpha x}{(1+x)^\alpha - 1} = \prod_{k=1}^{\infty} \frac{1+(1+x)^{2^{-k}}}{1+(1+x)^{2^{2-k}}} \quad (2)$$

ko'rinishdagi yangi cheksiz ko'paytma yoyilmasini hosil qiladi va undan Bernulli tengsizligi tabiiy ravishda kelib chiqadi. Muallif, shuningdek, tengsizlikning yangi kuchaytirilgan variantlarini ham keltirgan.

Bernulli tengsizligi va uning umumlashmalari matematik analizda funksiyalarni baholash, qatorlarning yaqinlashuvini tekshirish, differensial tenglamalarda yechimlarni baholash hamda ehtimollar nazariyasida limit jarayonlarni o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli ushbu tengsizlik nafaqat klassik analizning fundamental natijalaridan biri, balki zamonaviy matematik tadqiqotlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – haqiqiy ko'rsatkichli klassik Bernulli tengsizligini kvadratik hadlar yordamida global kuchaytirish, parametr $\alpha \geq 2$ bo'lgan holatda asimptotik og'ishni aniqlovchi eng katta mumkin bo'lgan (optimal) $C_{\alpha}^{\max} = \alpha - 1$ konstantasini analitik jihatdan qat'iy isbotlash hamda olingan natijalarni ko'p o'zgaruvchili umumlashmalar ko'rinishiga o'tkazishdan iboratdir.

Quyidagi teorema haqiqiy ko'rsatkichli Bernulli tengsizligining optimal konstanta yordamida global kvadratik aniqligini ta'minlaydi.

2-teorema. Agar $\alpha \geq 2$ va $t > -1$ bo'lsa, u holda quyidagi tengsizlik o'rinli:

$$(1+t)^\alpha \geq 1 + \alpha t + (\alpha - 1)t^2. \quad (3)$$

Isbot. Quyidagi funksiyani qaraymiz:

$$H(t) = (1+t)^\alpha - 1 - \alpha t - (\alpha - 1)t^2. \quad (4)$$

Ushbu funksiyaning $H(t) \geq 0$ ekanligini ko'rsatishimiz kerak. Ma'lumki, $H(0) = 0$. Endi funksiyaning birinchi va ikkinchi tartibli hosilalarni hisoblaymiz:

$$H'(t) = \alpha(1+t)^{\alpha-1} - \alpha - 2(\alpha - 1)t,$$

$$H''(t) = \alpha(\alpha - 1)(1+t)^{\alpha-2} - 2(\alpha - 1).$$

Demak,

$$H''(t) = (\alpha - 1)[\alpha(1+t)^{\alpha-2} - 2].$$

1-hol: $t \geq 0$ bo'lsin. Bu holda $1+t \geq 1$ bo'ladi. Chunki $\alpha \geq 2$, demak

$$(1+t)^{\alpha-2} \geq 1.$$

Shuning uchun:

$$H''(t) \geq (\alpha - 1)(\alpha - 2) \geq 0. \quad (5)$$

Demak, $H'(t)$ o'suvchi funksiya bo'ladi. Bundan tashqari $H'(0) = 0$ bo'lganligidan $H'(t) \geq 0$ ($t \geq 0$) bo'ladi.

Demak, $H(t)$ ham o'suvchi va $H(0) = 0$ ekanligidan:

$$H(t) \geq 0, \quad t \geq 0. \quad (6)$$

bo'ladi.

2-hol: $-1 < t < 0$ bo'lsin. Tengsizlikni polinom tipidagi shaklga keltirish uchun $\lambda = 1+t$ almashtirishni kiritamiz. Shunda $0 < \lambda < 1$ va $t = \lambda - 1$ bo'ladi.

Quyidagi tengsizlikni isbotlashimiz kerak:

$$(1+t)^\alpha \geq 1 + \alpha t + (\alpha - 1)t^2 \quad (7)$$

Ushbu tengsizlikka $t = \lambda - 1$ ni quysak quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\lambda^\alpha \geq 1 + \alpha(\lambda - 1) + (\alpha - 1)(\lambda - 1)^2. \quad (8)$$

(8) ni o'ng tomonini soddalashtiramiz:

$$1 + \alpha(\lambda - 1) + (\alpha - 1)(\lambda - 1)^2 = (\alpha - 1)\lambda^2 + (2 - \alpha)\lambda. \quad (9)$$

Demak, quyidagini isbotlashimiz kerak:

$$\lambda^\alpha \geq (\alpha - 1)\lambda^2 + (2 - \alpha)\lambda. \quad (10)$$

Buning uchun quyidagi funktsiyani qaraymiz:

$$u_\alpha(\lambda) = \lambda^\alpha - (\alpha - 1)\lambda^2 - (2 - \alpha)\lambda. \quad (11)$$

Buni quyidagicha yozamiz:

$$u_\alpha(\lambda) = \lambda(\lambda^{\alpha-1} - (\alpha - 1)\lambda + \alpha - 2). \quad (12)$$

Qavs ichidagini ifodani belgilaymiz:

$$v_\alpha(\lambda) = \lambda^{\alpha-1} - (\alpha - 1)\lambda + \alpha - 2. \quad (13)$$

Endi $v_\alpha(\lambda)$ ning hosilasini topamiz:

$$v'_\alpha(\lambda) = (\alpha - 1)\lambda^{\alpha-2} - (\alpha - 1) = (\alpha - 1)(\lambda^{\alpha-2} - 1). \quad (14)$$

Chunki $0 < \lambda < 1$ va $\alpha \geq 2$ bo'lgani uchun $\lambda^{\alpha-2} \leq 1$.

Demak,

$$v'_\alpha(\lambda) \leq 0. \quad (15)$$

Shuning uchun $v_\alpha(\lambda)$ kamayuvchi funktsiya. Bundan tashqari,

$$v_\alpha(1) = 1 - (\alpha - 1) + \alpha - 2 = 0. \quad (16)$$

Demak, $0 < \lambda < 1$ da $v_\alpha(\lambda) \geq v_\alpha(1) = 0$. Shunday qilib, $v_\alpha(\lambda) \geq 0$. $\lambda > 0$ bo'lgani uchun $u_\alpha(\lambda) = \lambda v_\alpha(\lambda) \geq 0$ bo'ladi. Ya'ni, $\lambda^\alpha \geq (\alpha - 1)\lambda^2 + (2 - \alpha)\lambda$.

Demak,

$$H(t) \geq 0, \quad -1 < t < 0.$$

Shu bilan $-1 < t < 0$ hol ham isbotlandi. Teorema isbotlandi.

1-ta'rif. Agar

$$(1+t)^\alpha \geq 1 + \alpha t + Ct^2$$

tengsizlik barcha $t > -1$ lar uchun bajarilib, $C > C_\alpha^{\max}$ bo'lgan har qanday konstanta uchun ushbu tengsizlik kamida bitta nuqtada buzilsa, $C_\alpha^{\max}$ konstanta optimal konstanta deyiladi,

3-teorema. Faraz qilaylik, $\alpha \geq 2$. Agar shunday $C \in \mathbb{R}$ konstanta mavjud bo'lib,

$$(1+t)^\alpha \geq 1 + \alpha t + Ct^2, \quad t > -1 \quad (17)$$

tengsizlik bajarilsa, u holda $C \leq \alpha - 1$ ($C_\alpha^{\max} = \alpha - 1$) bo'ladi.

Isbot. Optimal konstantani aniqlash uchun barcha $t > -1$ ($t \neq 0$) lar uchun quyidagi funktsiyani kiritamiz:

$$f_\alpha(t) = \frac{(1+t)^\alpha - 1 - \alpha t}{t^2}. \quad (18)$$

Agar asosiy

$$(1+t)^\alpha \geq 1 + \alpha t + Ct^2$$

tengsizlik barcha $t > -1$ lar uchun o'rinli bo'lsa, u holda $C \leq f_\alpha(t)$ shart bajarilishi kerak. Demak, barcha konstantalar uchun quyidagi munosabat o'rinli:

$$C \leq \inf_{t > -1, t \neq 0} f_\alpha(t). \quad (19)$$

Shuning uchun optimal konstantani topish masalasi $f_\alpha(t)$ funktsiyasining infimumini aniqlashga keladi.

Tekshirishni osonlashtirish maqsadida $u = 1 + t$ almashtirish kiritamiz. U holda $u > 0$ va $t = u - 1$ bo'ladi. Natijada funktsiya quyidagi ko'rinishni oladi:

$$f_\alpha(u) = \frac{u^\alpha - \alpha(u-1) - 1}{(u-1)^2} = \frac{u^\alpha - \alpha u + \alpha - 1}{(u-1)^2}. \quad (20)$$

Funksiyaning monotonligini tekshirish uchun u bo'yicha hosila olamiz:

$$\begin{aligned} \frac{d}{du} f_{\alpha}(u) &= \frac{(\alpha u^{\alpha-1} - \alpha)(u-1)^2 - (u^{\alpha} - \alpha u + \alpha - 1) \cdot 2(u-1)}{(u-1)^4} = \\ &= \frac{(\alpha u^{\alpha-1} - \alpha)(u-1) - 2(u^{\alpha} - \alpha u + \alpha - 1)}{(u-1)^3} = \\ &= \frac{(\alpha - 2)u^{\alpha} - \alpha u^{\alpha-1} + \alpha u + 2 - \alpha}{(u-1)^3} = \frac{H_{\alpha}(u)}{(u-1)^3}, \end{aligned} \quad (21)$$

bu yerda suratdagi ifoda quyidagicha belgilanadi:

$$H_{\alpha}(u) = (\alpha - 2)u^{\alpha} - \alpha u^{\alpha-1} + \alpha u + 2 - \alpha.$$

Endi $H_{\alpha}(u)$ funksiyasining ishorasini tahlil qilamiz. Avvalo, funksiya va uning birinchi tartibli hosilasi $H'_{\alpha}(u) = \alpha[(\alpha - 2)u^{\alpha-1} - (\alpha - 1)u^{\alpha-2} + 1]$ ning $u = 1$ nuqtadagi qiymatlarini tekshiramiz:

$$H_{\alpha}(1) = 0, \quad H'_{\alpha}(1) = 0. \quad (22)$$

Funksiyaning ikkinchi hosilasini hisoblaymiz:

$$H''_{\alpha}(u) = \alpha(\alpha - 1)(\alpha - 2)u^{\alpha-3}(u - 1).$$

Teorema shartiga ko'ra $\alpha > 2$ bo'lgani uchun $\alpha(\alpha - 1)(\alpha - 2) > 0$ bo'ladi. U holda ikkinchi hosilaning ishorasi faqat $(u - 1)$ ga bog'liq:

$$a1) 0 < u < 1 \Rightarrow H''_{\alpha}(u) < 0,$$

$$b1) u > 1 \Rightarrow H''_{\alpha}(u) > 0.$$

Bundan xulosa qilish mumkinki, $H'_{\alpha}(u)$ funksiya $(0, 1)$ oraliqda qat'iy kamayuvchi, $(1, \infty)$ oraliqda esa qat'iy o'suvchi. Biroq $H'_{\alpha}(1) = 0$ bo'lganligi sababli, $u = 1$ nuqta funksiyaning global minimumi hisoblanadi. Demak:

$$a2) 0 < u < 1 \Rightarrow H'_{\alpha}(u) > 0,$$

$$b2) u > 1 \Rightarrow H'_{\alpha}(u) > 0.$$

Natijada $H_{\alpha}(u)$ funksiya butun $(0, \infty)$ oraliqda qat'iy o'suvchi ekanligi ma'lum bo'ladi. $H_{\alpha}(1) = 0$ shartidan foydalanib, uning ishorasini aniqlaymiz:

$$a3) 0 < u < 1 \Rightarrow H_{\alpha}(u) < 0,$$

$$b3) u > 1 \Rightarrow H_{\alpha}(u) > 0.$$

Endi maxrajdagi $(u - 1)^3$ ifodaning ishorasini hisobga olamiz:

$$a4) 0 < u < 1 \Rightarrow (u - 1)^3 < 0,$$

$$b4) u > 1 \Rightarrow (u - 1)^3 > 0.$$

Shuning uchun har ikkala holatda ham surat va maxraj bir xil ishoraga ega bo'ladi:

$$\frac{d}{du} f_{\alpha}(u) > 0. \quad (23)$$

Demak, $\alpha > 2$ bo'lganda $f_{\alpha}(t)$ funksiyasi $t \in (-1, \infty)$ oraliqda qat'iy o'suvchi bo'ladi.

Funksiya qat'iy o'suvchi bo'lgani sababli, uning infimumi aniqlanish sohasining chap chegarasida hosil bo'ladi. Chegaraviy holatni hisoblaymiz:

$$\lim_{t \rightarrow -1+0} f_{\alpha}(t) = \lim_{s \rightarrow -1+0} \frac{(1+t)^{\alpha} - 1 - \alpha t}{t^2}.$$

Bu yerda $t \rightarrow -1+0$ da $(1+t)^{\alpha} \rightarrow 0$, $(-1-\alpha t) \rightarrow \alpha - 1$ va $t^2 \rightarrow 1$. Shuning uchun:

$$\inf_{t > -1, t \neq 0} f_{\alpha}(t) = \lim_{t \rightarrow -1+0} f_{\alpha}(t) = \alpha - 1.$$

Demak, $C \leq \inf_{t > -1, t \neq 0} f_{\alpha}(t)$ shartga ko'ra $C \leq \alpha - 1$.

Boshqa tomondan, 2-teoremada $C = \alpha - 1$ bo'lganda ushbu

$$(1+t)^{\alpha} \geq 1 + \alpha t + (\alpha - 1)t^2$$

tengsizlik isbotlangan. Shuning uchun,

$$C_{\alpha}^{\max} = \alpha - 1.$$

Qo‘shimcha ravishda, agar $\alpha = 2$ bo‘lsa, u holda funksiya doimiy qiymat qabul qiladi:

$$f_2(t) = \frac{(1+t)^2 - 1 - 2t}{t^2} = 1.$$

Bu holda ham $C_2^{\max} = 1 = \alpha - 1$ ekanligi o‘z tasdig‘ini topadi.

Demak, $\alpha - 1$ optimal konstanta hisoblanadi. Teorema isbotlandi.

1-natija. Faraz qilaylik, $\alpha \geq 2$, $\lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_n \in \mathbb{R}$ va $1 + \sum_{i=1}^n \lambda_i > 0$ bo‘lsin. U holda quyidagi tengsizlik o‘rinli:

$$\left(1 + \sum_{i=1}^n \lambda_i\right)^\alpha \geq 1 + \alpha \sum_{i=1}^n \lambda_i + (\alpha - 1) \left(\sum_{i=1}^n \lambda_i\right)^2 \quad (24)$$

Isbot. Agar $t = \lambda_1 + \lambda_2 + \dots + \lambda_n$ deb belgilasak, u holda shartga ko‘ra

$$1 + t > 0.$$

2-teoremaga ko‘ra, har qanday $t > -1$ uchun

$$(1+t)^\alpha \geq 1 + \alpha t + (\alpha - 1)t^2.$$

Endi t o‘rniga $\lambda_1 + \lambda_2 + \dots + \lambda_n$ ni qo‘yamiz. Natijada:

$$\left(1 + \sum_{i=1}^n \lambda_i\right)^\alpha \geq 1 + \alpha \sum_{i=1}^n \lambda_i + (\alpha - 1) \left(\sum_{i=1}^n \lambda_i\right)^2.$$

Natija isbotlandi.

2-natija. Agar $\alpha \geq 2$, $\lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_n \in \mathbb{R}$ va $1 + \sum_{i=1}^n \lambda_i > 0$ bo‘lsa, u holda quyidagi tengsizlik o‘rinli:

$$\left(1 + \sum_{i=1}^n \lambda_i\right)^\alpha \geq 1 + \alpha \sum_{i=1}^n \lambda_i + (\alpha - 1) \sum_{i=1}^n \lambda_i^2 + 2(\alpha - 1) \sum_{1 \leq i < j \leq n} \lambda_i \lambda_j. \quad (25)$$

Isbot. Ma’lumki,

$$\left(\sum_{i=1}^n \lambda_i\right)^2 = \sum_{i=1}^n \lambda_i^2 + 2 \sum_{1 \leq i < j \leq n} \lambda_i \lambda_j \quad (26)$$

Boshqa tomondan, 1-natija ga ko‘ra,

$$\left(1 + \sum_{i=1}^n \lambda_i\right)^\alpha \geq 1 + \alpha \sum_{i=1}^n \lambda_i + (\alpha - 1) \left(\sum_{i=1}^n \lambda_i\right)^2$$

Endi (26) tenglikni (24) ga qo‘ysak, quyidagini hosil qilamiz:

$$\left(1 + \sum_{i=1}^n \lambda_i\right)^\alpha \geq 1 + \alpha \sum_{i=1}^n \lambda_i + (\alpha - 1) \sum_{i=1}^n \lambda_i^2 + 2(\alpha - 1) \sum_{1 \leq i < j \leq n} \lambda_i \lambda_j$$

Natija isbotlandi.

Mazkur maqolada klassik Bernulli tengsizligining kvadratik kuchaytirilgan variantlari tadqiq qilindi. $\alpha \geq 2$ holatda

$$(1+t)^\alpha \geq 1 + \alpha t + (\alpha - 1)t^2$$

tengsizlikning o‘rinliliigi va $\alpha - 1$ konstantaning optimal ekanligi qat’iy isbotlandi. Shuningdek, ushbu tengsizlikning ko‘p o‘zgaruvchili umumlashmalari ham olindi. Olingan natijalar qavariq analiz, funksional analiz va operatorlar nazariyasida qo‘llanish imkoniyatiga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Mitrinović D. S., Pečarić J. E., Fink A. M. *Classical and New Inequalities in Analysis*. — Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1993.
2. Hardy G. H., Littlewood J. E., Pólya G. *Inequalities*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1952.
3. Beckenbach E. F., Bellman R. *Inequalities*. — Berlin: Springer-Verlag, 1961.

4. Chesneau C. *A new proof and refinements of Bernoulli's inequality* // *Mathematics*. — 2024. — Vol. 12, No. 5. — P. 1–12.
5. Azlarov T.A., Mansurov H. (1986, 1989). *Matematik analiz (1 va 2-qismlar)*. T.: O'qituvchi.
6. Sa'dullayev A., Mansurov H., Xudoyberganov G., & G'ulomov R. (1993, 1995). *Matematik analiz kursidan misol va masalalar to'plami (1 va 2-qismlar)*. T.: O'zbekiston.
7. Зорич, А. (1981). *Математический анализ (Т. 1–2)*. М.: Наука.
8. Ильин В.А., Садовничий В.А., Сендов Б.Х. (1979). *Математический анализ (Т. 1–2)*. М.: Наука.
9. Фихтенгольц Г.М. (1962). *Курс дифференциального и интегрального исчисления (Т. 1–3)*. М.: Физ-матгиз.
10. Демидович Б.П. (1972). *Сборник задач и упражнений по математическому анализу*. М.: Наука.
11. Кубрякцев Л.Д., Кумасов А.Д., Шеглов В.И., Шабунин М.И. (1984, 1986). *Сборник задач по математическому анализу (Т. 1–2)*. М.: Наука.
12. Виноградова И.А., Олехник С.Н., & Садовничий В.А. (1988). *Задачи и упражнения по математическому анализу (Т. 1)*. Издательство Московского Университета.

ИНТЕГРАЛЬНОЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ РЕШЕНИЯ ВЕКТОРНОГО УРАВНЕНИЯ ГЕЛЬМГОЛЬЦА В ОГРАНИЧЕННОЙ ОБЛАСТИ

*Эрмamatова Зухро Эрмamatовна,
и.о. доцента университета Зармед, PhD
Ахмадова Мадина Туйчибой кизи,
базовый докторант Самаркандского
государственного педагогического института
Эрмamatова Бибихожар Эрмamatовна,
магистрант Самаркандского государственного
университета имени Шарофа Рашидова*

Аннотация. При решении электромагнитных граничных задач важным является вывод интегральных представлений. В работе рассматривается задача аналитического продолжения, т.е. модифицированная интегральная формула Страттона-Чу для решения однородной системы уравнений Максвелла в ограниченной области. При этом используются электромагнитные поля как фундаментальные решения однородной системы уравнений Максвелла. Исключением векторов магнитного или электрического полей из системы уравнений Максвелла, приводим к векторному уравнению Гельмгольца для одного из этих полей. Тогда для решения векторного уравнения Гельмгольца справедлива интегральная формула. Учитывая тесную взаимосвязь между акустическими и электромагнитными волнами, строится приближённое решение этой задачи, основанное на методе матрицы Карлемана.

Ключевые слова: векторная уравнения Гельмгольца, интегральная формула, уравнения Максвелла, аналитическое продолжение.

INTEGRAL REPRESENTATION OF THE SOLUTION OF THE VECTOR HELMHOLTZ EQUATION IN BOUNDED DOMAIN

Abstract. When solving electromagnetic boundary value problems, deriving integral representations is important. This paper considers the problem of analytic continuation, i.e., a modified Stratton-Chu integral formula for solving a homogeneous system of Maxwell's equations in a bounded domain. In this case, electromagnetic fields are used as fundamental solutions to the homogeneous system of Maxwell's equations. By eliminating the vectors of either the magnetic or electric fields from the system of Maxwell's equations, we obtain a Helmholtz vector equation for one of these fields. Then, the integral formula for solving the Helmholtz vector equation is valid. Taking into account the close relationship between acoustic and electromagnetic waves, an approximate solution to this problem is constructed based on the Carleman matrix method.

Key words: vector Helmholtz equation, integral representation, Maxwell equation, analytic continuation.

CHEGARALANGAN SOHADA GELMGOLTS VEKTOR TENGLAMASI YECHIMINING INTEGRAL KO'RINISHI

Аннотация. Elektromagnit chegaraviy masalalarni yechishda integral tasvirlarni hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada analitik davom ettirish masalasi, ya'ni chegaralangan sohada bir jinsli Maksvell tenglamalari sistemasini yechimi uchun modifitsirlangan Stratton-Chu integral formulasi ko'rib chiqiladi. Elektromagnit maydonlar Maksvell tenglamalarining bir jinsli sistemasining fundamental yechimlari sifatida ishlatiladi. Maksvell tenglamalar sistemasidan magnit yoki elektr maydon vektorlarini chiqarib tashlab, biz ushbu maydonlardan biri uchun Gel'mgolts vektor tenglamasini hosil qilamiz. U holda, Gel'mgolts vektor tenglamasining yechimi uchun ham integral formula o'rinli bo'ladi. Akustik va elektromagnit to'lqinlar o'rtasidagi uzviy bog'lanshni hisobga olgan holda, bu masalaning taqribiy yechimi Karleman matritsasi usuli yordamida quriladi.

Калит so'zlar: Gel'mgolts vektor tenglamasi, integral tasvir, Maksvell tenglamasi, analitik davom.

Введение. Уравнение Гельмгольца представляет собой особый вид эллиптических уравнений, особенно важный в некоторых практических физических приложениях, связанных с распространением волн и вибрационными явлениями. Оно часто используется для описания [3]: вибрации конструкции, задачи акустической полости, радиационной волны, рассеяния волны, задачи теплопроводности в рёбрах, теории Дебая-Хюккеля, линеаризации уравнения Пуассона-Больцмана и других. В последнее время было проведено много исследований по проблеме Коши для уравнений Гельмгольца, например работы [12]–[15] относятся к аналитическим решениям; а [7]–[9], [4], [10] – к численным решениям. Для получения более обширной информации о задаче Коши для уравнения Гельмгольца можно обратиться к [9].

Пусть Ω – ограниченная односвязная область в трёхмерном пространстве R^3 с границей $\partial\Omega$, состоящей из компактной связной части T плоскости $y_3 = 0$ и гладкого куска поверхности S Ляпунова, лежащей в полупространстве $y_3 \geq 0$, $\bar{\Omega} = \Omega \cup \partial\Omega$, $\partial\Omega = S \cup T$.

Интегральная формула однородной системы уравнений Максвелла в ограниченной области

Цель исследования заключается в изучении задачи распространения волн в однородной изотропной среде R^3 с электрической проницаемостью ε , магнитной проницаемостью μ и проводимостью σ_1 .

В основе теории электромагнитных полей, изучаемых геофизиками, лежат уравнения Максвелла [2, с.38- 40]:

$$\nabla \times \vec{H} = \vec{j} + \vec{j}^e + \frac{\partial \vec{D}}{\partial t}, \quad (1)$$

$$\nabla \times \vec{E} = -\frac{\partial \vec{B}}{\partial t}, \quad (2)$$

$$\nabla \cdot \vec{B} = 0, \quad (3)$$

$$\nabla \cdot \vec{D} = q + q^e, \quad (4)$$

где $\vec{E}$, $\vec{D}$, $\vec{B}$ и $\vec{H}$ обычно называют

$\vec{E}$ – напряжённость электрического поля;

$\vec{D}$ – электрическая индукция;

$\vec{H}$ – напряжённость магнитного поля;

$\vec{B}$ – магнитная индукция;

∇ – дифференциальный оператор набла, при этом:

$$\nabla \times \vec{E} \equiv \text{rot } \vec{E} = \left(\frac{\partial E_3}{\partial x_2} - \frac{\partial E_2}{\partial x_3} \right) \vec{i} + \left(\frac{\partial E_1}{\partial x_2} - \frac{\partial E_2}{\partial x_1} \right) \vec{j} + \left(\frac{\partial E_2}{\partial x_1} - \frac{\partial E_1}{\partial x_2} \right) \vec{k}$$

означает ротор вектора $\vec{E}$;

$$\nabla \cdot \vec{E} \equiv \text{div } \vec{E} = \frac{\partial E_1}{\partial x_1} + \frac{\partial E_2}{\partial x_2} + \frac{\partial E_3}{\partial x_3} \text{ означает дивергенцию вектора } \vec{E}.$$

$$\nabla \times [\nabla \times \vec{E}] \equiv \text{rot rot } \vec{E}, \quad \nabla [\nabla \cdot \vec{E}] \equiv \text{grad div } \vec{E}, \quad \nabla \cdot \nabla \cdot \vec{E} = \nabla^2 \vec{E} \equiv \Delta \vec{E}.$$




Рисунок 1. Сферическая слоисто-однородная модель Земли

Из уравнений Максвелла (1)–(4) можно видеть, что электромагнитные свойства среды характеризуются тремя электромагнитными параметрами ε , μ и σ_1 .

Рассмотрим модель Земли радиуса R , построенную из однородных сферических слоёв с электропроводностью σ_{1j} (j – номер слоя). Земля окружена однородной проводящей атмосферой, электропроводность которой σ_0 (рис. 3). Модель возбуждается произвольно распределённым ионосферным током с плотностью J .

Электромагнитное поле $\vec{E}$, $\vec{H}$ в такой слоисто-однородной модели может быть описано с помощью двух скалярных функций U^H и U^E , удовлетворяющих уравнению Гельмгольца:

$$\Delta U^{H,E} + \lambda_i^2 U^{H,E} = 0,$$

где $\lambda_i = \sqrt{i\omega\mu_0\sigma_i}$, $\text{Re}\lambda_i > 0$.

Электромагнитную волну с частотой ω будем описывать векторами напряжённости электрического и магнитного полей:

$$\vec{E}(x,t) = (\varepsilon + i\sigma\omega)^{-1/2} \vec{E}(x) e^{-i\omega t}, \quad \vec{H}(x,t) = \mu^{-1/2} \vec{H}(x) e^{-i\omega t}.$$

Из системы уравнений Максвелла с произвольной зависимостью от времени:

$$\nabla \times \vec{E} + \mu \frac{\partial \vec{H}}{\partial t} = 0, \quad \nabla \times \vec{H} - \varepsilon \frac{\partial \vec{E}}{\partial t} = \sigma \vec{E} \quad (5)$$

имеем, что зависящие от пространственных координат части полей $\vec{E} = (E_1, E_2, E_3)$ и $\vec{H} = (H_1, H_2, H_3)$ удовлетворяют системе уравнений Максвелла в гармоническом режиме [5; стр. 123]:

$$\nabla \times \vec{E} - ik\vec{H} = 0; \quad \nabla \times \vec{H} + ik\vec{E} = 0, \quad (6)$$

где волновое число k задается выражением $k^2 = (\varepsilon + \frac{i\sigma_1}{\omega})\mu\omega^2$. Выберем знак величины k

так, чтобы выполнялось условие $\text{Im}k \geq 0$.

Определение 1. Вектор-функции $\vec{E}(y) = (E_1(y), E_2(y), E_3(y))$ и $\vec{H}(y) = (H_1(y), H_2(y), H_3(y))$ называются регулярными решениями системы (6) в Ω , если $E_i(y), H_i(y) \in C^1(\Omega) \cap C(\bar{\Omega})$, $i = 1, 2, 3$ и удовлетворяют системе (6).

Обозначим через $M(\Omega)$ пространство всех регулярных в Ω решений системы (2).

Задача 1. Выразить электромагнитные поля E, H в некоторой области Ω через значения E, H на внутренней стороне поверхности $\partial\Omega$, ограничивающей эту область.

Сформулируем следующие теоремы, отвечающие указанной задаче.

Теорема 1 ([11; стр. 124], [6; стр. 232-235]). Пусть $\vec{E}, \vec{H} \in M(\Omega)$. Тогда имеют место формулы Стрэттона-Чу:

$$\begin{aligned} \nabla \times \int_{\partial\Omega} [\vec{n}(y), \vec{E}(y)] \Phi_{\sigma}(y, x; k) dS_y - \frac{1}{ik} \nabla \times \nabla \times \int_{\partial\Omega} [\vec{n}(y), \vec{H}(y)] \Phi_{\sigma}(y, x; k) dS_y = \\ = \begin{cases} -\vec{E}(x), & x \in \Omega, \\ 0, & x \in R^3 \setminus \bar{\Omega}, \end{cases} \\ \nabla \times \int_{\partial\Omega} [\vec{n}(y), \vec{H}(y)] \Phi_{\sigma}(y, x; k) dS_y + \frac{1}{ik} \nabla \times \nabla \times \int_{\partial\Omega} [\vec{n}(y), \vec{E}(y)] \Phi_{\sigma}(y, x; k) dS_y = \\ = \begin{cases} -\vec{H}(y), & x \in \Omega, \\ 0, & x \in R^3 \setminus \bar{\Omega}, \end{cases} \end{aligned} \quad (7)$$

где $\Phi_{\sigma}(y, x; \lambda)$ определяется формулой [12]:

$$\Phi_{\sigma}(y, x; \lambda) = -\frac{1}{2\pi^2} \int_0^{\infty} \operatorname{Im} \left[\frac{e^{\sigma(i\sqrt{u^2 + \alpha^2} + y_3 - x_3)^2}}{i\sqrt{u^2 + \alpha^2} + y_3 - x_3} \right] \frac{ch(\lambda u)}{\sqrt{u^2 + \alpha^2}} du, \quad (8)$$

и, выделяя мнимую часть подынтегрального выражения в (8), получим:

$$2\pi^2 e^{\sigma x_3^2 + \sigma \alpha^2 - \sigma y_3^2} \cdot \Phi_{\sigma}(y, x; \lambda) = \int_0^{\infty} \frac{\varphi_{\sigma}(y, x; u)}{u^2 + r^2} e^{-\sigma u^2} ch(\lambda u) du, \quad (9)$$

где

$$\varphi_{\sigma}(y, x; u) = \cos \tau \sqrt{u^2 + \alpha^2} - (y_3 - x_3) \frac{\sin \tau \sqrt{u^2 + \alpha^2}}{\sqrt{u^2 + \alpha^2}}, \quad \tau = 2\sigma y_3. \quad (10)$$

Можно показать, что при преобразовании:

$$\begin{aligned} r = |y - x|, \quad r^2 = \alpha^2 + (y_3 - x_3)^2, \\ (y_3 - x_3 + i\sqrt{\alpha^2 + u^2})(y_3 - x_3 - i\sqrt{\alpha^2 + u^2}) = r^2 + u^2, \end{aligned}$$

и

$$\begin{aligned} -\operatorname{Im} \left(\frac{1}{y_3 - x_3 + i\sqrt{\alpha^2 + u^2}} \right) \frac{1}{\sqrt{\alpha^2 + u^2}} = \\ = -\frac{1}{2i\sqrt{\alpha^2 + u^2}} \left(\frac{1}{y_3 - x_3 + i\sqrt{\alpha^2 + u^2}} - \frac{1}{y_3 - x_3 - i\sqrt{\alpha^2 + u^2}} \right) = \frac{1}{r^2 + u^2}, \\ \frac{1}{2\pi^2} \int_0^{\infty} \frac{ch(\lambda u)}{r^2 + u^2} du = \frac{1}{2\pi^2} \int_0^{\infty} \frac{\cos(i\lambda u)}{r^2 + u^2} du = \frac{1}{4\pi} \frac{e^{-i\lambda|y-x|}}{|y-x|} \equiv \Phi_0(y, x; \lambda), \end{aligned} \quad (11)$$

то есть, функция $\Phi_{\sigma}(y, x; \lambda)$ является классическим фундаментальным решением уравнения Гельмгольца:

$$\Phi_{\sigma}(y, x; \lambda) = -\frac{1}{2\pi^2} \int_0^{\infty} \operatorname{Im} \left[\frac{1}{i\sqrt{u^2 + \alpha^2} + y_3 - x_3} \right] \frac{ch(\lambda u)}{\sqrt{u^2 + \alpha^2}} du =$$

$$= \frac{1}{4\pi} \frac{e^{-i\lambda|y-x|}}{|y-x|} \equiv \Phi_0(y, x; \lambda). \quad (12)$$

Используя эти тождества, мы получим выражение для классического фундаментального решения уравнения Гельмгольца.

Из результатов работы [12] вытекает

Определение 2. Функция $\Phi_\sigma(y, x; \lambda)$, определяемая (8), называется функцией Карлемана, если представима в виде:

$$C_m \Phi_\sigma(y, x; \lambda) = \Phi_0(y, x; \lambda) + g_{\lambda, \sigma}(y, x), \quad (13)$$

где $g_\lambda(y, x)$ – функция класса $C^\infty(R^3)$ и удовлетворяющая уравнению Гельмгольца по переменной y при любом $\sigma \geq 0$, $\Phi_0(y, x; \lambda)$ – классическое фундаментальное решение уравнения Гельмгольца:

$$\Delta \left(\frac{\partial}{\partial y} \right) \Phi_0 - \lambda^2 \Phi_0 = 0, \quad y \in \Omega, \\ \int_T \left(|\Phi_\sigma| + \left| \frac{\partial \Phi_\sigma}{\partial n} \right| \right) dS_y \leq C(\lambda, \Omega) \sigma \exp(-\sigma x_n^2), \quad (14)$$

где $C(\lambda, \Omega)$ – постоянная, $\Phi_0(y, x; k)$ является классическим фундаментальным решением уравнения Гельмгольца, то есть

$$\Phi_0(y, x; k) = \frac{1}{4\pi r} e^{-ikr}, \quad r = |y - x| = \sqrt{(y_1 - x_1)^2 + (y_2 - x_2)^2 + (y_3 - x_3)^2}.$$

Эти формулы, предложенные Х.Хэнлом [16; стр.35] называются *модифицированными интегральными формулами Стрэттона-Чу*.

Пусть $\vec{a} \in R^3$ представляет собой постоянный вектор. Тогда

$$\vec{E}_m(x) := \nabla_x \times \vec{a} \Phi_\sigma(y, x), \\ \vec{H}_m(x) := \frac{1}{ik} \nabla_x \times \vec{E}_m(x), \quad x \in R^3 \setminus \{y\}, \quad (15)$$

представляет собой электромагнитное поле магнитного диполя расположенного в точке $y \in R^3$, и удовлетворяет системе уравнений Максвелла (6). Аналогично

$$\vec{H}_e(x) := \nabla_x \times \vec{a} \Phi_\sigma(y, x), \\ \vec{E}_e(x) := \frac{1}{ik} \nabla_x \times \vec{H}_e(x), \quad x \in R^3 \setminus \{y\}, \quad (16)$$

представляет собой электромагнитное поле, возбуждаемое электрическим диполем. Формула (7) дает представление для произвольного решения уравнений Максвелла в виде электрических и магнитных диполей, распределенных по граничной поверхности.

Согласно [1] имеем

Определение 3. Электромагнитные поля (15) и (16) называются фундаментальными решениями системы уравнений Максвелла (6).

Определение 4. Матрицами фундаментальных решений системы (2) называются симметричная матрица $E(y, x; k)$ для вектора $\vec{E}(x)$:

$$E(y, x; k) = \|E_{ij}(y, x; k)\|_{3 \times 3}, \quad (17)$$

где $E_{ij}(y, x; k) = \frac{\partial^2 \Phi_0(y, x; k)}{\partial x_i \partial x_j} + \delta_{ij} k^2 \Phi_0(y, x; k)$, и антисимметричная матрица

$H(y, x; k)$ для вектора $\vec{H}(x)$:

$$H(y, x; k) = \begin{vmatrix} 0 & \frac{\partial \Phi_0(y, x; k)}{\partial x_3} & -\frac{\partial \Phi_0(y, x; k)}{\partial x_2} \\ -\frac{\partial \Phi_0(y, x; k)}{\partial x_3} & 0 & \frac{\partial \Phi_0(y, x; k)}{\partial x_1} \\ \frac{\partial \Phi_0(y, x; k)}{\partial x_2} & -\frac{\partial \Phi_0(y, x; k)}{\partial x_1} & 0 \end{vmatrix}, \quad (18)$$

где δ_{ij} - символ Кронекера.

С помощью матриц $E(y, x; k)$ и $H(y, x; k)$ формулы Стрэттона-Чу (7) можно написать в виде:

$$\begin{aligned} \vec{E}(x) &= - \int_{\partial\Omega} H(y, x; k) [\vec{n}(y), \vec{E}(y)] dS_y + \frac{1}{ik} \int_{\partial\Omega} E(y, x; k) [\vec{n}(y), \vec{H}(y)] dS_y, \quad x \in \Omega, \\ \vec{H}(x) &= - \int_{\partial\Omega} H(y, x; k) [\vec{n}(y), \vec{H}(y)] dS_y - \frac{1}{ik} \int_{\partial\Omega} E(y, x; k) [\vec{n}(y), \vec{E}(y)] dS_y, \quad x \in \Omega. \end{aligned}$$

Интегральная формула векторной уравнений Гельмгольца в ограниченной области

Рассматривается задача аналитического продолжения решения векторного уравнения Гельмгольца в пространственной ограниченной области по ее значениям на части границы этой области, т.е. задача Коши. При решении электромагнитных граничных задач является важным вывод интегральных представлений. Если исключить векторы или магнитного, или электрического полей из системы уравнений Максвелла (1), то это приводит к векторному уравнению Гельмгольца для одного из этих полей. Учитывая тесную взаимосвязь между акустическими и электромагнитными волнами строится приближённое решение этой задачи, основанное на методе матрицы Карлемана.

Справедливо следующее утверждение: если декартовы компоненты решений системы уравнений Максвелла дважды непрерывно дифференцируемы, то выполняется тождество:

$$\nabla \times [\nabla \times \vec{E}] \vec{E} = -\Delta \vec{E} + \nabla [\nabla \cdot \vec{E}].$$

Теорема 2. ([5; стр. 126]). Пусть $\vec{E}$ и $\vec{H}$ – решения уравнений Максвелла. Тогда дивергенции $\vec{E}$ и $\vec{H}$ равны нулю, и они удовлетворяют векторным уравнениям Гельмгольца

$$\Delta \vec{E} + k^2 \vec{E} = 0, \quad \Delta \vec{H} + k^2 \vec{H} = 0.$$

Обратно, пусть $\vec{E}$ (или $\vec{H}$) является решением векторного уравнения Гельмгольца, удовлетворяющим условию $\nabla \cdot \vec{E} = 0$ (или $\nabla \cdot \vec{H} = 0$). Тогда $\vec{E}$ и $\vec{H} := \frac{1}{ik} \nabla \times \vec{E}$ (или $\vec{H}$ и $\vec{E} := \frac{1}{ik} \nabla \times \vec{H}$) удовлетворяют системе уравнений Максвелла.

Пусть Ω – ограниченная односвязная область в R^3 с границей $\partial\Omega$, состоящей из компактной связной части T плоскости $y_3 = 0$ и гладкого куска поверхности Ляпунова S , лежащей в полупространстве $y_3 \geq 0$: $\bar{\Omega} = \Omega \cup \partial\Omega$, $\partial\Omega = S \cup T$.

Обозначим для области Ω с границей $\partial\Omega$ класса C^2 линейное пространство векторных полей:

$$\mathbb{F}(\Omega) := \left\{ \vec{E} : \bar{\Omega} \rightarrow C^3 \mid \vec{E} \in C^2(\Omega) \cap C(\bar{\Omega}), \nabla \cdot, \nabla \times \vec{E} \in C(\bar{\Omega}) \right\}.$$

Теорема 3. ([5; стр. 132-133]). Пусть вектор-функция $\vec{E}(y) \in \mathbb{F}(\Omega)$ — решение векторного уравнения Гельмгольца:

$$\Delta \vec{E} + k^2 \vec{E} = 0 \quad \text{в } \Omega.$$

Тогда справедливо интегральное представление:

$$\begin{aligned} & \nabla \times \int_{\partial\Omega} [\vec{n}(y), \vec{E}(y)] \Phi_\sigma(y, x; \lambda) dS_y - \nabla \cdot \int_{\partial\Omega} (\vec{n}(y), \vec{E}(y)) \Phi_\sigma(y, x; \lambda) dS_y - \\ & - \int_{\partial\Omega} \left\{ [\nabla \times \vec{E}(y), \vec{n}(y)] + \vec{n}(y) \nabla \cdot \vec{E}(y) \right\} \Phi_\sigma(y, x; \lambda) dS_y = \begin{cases} -\vec{E}(x), & x \in \Omega, \\ 0, & x \in R^3 \setminus \bar{\Omega}, \end{cases} \end{aligned} \quad (19)$$

где $\Phi_\sigma(y, x; \lambda)$ определяется из (1.2.6).

Пусть $\vec{e} \in R^3$ — постоянный вектор; определим векторные поля, удовлетворяющие векторному уравнению Гельмгольца:

$$\begin{aligned} \vec{E}_1(x) &:= \nabla_x \times \vec{e} \Phi_\sigma(y, x; \lambda), \\ \vec{E}_2(x) &:= \vec{e} \Phi_\sigma(y, x; \lambda), \\ \vec{E}_3(x) &:= \nabla_x \Phi_\sigma(y, x; \lambda), \quad x \in R^3 \setminus \{y\}. \end{aligned} \quad (20)$$

Тогда теорема 2 даёт интегральное представление любого решения векторного уравнения Гельмгольца с помощью полей $\vec{E}_1, \vec{E}_2, \vec{E}_3$, где $\Phi_\sigma(y, x; \lambda)$ определяется из (12), (13).

Задача 2. (задача Коши для векторного уравнения Гельмгольца). Определить векторное поле $\vec{E}(y) \in \mathbb{F}(\Omega)$ (т.е. векторное поле $\vec{E}(y) \in C^2(\Omega) \cap C(\bar{\Omega})$, у которого $\nabla \cdot \vec{E}(y), \nabla \times \vec{E}(y) \in C(\bar{\Omega})$) удовлетворяющее векторному уравнению Гельмгольца в Ω и граничному условию

$$[\vec{n}(y), \vec{E}(y)] = \vec{f}(y), \quad \nabla \cdot \vec{E}(y) = g(y), \quad y \in S, \quad (21)$$

$g(y) \in C^{0,\alpha}(S)$ — заданная функция, $\vec{f}(y) \in \mathcal{A}^{0,\alpha}(S)$ — заданное касательное поле.

Замечание 1. Задача 2 эквивалентна задаче 1. То есть справедлива аналог теоремы 1 для векторного уравнения Гельмгольца с условием (21).

Из соотношения $\Delta \nabla \cdot \vec{E}(y) = \nabla \cdot \Delta \vec{E}(y)$ видно, что для любого решения $\vec{E}$ векторного уравнения Гельмгольца $\nabla \cdot \vec{E}$ удовлетворяет скалярному уравнению Гельмгольца. Справедлива

Лемма 1. Пусть вектор — функция $\vec{E}(y)$ удовлетворяет условию теоремы 3. Тогда справедлива формула

$$\nabla \cdot \vec{E}(x) = \int_{\tilde{S}} \left\{ \nabla \cdot E(y) \frac{\partial \Phi_\sigma(y, x; \lambda)}{\partial n} - \Phi_\sigma(y, x; \lambda) \frac{\partial \operatorname{div} E(y)}{\partial n} \right\} dS_y, \quad x \in \Omega, \quad (22)$$

где $\tilde{S}$ обозначает поверхность, параллельную $\partial\Omega$, разделяющую точку x от $\partial\Omega$. В частности, $\nabla \cdot \vec{E}$ удовлетворяет скалярному уравнению Гельмгольца в Ω .

Замечание 2. Из леммы 1 вытекает, что $\nabla \cdot \vec{E}$ является решением скалярного уравнения Гельмгольца.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Алексидзе М. А. Фундаментальные функции в приближённых решениях граничных задач. — М.: Наука, 1989. — 350 с.

2. Жданов М. С. Теория обратных задач и регуляризации в геофизике. – М.: Научный мир, 2007. – 712 с.
3. Hào D.N., Lesnic D., *The Cauchy problem for Laplace's equation using the conjugate gradient method*, IMA J. Appl. Math. 2000. 65. – P. 199–217.
4. Кабанихин С.И., Криворотько О.И., Шишенин М.А. О численном решении обратной задачи термоакустики // Сиб. журн. вычисл. матем. 2013. Т. 16, № 1. – С. 39–44.
5. Ковтунов Д.А. Моделирование обратных граничных задач стационарной тепловой конвекции высоковязкой жидкости: дис. канд. физ.-мат. наук: 05.13.18. ИММ УрО РАН, Екатеринбург, 2010. – 160 с.
6. Колтон Д., Кресс Р. Методы интегральных уравнений в теории рассеяния. – М.: Мир, 1987. – 311 с.
7. Marin L., Lesnic D., *The method of fundamental solutions for the Cauchy problem associated with two-dimensional Helmholtz-type equations*, Comput. Struct. 2005. 83. – P. 267–278.
8. Marin L., *Boundary element-minimal error method for the Cauchy problem associated with Helmholtz-type equations*, Comput. Mech. 2009. 44. – P. 205–219.
9. Marin L., *An alternating iterative MFS algorithm for the Cauchy problem for the modified Helmholtz equation*, Comput. Mech. 2010. 45. – P. 665–677.
10. Самарский А. А., Вабищевич П. Н. Численные методы решения обратных задач математической физики: Учебное пособие. Изд. 3-е. — М.: Издательство ЛКИ, 2009. — 480 с.
11. Colton D, Kress R. *Inverse Acoustic and Electromagnetic Scattering Theory*. - Springer New York Heidelberg Dordrecht London Science + Business Media New York, 2013. – 405 p.
12. Ярмухамедов Ш. О продолжении решения уравнения Гельмгольца // Докл. РАН. 1997. – Т. 357. – №3. – С. 320-323.
13. Qin H.H., Wei T., Shi T., *Modified Tikhonov regularization method for the Cauchy problem of the Helmholtz equation*, J. Comput. Appl. Math. 2009. 224. – P.39–53.
14. Qin H.H., Wei T., *Two regularization methods for the Cauchy problems of the Helmholtz equation*, Appl. Math. Model. 2010. 34. – P. 947–967.
15. Wei T., Qin H. H, Shi R., *Numerical solution of an inverse 2D Cauchy problem connected with the Helmholtz equation*, Inverse Probl. 2008. 24. – P. 1–18.
16. Хенл Х., Мауэ П., Вестпфаль К. Теория дифракции. – М.:Мир, 1964. – 428 с.

TURLI SANOQ SISTEMALARIDA BO'LINISH BELGILARI

Madirimov Mamatsoli,

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti professori

Nurillayev Muzaffar Eshnazarovich,

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti dotsenti

Rizayev Rustam Kobilovich,

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Jabborov Muhammadi Musurmon o'g'i,

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

rrqobilovich@umail.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada turli pozitsion sanoq sistemalarida sonlarning bo'linish belgilarini aniqlash masalalari yoritilgan. Sanoq sistemalarining nazariy asoslari, sonlarning asos bo'yicha yozilishi va raqamlar yig'indisi bilan bog'liq xossalar tahlil qilingan. Paskal alomatining ixtiyoriy asosli sanoq sistemalari uchun umumiy teoremasi bayon etilib, uning isboti hamda amaliy qo'llanilishi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, qiymat koeffitsiyentlarining davriyligi o'rganilgan va o'nlik hamda ikkilik sanoq sistemalarida bo'linuvchanlikni tekshirishga oid misollar keltirilgan. Tadqiqot natijalari sonlar nazariyasi, diskret matematika va kompyuter arifmetikasida bo'linish belgilarini umumiy nazariy asosda o'rganish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: sanoq sistemasi, bo'linish belgisi, Paskal alomati, pozitsion sanoq sistemasi, sonlar nazariyasi, taqqoslama, modulyar arifmetika, raqamlar yig'indisi, bo'linuvchanlik, kompyuter arifmetikasi.

ПРИЗНАКИ ДЕЛИМОСТИ В РАЗЛИЧНЫХ СИСТЕМАХ СЧИСЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы определения знаков деления чисел в различных позиционных системах счисления. Анализируются теоретические основы систем счисления, запись чисел по основанию и свойства, связанные с суммой чисел. Формулируется общая теорема о знаке Паскаля для систем счисления с произвольным основанием, приводятся её доказательство и практическое применение. Также изучается периодичность значений коэффициентов, и приводятся примеры проверки делимости в десятичных и двоичных системах счисления. Результаты исследования позволяют изучать знаки деления в теории чисел, дискретной математике и компьютерной арифметике на общетеоретической основе.

Ключевые слова: система счисления, знак деления, знак Паскаля, позиционная система счисления, теория чисел, сравнение, модульная арифметика, сумма чисел, делимость, компьютерная арифметика.

DIVISIBILITY CRITERIA IN DIFFERENT NUMERAL SYSTEMS

Abstract. This article discusses the issues of determining the division signs of numbers in various positional number systems. The theoretical foundations of number systems, the writing of numbers by base, and the properties associated with the sum of numbers are analyzed. The general theorem of Pascal's sign for number systems with an arbitrary base is stated, its proof and practical application are shown. Also, the periodicity of value coefficients is studied and examples of checking divisibility in decimal and binary number systems are given. The results of the research allow us to study division signs in number theory, discrete mathematics, and computer arithmetic on a general theoretical basis.

Keywords: number system, division sign, Pascal's sign, positional number system, number theory, comparison, modular arithmetic, sum of numbers, divisibility, computer arithmetic.

Kirish. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida algoritmlar nazariyasi va hisoblash tizimlari uchun zarur bo'lgan nazariy asoslarni, xususan, sonlar nazariyasining tatbiqiy jihatlarini o'rganish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mazkur yo'nalishlardan biri sifatida turli sanoq sistemalarini o'rganish va ulardagi bo'linish belgilarini aniqlash masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'nlik sanoq sistemasida bo'linish belgilarining mavjudligi arifmetik hisoblashlarni soddalashtiradi. Biroq zamonaviy hisoblash tizimlari asosan

ikkilik, sakkizlik va o'n oltilik sanoq sistemalari bilan ishlaydi. Shu sababli, ushbu sistemalarda sonlarning bo'linuvchanlik belgilarini umumiy nazariy asosda tadqiq qilish, Paskal alomati kabi universal teoremlarni ixtiyoriy g asosli sistemalar uchun umumlashtirish ilmiy jihatdan dolzarb masaladir.

Har qanday pozitsion sanoq sistemasining asosi sifatida $g > 1$ natural soni olinadi. Agar sanoq sistemasi asosi g bo'lsa, undagi raqamlar to'plami $\{0, 1, 2, \dots, g-1\}$ ko'rinishida bo'ladi. Ixtiyoriy natural N sonining g asosli sistemadagi yozuvini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$N = a_n g^n + a_{n-1} g^{n-1} + \dots + a_1 g + a_0$$

Bunda a_i — sistema raqamlari, g — sistema asosi bo'lib, ushbu ifoda sonning razryadlar bo'yicha yoyilmasi hisoblanadi.

Sanoq sistemalarining fundamental xossalardan biri — bu sonning tanlangan asosda yagona ko'rinishda ifodalanishidir. Ya'ni, berilgan g asosi uchun a_i raqamlar to'plami yagona tarzda aniqlanadi. Buni isbotlash uchun teskari faraz qilib, ikkita turli yoyilma mavjud deb olsak, g ularning ayirmasi nolga teng bo'lishi va natijada har bir xona birligidagi raqamlar o'zaro teng bo'lishi kelib chiqadi. Shuningdek, N sonini g -asosli sistemada ifodalaganda, raqamlar soni $n+1$ ga teng bo'ladi va bu yerda $n = [\log_g(N)]$ munosabati o'rinalidir.

Sanoq sistemasida har bir raqam o'z pozitsiyasiga ko'ra qiymatga ega. Masalan, eng o'ngdagi a_0 raqami birliklar xonasini (g^0), keyingi a_1 raqami esa g -lar xonasini (g^1) anglatadi. Ixtiyoriy a_i raqamini topish uchun quyidagi matematik formuladan foydalaniladi:

$$a_i = \left[\frac{N}{g^i} \right] \pmod{g}$$

Bu formula sonni qismlarga bo'lish va qoldiq olish orqali uning istalgan xona birligidagi raqamini aniqlash imkonini beradi. Masalan, ikkilik sanoq sistemadagi $(11010)_2$ sonini o'nlik sistemaga o'tkazishda har bir raqam 2 ning mos darajalariga ko'paytirilib, natijada 26 soni hosil qilinadi.

Sonlar nazariyasida bo'linish belgilarini isbotlashda raqamlar yig'indisi ($S(N)$) muhim rol o'ynaydi. Taqqoslamaning asosiy teoremlardan biriga ko'ra, g asosli sanoq sistemadagi ixtiyoriy N soni o'zining raqamlar yig'indisi bilan $(g-1)$ moduli bo'yicha taqqoslanadi:

$$N \equiv S(N) \pmod{g-1}$$

Bundan kelib chiqadiki, son $(g-1)$ ga bo'linishi uchun uning raqamlar yig'indisi ham shu songa bo'linishi shart. Xuddi shunday, "kuchaytirilgan yig'indi" (sonning juft o'rinda turgan raqamlari yig'indisi bilan toq o'rinda turgan raqamlari yig'indisining ayirmasi) uchun

$$N \equiv S_p(N) \pmod{g+1}$$

taqqoslamasi o'rinni. Bu xossalalar o'nlik sistemadagi 9 va 11 ga bo'linish belgilarining umumlashtirilgan ko'rinishidir.

Murakkabroq bo'linish belgilarini tekshirishda raqamlarni guruhlariga ajratish usuli qo'llaniladi. Agar sonning raqamlarini o'ngdan chapga qarab k tadan guruhlasak, u holda

$$N \equiv M \pmod{g^k - 1}$$

munosabati bajariladi (bu yerda M — guruhlar yig'indisi). Masalan, o'nlik sistemada sonning 999 ga bo'linishini tekshirish uchun uni uch tadan raqamli guruhlariga ajratib qo'shish kifoya.

Sonlarning bo'linuvchanlik nazariyasida ixtiyoriy pozitsion sanoq sistemalari uchun umumiy hisoblash qonuniyatlarini ishlab chiqish muhim amaliy va nazariy ahamiyatga ega. Bu yo'nalishdagi fundamental tadqiqotlar XVII asrning birinchi yarmida fransuz matematigi va faylasufi Blezy Paskal tomonidan boshlab berilgan. Paskal o'zining "*Traité d'Arithmétique*" nomli risolasida istalgan pozitsion sanoq sistemasida o'rinni bo'lgan bo'linishning umumiy prinsipini bayon etdi. Garchi muallif o'z davrida ushbu qonuniyatni geometrik usullar yordamida asoslagan bo'lsa-da, XIX-XX asrlarga kelib Karl Fridrix Gaussning taqqoslamalar nazariyasi hamda berilgan modul bo'yicha taqqoslama yordamida ushbu alomat qat'iy matematik shaklga keltirildi.

Paskal alomatining matematik modelini shakllantirishda ixtiyoriy g ($g \geq 2$) asosli sanoq sistemasida berilgan N sonini ko'rib chiqamiz:

$$N = (a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0)_g$$

Bu yerda a_i koeffitsiyentlari $0 \leq a_i < g$ shartni qanoatlantiruvchi sanoq sistemasi raqamlaridir. Pozitsion yozuv qonuniyatiga ko'ra, ushbu sonni asosning darajalari bo'yicha ko'phad ko'rinishida ifodalashi bizga ma'lum:

$$N = a_n \cdot g^n + a_{n-1} \cdot g^{n-1} + \dots + a_1 \cdot g + a_0 = \sum_{i=0}^n a_i \cdot g^i$$

1-ta'rif. Berilgan N sonining ixtiyoriy musbat butun d bo'luvchiga qoldiqsiz bo'linishini aniqlovchi $W(N)$ funksiyasi quyidagi ko'rinishdagi chiziqli kombinatsiya sifatida aniqlanadi:

$$W(N) = \sum_{i=0}^n a_i \cdot r_i$$

bu yerda r_i koeffitsiyentlari sanoq sistemasini asosi g ning darajalarini d moduliga ko'ra bo'lgandagi qoldiqlari, ya'ni vazn koeffitsiyentlaridir:

$$r_i \equiv g^i \pmod{d} \quad \text{yoki} \quad r_i = g^i \pmod{d}$$

1-teorema (Paskal alomatining umumiy teoremasi). Ixtiyoriy g asosli sanoq sistemasida yozilgan N soni va ixtiyoriy musbat butun d bo'luvchi uchun quyidagi taqqoslama har doim o'rinlidir:

$$N \equiv W(N) \pmod{d}$$

Isboti. Pozitsion sanoq sistemasining ta'rifiga asosan N sonining qiymati uning raqamlari va mos darajali asoslari ko'paytmalari yig'indisiga teng. Modulyar arifmetikaning fundamental xossalariga ko'ra, agar ikki son bir xil modul bo'yicha taqqoslanuvchi bo'lsa, ularni ixtiyoriy butun songa ko'paytirish va o'zaro hadma-had qo'shish taqqoslama munosabatini o'zgartirmaydi.

Vazn koeffitsiyentlarining ta'rifidan quyidagi munosabat mavjud:

$$g^i = r_i \pmod{d}$$

Ushbu taqqoslamaning ikkala qismini sonning mos raqami a_i ga ko'paytiramiz:

$$a_i \cdot g^i \equiv a_i \cdot (r_i \pmod{d})$$

Hosil bo'lgan ifodalarni i indeksining 0 dan n gacha bo'lgan barcha qiymatlari uchun hadma-had jamlaymiz:

$$\sum_{i=0}^n a_i \cdot g^i \equiv \sum_{i=0}^n a_i \cdot r_i \pmod{d}$$

Taqqoslamaning chap qismi N sonining analitik ifodasini, o'ng qismi esa vaznli yig'indi funksiyasi $W(N)$ ni ifodalaydi. Bundan:

$$N \equiv W(N) \pmod{d}$$

munosabat kelib chiqadi. Mazkur taqqoslamadan ko'rinib turibdiki, N soni d bo'luvchiga bo'linganda qanday qoldiq bersa, $W(N)$ yig'indi ham xuddi shunday qoldiq beradi. Xususan, N soni d ga qoldiqsiz bo'linadi faqat va faqatgina uning qiymat yig'indisi d ga qoldiqsiz bo'linsa, ya'ni $W(N) \equiv 0 \pmod{d}$

sharti bajarilsa. Teorema to'liq isbotlandi.

Katta tartibli sonlar bilan amallar bajarishda qiymat koeffitsiyentlarini cheksiz hisoblash talab etilmaydi. Bu qonuniyat qoldiqlarning o'ziga xos algebraik xossasiga asoslanadi.

2-teorema (Qiymat koeffitsiyentlarining davriyligi). Qaralayotgan sanoq sistemasining asosi g va bo'luvchi d uchun aniqlanadigan $\{r_0, r_1, r_2, \dots\}$ qoldiqlar ketma-ketligi har doim davriy xarakterga ega bo'ladi.

Isboti. Taqqoslama moduli d bo'lganligi sababli, har qanday butun sonni d ga bo'lganda hosil bo'ladigan qoldiqlar to'plami cheklidir va u $R = \{0, 1, 2, \dots, d-1\}$ ko'rinishida bo'ladi. To'plam elementlari soni aniq d taga teng. Dirixle prinsipiga ko'ra, agar ketma-ketlikning ko'rib chiqilayotgan elementlari soni d dan ortsa, undagi qiymatlar albatta takrorlanishi shart.

Demak, shunday p va q indekslar mavjudki ($p < q$), ularda $r_p = r_q$ tengligi bajariladi. Bu esa quyidagi taqqoslamaning o'rinli ekanligini anglatadi:

$$g^p \equiv g^q \pmod{d}$$

Ushbu taqqoslamaning ikkala qismini g^k (bu yerda $k \geq 0$) ifodaga ko'paytirib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$g^{p+k} \equiv g^{q+k} \pmod{d}$$

Bu munosabat ketma-ketlikning ma'lum bir elementdan boshlab to'liq takrorlanishini, ya'ni davriyligini isbotlaydiki, uning eng kichik musbat davri $T = q - p$ ko'rinishida aniqlanadi. Sanoq

sistemi asosi va modul o'zaro tub bo'lgan holda $EKUB(g, d) = 1$, davr har doim $r_0 = 1$ elementdan boshlanadi va sof davriy ketma-ketlikni hosil qiladi.

Paskal alomatining universal tabiati shundaki, elementar matematikada qo'llaniladigan barcha xususiy bo'linish qoidalarini ushbu umumiy alomatning xususiy ko'rinishlaridir. Quyida taqqoslamalar asosida kelib chiquvchi asosiy natijalarni ko'rib chiqamiz.

1 - natija ($d = g - 1$ holati). Sanoq sistemi asosidan bir birlikka kichik bo'lgan songa bo'linishni tekshirishda (masalan, o'nlik sanoq sistemasida 9 ga bo'linish) $g \equiv 1 \pmod{g-1}$ munosabati o'rinlidir. Taqqoslama xossasiga ko'ra, uning ixtiyoriy darajasi uchun ham

$$g^i \equiv 1^i \equiv 1 \pmod{g-1}$$

To'g'ri taqqoslama bo'ladi. Demak, barcha qiymat koeffitsiyentlari birga teng bo'ladi:

$$r_0 = r_1 = \dots = r_n = 1$$

U holda qiymatli yig'indi funksiyasi sonning raqamlari yig'indisiga aylanadi:

$$W(N) = a_0 + a_1 + \dots + a_n = S(N)$$

Bundan kelib chiqadiki, son $g - 1$ ga bo'linishi uchun uning raqamlari yig'indisi $g - 1$ ga qoldiqsiz bo'linishi zarur va yetarli.

2 - natija ($d = g + 1$ holati). Sanoq sistemi asosidan bir birlikka katta bo'lgan songa bo'linishda (masalan, o'nlik tizimda 11 ga bo'linish) $g \equiv -1 \pmod{g+1}$ taqqoslamasi o'rinli bo'ladi. Bu holda darajali asoslar uchun qiymat koeffitsiyentlari quyidagi ishora almashinuvchi ko'rinishni oladi:

$$r_i \equiv (-1)^i \pmod{g+1}$$

Natijada vaznli yig'indi ishorasi almashinuvchi raqamlar yig'indisini ifodalaydi:

$$W(N) = a_0 - a_1 + a_2 - a_3 + \dots = S_p(N)$$

Son faqat va faqatgina uning o'ngdan chapga qarab hisoblangan ishora almashinuvchi raqamlar yig'indisi $g + 1$ ga bo'lingandagina qoldiqsiz bo'linadi.

3 - natija. Agar g asosining d moduli bo'yicha aniqlangan eng kichik musbat davri T ga teng bo'lsa, u holda sonning raqamlarini o'ngdan chapga qarab T tadan guruhlab, alohida guruhlarga ko'rinishida qo'shish hisoblash vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi. Son quyidagi ko'rinishda guruhlanadi:

$$N = (D_m D_{m-1} \dots D_1 D_0)$$

bu yerda har bir D_i qiymati T ta raqamdan tashkil topgan mustaqil son. Paskal teoremasining chiziqli xossasiga ko'ra, quyidagi algebraik munosabat o'rinli bo'ladi:

$$N \equiv D_0 + D_1 + D_2 + \dots + D_m \pmod{d}$$

Ushbu usul o'nlik sanoq sistemasida 999 yoki 1001 kabi murakkab modullarga bo'linishni tekshirishni ko'p xonali sonlarni qo'shish amaliga keltirish imkonini beradi.

Paskal alomatining amaliy samaradorligini va turli asoslardagi ishchi xarakterini ko'rsatish uchun aniq matematik misollarni tahlil qilamiz. Pozitsion sanoq sistemalarida sonlarning bo'linuvchanligini aniqlash uchun ishlatiluvchi matematik usuli.

1-masala. O'nlik sanoq sistemasida ($g = 10$) berilgan $N = (3241)_{10}$ sonining $d = 7$ ga bo'linishini Paskal alomati orqali tekshiring.

Yechish: Birinchi qadamda, $r_0 \equiv 10^0 \pmod{7}$ qoldiqlari orqali qiymat koeffitsiyentlarini hisoblaymiz:

$$i = 0: r_0 \equiv 10^0 \equiv 1 \pmod{7}$$

$$i = 1: r_1 \equiv 10^1 \equiv 3 \pmod{7}$$

$$i = 2: r_2 \equiv 10^2 \equiv 2 \pmod{7}$$

$$(3 \times 10) \equiv 30 \equiv 2 \pmod{7}$$

$$i = 3: r_3 \equiv 10^3 \equiv 6 \pmod{7}$$

$$2 \times 10 \equiv 6 \pmod{7}$$

Keyingi qadamda takrorlanish hosil bo'ladi. Davr uzunligi $T = 6$ bo'lib, asosiy koeffitsiyentlar ketma-ketligi $\{1, 3, 2, 6, 4, 5\}$ ko'rinishida bo'ladi.

Berilgan sonning raqamlarini o'ngdan chapga qarab mos koeffitsiyentlarga ko'paytirib, qiymatli yig'indini hisoblaymiz:

$$W(3241) = 1 \cdot 1 + 4 \cdot 3 + 2 \cdot 2 + 3 \cdot 6 = 1 + 12 + 4 + 18 = 35$$

7 modulga ko'ra taqqoslama orqali tekshirib ko'rishimiz mumkin:

$$35 \equiv 0 \pmod{7}$$

Qiyamatli yig'indi 7 ga qoldiqsiz bo'lingani sababli, Paskal teoremasiga asosan $N = 3241$ soni ham 7 ga qoldiqsiz bo'linadi.

2-masala. Ikkiilik sanoq sistemasida ($g = 2$) berilgan $N = (11011)_2$ sonining $d = 5$ ga bo'linishini tekshiring.

Yechish: Ikkiilik asosning 5 moduliga ko'ra qiymat koeffitsiyentlarini aniqlaymiz:

$$r_i \equiv 2^i \pmod{5}.$$

Hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} r_0 &\equiv 2^0 \equiv 1 \pmod{5}, \\ r_1 &\equiv 2^1 \equiv 2 \pmod{5}, \\ r_2 &\equiv 2^2 \equiv 4 \pmod{5}, \\ r_3 &\equiv 2^3 \equiv 8 \equiv 3 \pmod{5}, \\ r_4 &\equiv 2^4 \equiv 16 \equiv 1 \pmod{5}. \end{aligned}$$

Demak, qiymat koeffitsiyentlari quyidagi davriy ketma-ketlikni hosil qiladi:

$$\{1, 2, 4, 3\},$$

bu yerda davr uzunligi $T = 4$.

Endi, son raqamlarini o'ngdan chapga qarab belgilaymiz:

$$N = (11011)_2, a_0 = 1, a_1 = 1, a_2 = 0, a_3 = 1, a_4 = 1.$$

Qiyamatli yig'indini hisoblaymiz:

$$W(N) = \sum_{i=0}^4 a_i r_i = 1 \cdot 1 + 1 \cdot 2 + 0 \cdot 4 + 1 \cdot 3 + 1 \cdot 1 = 1 + 2 + 0 + 3 + 1 = 7$$

5 asosga taqqoslamaga ko'ra:

$$N \equiv W(N) \pmod{5} \text{ shuning uchun } N \equiv 7 \equiv 2 \pmod{5}.$$

Demak, $(11011)_2$ soni 5 ga qoldiqsiz bo'linmaydi.

Xulosa qilib ayganda, Paskal alomati ixtiyoriy asosli pozitsion sanoq sistemalarida sonlarning bo'linuvchanligini aniqlovchi eng yuqori umumiylikga ega universal qoidadir. U sonlar nazariyasining klassik qonuniyatlarini va zamonavoy hisoblash matematikasi sohasini o'zaro bog'lovchi, samaradorligi yuqori bo'lgan mukammal matematik model hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-son Qarori. – Toshkent, 2020-yil 7-may.
2. Al-Xorazmiy, Muhammad ibn Muso. Hind hisobi haqida risola. – Toshkent: Fan, 1983.
3. Гаусс К.Ф. Арифметические исследования. – Москва: Наука, 1959.
4. Виноградов И.М. Основы теории чисел. – Москва: Наука, 1981.
5. Гельфонд А.О. Теория чисел. – Москва: Наука, 1971.
6. Курош А.Г. Курс высшей алгебры. – Москва: Наука, 1975.
7. Кострикин А.И. Введение в алгебру. – Москва: Физматлит, 2000.
8. Гаишков С.Б. Системы счисления и их применение. – Москва: МЦНМО, 2004.
9. Кнут Д. Искусство программирования. Том 2: Получисленные алгоритмы. – Москва: Вильямс, 2007.
10. Прасолов В.В. Задачи по алгебре и теории чисел. – Москва: МЦНМО, 2006.
11. Бухштаб А.А. Теория чисел. – Москва: Просвещение, 1966.
12. Нечаев В.И. Элементы криптографии. Основы теории защиты информации. – Москва: Высшая школа, 1999.
13. Лежандр А.М. Теория чисел. – Москва: Государственное издательство физико-математической литературы, 1959.
14. Шарыгин И.Ф. Дискретная математика. – Москва: Дрофа, 2005.
15. Яглом И.М., Яглом А.М. Неэлементарные задачи в элементарном изложении. – Москва: Наука, 1975.
16. Ahmedov A., Xasanov A. Algebra va sonlar nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2016.
17. Jo'rayev T. Oliy algebra kursi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.

18. Karimov Sh. *Sonlar nazariyasiga kirish*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
19. Sodiqov Y., Abdullayev A. *Sonlar nazariyasi va uning tatbiqlari*. – Toshkent: Universitet, 2018.
20. To'rayev B. *Diskret matematika va matematik mantiq*. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2020.
21. Xudoyberganov G', Aliyev R. *Matematikaning diskret usullari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
22. Qosimov A. *Kongruensiyalar nazariyasi va uning qo'llanilishi*. – Toshkent: Universitet, 2021.
23. Abdurahmonov N. *Sanoq sistemalari va kompyuter arifmetikasi*. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022.
24. Azlarov T., Mansurov H. *Matematik analiz asoslari*. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.

TENSOR PRODUCT OF VECTOR SPACES AND SOME PROPERTIES

Nurillaev Muzaffar Eshnazarovich,

Head of the department of Mathematics,
National Pedagogical University of Uzbekistan
nurillaev_muzaffar@mail.ru

Rizaev Rustam Kobilovich,

Senior teacher the department of Mathematics,
National Pedagogical University of Uzbekistan

Fayziev Aslbek Sirojiddin ugli,

First-year Master's student in Teaching Methodology
of Exact and Natural Sciences (Mathematics)

Abstract. The tensor product is one of the most important constructions in modern linear algebra and abstract algebra. It provides a framework for studying bilinear mappings by converting them into linear mappings. Tensor products play a significant role in many branches of mathematics, including differential geometry, representation theory, algebraic topology, and quantum mechanics. This paper presents the definition of the tensor product of vector spaces, discusses its construction through the universal property, and examines several fundamental properties and applications. The tensor product offers a powerful tool for understanding multilinear structures and establishing connections between different mathematical concepts.

Keywords: tensor product, vector space, bilinear mapping, universal property, multilinear algebra, basis, dimension.

ТЕНЗОРНОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ ВЕКТОРНЫХ ПРОСТРАНСТВ И НЕКОТОРЫЕ ЕГО СВОЙСТВА

Аннотация. Тензорное произведение является одной из важнейших конструкций современной линейной и абстрактной алгебры. Оно предоставляет удобный аппарат для исследования билинейных отображений посредством их сведения к линейным отображениям. Тензорные произведения играют значительную роль во многих разделах математики, включая дифференциальную геометрию, теорию представлений, алгебраическую топологию и квантовую механику. В данной работе рассматривается определение тензорного произведения векторных пространств, его построение на основе универсального свойства, а также изучаются некоторые фундаментальные свойства и приложения. Тензорное произведение является мощным инструментом для исследования мультилинейных структур и установления связей между различными математическими концепциями.

Ключевые слова: тензорное произведение, векторное пространство, билинейное отображение, универсальное свойство, мультилинейная алгебра, базис, размерность.

VEKTOR FAZOLARINING TENZOR KO'PAYTMASI VA UNING AYRIM XOSSALARI

Annotatsiya. Tensor ko'paytma zamonaviy chiziqli algebra va abstrakt algebraning eng muhim konstruksiyalaridan biridir. U bilinear akslantirishlarni chiziqli akslantirishlarga keltirish orqali ularni o'rganish uchun qulay nazariy asos yaratadi. Tensor ko'paytmalar matematikaning differensial geometriya, tasvirlar nazariyasi, algebraik topologiya va kvant mexanikasi kabi ko'plab sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada vektor fazolarning tensor ko'paytmasi ta'rifi keltiriladi, uning universal xossa asosidagi qurilishi bayon qilinadi hamda asosiy xossalari va tatbiqlari ko'rib chiqiladi. Tensor ko'paytma ko'p chiziqli (multilinear) strukturalarni o'rganish va turli matematik tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashda kuchli vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tensor ko'paytma, vektor fazo, bilinear akslantirish, universal xossa, multilinear algebra, baza, o'lcham.

Introduction. Linear algebra is a fundamental branch of mathematics that studies vector spaces and linear transformations. While linear mappings are well understood, many mathematical problems involve

functions that depend linearly on more than one variable. Such functions are known as bilinear or multilinear mappings.

Suppose that V and W are vector spaces over a field F . A bilinear map is a function

$$B: V \times W \rightarrow U$$

that is linear in each variable separately. The direct study of bilinear mappings can be complicated because they involve two independent vector variables. To overcome this difficulty, mathematicians developed the concept of the tensor product. The tensor product transforms every bilinear mapping into an ordinary linear mapping. This property makes tensor products extremely useful in both pure and applied mathematics. Tensor products appear naturally in geometry, physics, engineering, and computer science. [4], [5]

2. Preliminaries. Before introducing tensor products, it is necessary to review some basic concepts.

A **vector space** V over a field F is a set equipped with two operations:

1. Vector addition
2. Scalar multiplication

These operations satisfy a collection of axioms such as associativity, commutativity, distributivity, and the existence of additive identities and inverses.

Examples. 1) $\mathbb{R}^n$, the set of all n -dimensional real vectors, 2) $\mathbb{C}^n$, the set of all n -dimensional complex vectors, and 3) $P_n(F)$, the vector space of all polynomials of degree at most n .

Bilinear Mappings. Let V , W , and U be vector spaces over a field F .

A function

$$B: V \times W \rightarrow U$$

is called **bilinear** if it satisfies the following conditions:

$$B(v_1 + v_2, w) = B(v_1, w) + B(v_2, w),$$

$$B(v, w_1 + w_2) = B(v, w_1) + B(v, w_2),$$

$$B(\alpha v, w) = \alpha B(v, w),$$

$$B(v, \beta w) = \beta B(v, w)$$

for all vectors $v, v_1, v_2 \in V$, $w, w_1, w_2 \in W$, and scalars $\alpha, \beta \in F$.

The tensor product is specifically designed to study such mappings.

3. Main part.

The tensor product of two vector spaces is defined through a universal property.

Let V and W be vector spaces over the same field F . A tensor product of V and W is a vector space denoted by $V \otimes W$ together with a bilinear map

$$\tau: V \times W \rightarrow V \otimes W$$

such that for every vector space U and every bilinear map

$$B: V \times W \rightarrow U,$$

there exists a unique linear map

$$\tilde{B}: V \otimes W \rightarrow U$$

satisfying

$$B = \tilde{B} \circ \tau.$$

This condition is called the **universal property** of the tensor product.

The image of a pair (v, w) under the map τ is written as

$$v \otimes w.$$

Such elements are called **elementary tensors**.

The universal property guarantees that every bilinear map can be represented uniquely as a linear map on the tensor product space. The tensor product can be constructed explicitly.

First, consider the free vector space generated by all ordered pairs (v, w) where $v \in V$ and $w \in W$.

Next, impose relations expressing bilinearity:

$$(v_1 + v_2, w) = (v_1, w) + (v_2, w),$$

$$(v, w_1 + w_2) = (v, w_1) + (v, w_2),$$

$$(\alpha v, w) = \alpha(v, w),$$

$$(v, \beta w) = \beta(v, w).$$

After factoring out the subspace generated by these relations, we obtain the tensor product space $V \otimes W$.

This construction ensures that bilinearity is built directly into the structure of the tensor product. [1], [4]

Some properties of tensor products

Tensor products possess several important properties.

Bilinearity: for all vectors $v, v_1, v_2 \in V$ and $w, w_1, w_2 \in W$,

$$(v_1 + v_2) \otimes w = v_1 \otimes w + v_2 \otimes w,$$

$$v \otimes (w_1 + w_2) = v \otimes w_1 + v \otimes w_2,$$

$$(\alpha v) \otimes w = \alpha(v \otimes w),$$

$$v \otimes (\alpha w) = \alpha(v \otimes w).$$

These identities follow directly from the defining relations.

Basis of a Tensor Product. Assume that $\{v_1, v_2, \dots, v_m\}$ is a basis of V and

$\{w_1, w_2, \dots, w_n\}$ is a basis of W .

Then the set

$$\{v_i \otimes w_j \mid 1 \leq i \leq m, 1 \leq j \leq n\}$$

forms a basis of the tensor product space $V \otimes W$.

This theorem is fundamental because it allows tensor products to be studied using ordinary basis techniques.

One of the most useful properties is the dimension formula.

If V and W are finite-dimensional vector spaces, then

$$\dim(V \otimes W) = \dim(V) \cdot \dim(W).$$

Proof. Let $\dim(V) = m$ and $\dim(W) = n$. Since the basis of $V \otimes W$ contains

all tensors $v_i \otimes w_j$, there are exactly $m \times n$ such basis elements. Therefore,

$$\dim(V \otimes W) = mn.$$

The proof is complete.

Associativity. Tensor products satisfy the associative property up to natural isomorphism:

$$(V \otimes W) \otimes U \cong V \otimes (W \otimes U).$$

This means that the placement of parentheses does not affect the essential structure.

Commutativity. Tensor products are commutative up to isomorphism:

$$V \otimes W \cong W \otimes V.$$

The isomorphism is given by

$$v \otimes w \mapsto w \otimes v.$$

Although the spaces are not literally equal, they are structurally equivalent.

Distributive Property. Tensor products distribute over direct sums:

$$V \otimes (W \oplus U) \cong (V \otimes W) \oplus (V \otimes U),$$

and

$$(V \oplus W) \otimes U \cong (V \otimes U) \oplus (W \otimes U).$$

This property simplifies many calculations in linear algebra and abstract algebra.

Examples for tensor products

Example 1. Consider $V = \mathbb{R}^2$ and $W = \mathbb{R}^3$. Since $\dim(V) = 2$ and $\dim(W) = 3$, the dimension formula gives $\dim(V \otimes W) = 6$. Consequently, $\mathbb{R}^2 \otimes \mathbb{R}^3 \cong \mathbb{R}^6$

A basis consists of $e_1 \otimes f_1, e_1 \otimes f_2, e_1 \otimes f_3, e_2 \otimes f_1, e_2 \otimes f_2, e_2 \otimes f_3$.

Example 2. Let $v = (1, 2)$ and $w = (3, 4)$. Then

$$v \otimes w = (1e_1 + 2e_2) \otimes (3e_1 + 4e_2).$$

Using bilinearity,

$$v \otimes w = 3(e_1 \otimes e_1) + 4(e_1 \otimes e_2) + 6(e_2 \otimes e_1) + 8(e_2 \otimes e_2).$$

This example illustrates how tensor products combine information from both vectors.

Tensor products play a fundamental role in many branches of mathematics, physics, and modern technology. They provide a powerful framework for combining algebraic structures and studying interactions

between different mathematical objects. In linear algebra, tensor products simplify the investigation of bilinear forms, multilinear mappings, and linear transformations by converting multilinear problems into linear ones. This makes them an essential tool in the study of vector spaces and their relationships. In differential geometry, tensor products are used to define tensor fields on smooth manifolds. Many important geometric objects, such as Riemannian metrics, differential forms, and curvature tensors, are naturally expressed through tensor products of tangent and cotangent spaces. Consequently, tensor products form the algebraic foundation of modern geometry and general relativity. Tensor products also have significant applications in quantum mechanics. The state space of a composite quantum system is represented by the tensor product of the state spaces of its individual components. If H_1 and H_2 are Hilbert spaces

corresponding to two quantum particles, then the state space of the combined system is given by $H_1 \otimes H_2$.

This construction is fundamental for describing quantum entanglement, one of the most important phenomena in quantum theory. In representation theory, tensor products are employed to construct new representations from existing representations of groups, rings, and algebras. They provide a systematic method for studying the structure of algebraic objects and their symmetries. Furthermore, tensor methods have become increasingly important in data science and machine learning. Modern applications include computer vision, signal processing, deep learning, recommendation systems, and multidimensional data analysis. Tensor-based techniques allow researchers to efficiently represent and process large-scale datasets with multiple dimensions, making them valuable tools in contemporary scientific computing and artificial intelligence. [6], [7]

Therefore, tensor products serve as a unifying concept that connects diverse areas of mathematics, physics, and computer science, highlighting their theoretical significance and practical usefulness.

Conclusion. The tensor product is one of the most powerful constructions in modern mathematics. It provides a universal framework for converting bilinear mappings into linear mappings and serves as the foundation of multilinear algebra. Through the universal property, tensor products simplify complex mathematical structures and make them easier to analyze. Several important properties of tensor products have been discussed, including bilinearity, associativity, commutativity, distributivity, and the dimension formula. Examples demonstrate how tensor products are constructed and used in practice. Furthermore, tensor products have numerous applications in mathematics, physics, engineering, and computer science.

Because of their broad applicability and elegant theoretical foundation, tensor products remain an indispensable tool in advanced mathematical research and scientific modeling.

REFERENCES:

1. Axler, S. *Linear Algebra Done Right*. Springer, 2015.
2. Lang, S. *Linear Algebra*. Springer, 1987.
3. Roman, S. *Advanced Linear Algebra*. Springer, 2008.
4. Dummit, D. S., and Foote, R. M. *Abstract Algebra*. Wiley, 2004.
5. Hungerford, T. W. *Algebra*. Springer, 1974.
6. Halmos, P. R. *Finite-Dimensional Vector Spaces*. Springer, 1974.
7. Bourbaki, N. *Algebra I*. Springer, 1989.

MATEMATIK ANALIZ ELEMENTLARINI O‘QITISHDA HARAKATNING MO‘LJALLI ASOSINI SHAKLLANTIRISH

Madirimov Mamatsoli,

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti professori

Koshnazarov Rasul Atabekovich,

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Rajabov Ulug‘bek Tuychiyevich,

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Omonov Olim Isoqovich,

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Xayrullayev Davron Baxodir o‘g‘li,

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

rasulkoshnazarov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada ta’rif teorema va ta’riflarni taxlil qilishda harakatning mo‘ljalli asosi qanday amalga oshirilishi mumkinligi ko‘rib chiqilgan. Harakatning mo‘ljalli asosi bir nechta tiplarga bo‘linishi ularning farqi xar bir topshiriq uchun qaysini foydalanish muxim ekanligi yoritilib berilgan. Misol tariqasida ta’rif va teorema xamda uning taxlili HMA yordamida jadvalda tushunarli bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’rif, teorema, misol, jadval, bir o‘zgaruvchili funksiya, ketma ketlik limiti, funksiya limiti, faoliyat, harakat.

ФОРМИРОВАНИЕ ОРИЕНТИРОВОЧНОЙ ОСНОВЫ ДЕЙСТВИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЭЛЕМЕНТАМ МАТЕМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА

Аннотация. В статье рассматривается, как может быть реализована ориентировочная основа действия при анализе определений, теорем и понятий. Ориентировочная основа действия подразделяется на несколько типов; раскрываются их различия, а также обосновывается, какой тип целесообразно использовать для каждого задания. В качестве примера анализ определения и теоремы с помощью ООД представлен в таблице в понятной форме.

Ключевые слова: определение, теорема, пример, таблица, функция одной переменной, предел последовательности, предел функции, деятельность, действие.

FORMATION OF THE ORIENTING BASIS OF ACTION IN TEACHING ELEMENTS OF MATHEMATICAL ANALYSIS

Abstract. The article examines how the orienting basis of action can be implemented in the analysis of definitions, theorems, and concepts. The orienting basis of action is divided into several types; their differences are explained, and the importance of choosing the appropriate type for each task is highlighted. As an example, the analysis of a definition and a theorem using the orienting basis of action is clearly presented in a table.

Keywords: definition, theorem, example, table, function of one variable, limit of a sequence, limit of a function, activity, action.

Kirish. Inson faoliyat usullarini va uslublarini, obyekt xossalarini, alomatlarini, hodisalar mexanizmlarini tavsiflovchi axborotni qabul qilish va qayta ishlash orqali unga mos faoliyat turlarini o‘zlashtiradi.

O‘zlashtirish fakti faoliyatni bajara olishda namoyon bo‘ladi. Bu faoliyat turli shakllarda – nutq shaklida, moddiy (predmetli) yoki aqliy-mavjud bo‘ladi, ammo u mo‘ljallovchi va bajaruvchi qismlardan tashkil topgan yagona faoliyat sifatida qoladi. Faoliyatning mo‘ljalli asosi bu aqliy harakatlar shaklida mavjud bo‘lgan bilimlardir, ko‘nikmalar esa faoliyatning nutq yoki moddiy shaklda namoyon bo‘ladigan bajaruvchi qismidir.

Shunday qilib, bilimlar va ko‘nikmalar aynan bitta, lekin turli shakllarda mavjud bo‘lgan faoliyatdir.

Aqliy harakatlarni va tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga ko‘ra bilim va ko‘nikmalarni rejali shakllantirishni tashkillashtirish, ongli o‘zlashtirish tizimida harakatning mo‘ljalli asosi

(HMA) sxemalari markaziy o'rinni egallaydi. HMA ga quyidagilar kiradi: 1-faoliyat maqsadini aniq tushunish (nima hosil bo'lishi kerak);

2- dastlabki (berilgan) material bilimlarini olish (analiz ob'ekti, berilgan holda matematik fakt);

3-tadqiqot, instrumentariy bilan ishlash metodlarini egallash;

4-topshiriqning konkret rejasini va uni amalga oshirishning ketma-ketligini shakllantirish;

5-bajarilayotgan harakatlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi haqida fikrlashga yordam beradigan nazorat topshiriqlarini egallash. Bular yaxlit holda talabaga ongli va reja asosida o'quv-kasbiy faoliyatning o'zaro shartlashgan uchta qismini-mo'ljallovchi, bajaruvchi, nazorat- bajarishga imkon beradi.

Ekspperimental tadqiqot HMA ni qo'llagan talabalarda odatdagi ta'lim usulida o'qitilgan talabalarga nisbatan afzalliklarini ko'rsatdi.

O'quv jarayonida qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun HMA sxemalarini yaratish mustaqil ilmiy metodik masala hisoblanadi. HMA sxemalaridan foydalanish kasbiy faoliyatning zaruriy usullarini tizimli va boshqariladigan etib shakllantirishning majburiy sharti hisoblanadi.

P.Ya.Galperin tomonidan ishlab chiqilgan va N.F.Talyzina hamda uning o'quvchilari davom ettirayotgan aqliy harakatlar jarayonini bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga ko'ra, o'qish – faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha faoliyat, mo'ljallari hamda ahliy harakatlarni o'zlashtirishni anglatadi.

Aqliy harakatlar jarayonini o'rganish natijasida o'quvchilarda bilim va ko'nikmani shakllantirish uchun ular o'tishi kerak bo'lgan bosqichlarning quyidagi ketma-ketligi taklif etilgan edi:

1. O'quvchida zarur motivatsiyani paydo qilish. Bunda ichki motivatsiya tashqisiga nisbatan ishonchliroq.

Ko'p sonli zamonaviy psixologlar, pedagoglar va metodistlarning qayd etishicha (T.G.Bogdanova, K.V.Volkov, Z.I.Slepkan, E.D.Telegina, L.M.Fridman), aynan o'qishning motivatsiyasi bilimlar va mahorat tizimini shakllantirishning samaradorligini belgilaydi.

O'qishning motivatsiyasi – o'quvchilarni xatti-harakatini belgilashning murakkab doirasi bo'lib, o'quvchilarni motivatsiya doirasini o'zgartirishning asosiy manbai – bu dunyo bilan uni kengayib borayotgan aloqalarining murakkablashuvidir (N.A.Menchinskaya, G.S.Kostyuk, V.V.Davydov).

Shunday qilib, ko'nikma motivatsiyasini paydo etish talabadan o'quvchilarning o'quv faoliyatini barcha komponentlar birligida maqsadli ishlashdir, hamda o'qish motivatsiyasini rivojlantirishning asosiy yo'li o'quvchida o'z o'quv faoliyatiga faol munosabatni tarbiyalash, natijasida uni muvaffaqiyatli boshqarish uchun asos yaratish degani.

2. Harakatni mo'ljaldagi asosi chizmasini tushuntirish yoki ajratish. Harakatning mo'ljalli asosi (HMA) – “bu inson harakatni bajarish vaqtida haqiqatga tayanadigan shartlar tizimidir” [Galperin P.Ya. Umstvennye deystviya kak osnova formirovaniya mysli i truda // Voprosy psixologii, 1957.-№6.-S.58-69.].

Mazkur bosqichda o'quvchilarga harakat tarkibiga kiradigan mo'ljalli, ijrochi va nazorat operatsiyalari qanday hamda qaysi ketma-ketlikda bajarilishi ko'rsatiladi. O'qituvchi o'z aqliy harakatlarini eksteriorlashtirib, ularni o'quvchilarga moddiy yoki moddiylashtirilgan shaklda taqdim etadi. O'quvchi avval shakllantirilgan harakatlardan foydalanib, HMA ni tuzadi.

HMA ni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishning to'liqligi va usuliga ko'ra P.Ya.Galperin mo'ljalli asoslarning uchta turini va tegishli o'qitishning uchta turini ajratdi [Галперин П.Я. Умственные действия как основа формирования мысли и труда // Вопросы психологии, 1957.-№6.-С.58-69.].

Birinci tur HMA ning to'liqsizligi bilan tavsiflanib, harakatning va uni mahsulining namunasi ko'rinishida taqdim etilgan. HMA ning to'liqsizligi sinov va xatolarga olib keladi. Chunki harakatni bajarish usuli ko'rsatilmay, o'quvchi o'ni o'zi izlaydi. “Harakat vaziyat shartlari va sub'ektning ahvoli o'zgarishiga nisbatan juda nobarqaror hamda ... yangi vazifalarga o'tishda juda cheklangan” [Галперин П.Я. Умственные действия как основа формирования мысли и труда // Вопросы психологии, 1957.-№6.-С.58-69.].

Ikkinchisi harakatni tuluq HMA asosida bajarish bilan ajralib turadi. Ya'ni, HMA nafaqat harakat va uning mahsuli namunalaridan, balki harakatni qanday qilib to'g'ri bajarish bo'yicha batafsil ko'rsatmadan iborat. Birinci turdagi kabi, sinov va xatolar paydo bo'ladi, lekin endi ular tasodifiy hamda o'ziga xos emas.

Yangi vazifalarga o'tish ancha muhim, lekin har xil harakatlarda turlicha.

Uchinchi tur – aniq vaziyatda harakat usulini emas, balki vazifani tahlil qilishga o'qitish. To'liq HMA ning mavjudligi bunda yangi harakat hamda tushunchalarni sinov va xatolarsiz ifodalashni ta'minlaydi. “Harakatni boshidan o'zi mo'ljallangan sohaning barcha hodisalariga to'liq o'tishi kuzatiladi” [Галперин П.Я. Умственные действия как основа формирования мысли и труда // Вопросы психологии, 1957.-№6.-С.58-69.].

V.V.Davidov harakatlarning mo'ljalli asosini ikkinchi va uchinchi turlarning solishtirma tahlilini bajarib, mo'ljallangan asosning ikkinchi turi – bu hodisa darajasida, uning mohiyatning e'tiborsiz, mo'ljal

olish ekanligini ko'rsatdi. Mo'ljall olishning bunday turi empirik fikrlashni shakllantiradi. HMAning uchinchi turi – bu mohiyatga mo'ljall olish, nazariy fikrlashni shakllantirish yo'lidir. [Давыдов В.В. О двух основных путях развития мышления школьников // Материалы 4 Всесоюзного съезда Общества психологов. - Тбилиси, 1971.-С. 686-687.].

3. Harakatni moddiy yoki moddiylashtirilgan shaklda shakllantirish.

O'quvchilar harakatlarni tashqi moddiy yoki moddiylashtirilgan shaklda unga kiradigan barcha operatsiyalarni keng qamrovli bajarish bilan bajaradilar. Bunda faoliyatni moddiy shakli nutq bilan uyg'unlashib, o'quvchilar bajarilayotgan harakatni sharhlashlari lozim.

Mazkur bosqichda harakatlarni umumlashtirish maqsadida o'quvchilar bilan birga mazkur harakatni qo'llashning namunali hollarini aks ettiruvchi masalalarni yechish, lekin bir xil masalalarni ko'p soniga yo'l qo'ymaslik tavsiya etiladi, chunki bu holda harakat qisqartirilishi va avtomatlashtirilishi mumkin. O'quvchilar harakatni moddiy, keng qamrovli, materialni asosiy turlari doirasida umumlashtirilgan hamda operatsiyalarning barcha tarkibiga ko'ra ongli ravishda bajariladigan harakat sifatida o'zlashtiradilar.

4. Harakatni baland ovozda yoki yozma ravishda moddiy (yoki moddiylashtirilgan) vositalarga tayanmagan holda shakllantirish. Harakat tarkibidagi barcha operatsiyalar nutq shaklida o'zlashtirilishi lozim (boshlang'ich sinflarda baland ovozda, o'rta va yuqori sinflarda yozma qayd etish). Harakat bundan keyin umumlashtiriladi, lekin hali avtomatlashtirilgan va qisqartirilmagan bo'ladi. Quyidagi ketma-ketlik bajariladi: avval harakat "o'zining so'zi" bilan aytiladi, keyin asta - sekin ilmiy tilga o'tib, mazkur bosqichning pirovard natijasi hisoblanadi.

5. Harakatni ba'zi elementlarni ichida aytilgan holda shakllantirish. Mazkur va oldingi ikkita bosqichda o'quvchi o'ziga ma'lum bo'lgan HMA chizmasi asosida dasturning har bir qadami bajarilishini kuzatadi. Ushbu bosqichlar o'rtasida farq shundaki, moddiy (yoki moddiylashtirilgan) bosqichda o'quvchi amalda mazkur chizmadan foydalanadi va chizma uning ko'z oldida bo'ladi, keyingi bosqichlarda esa chizma olib qo'yiladi hamda o'quvchi dasturning alohida qadamlarini ovoz chiqarib yoki ichida yoddan gapirib o'tadi. Lekin, kerak bo'lganda, u chizmani ko'rish imkoniyatiga egadir.

6. Harakatni ichki, aqliy sifatida shakllantirish. "Mazkur bosqichda harakat tezkorlik bilan avtomatik holiga o'tadi, o'zini kuzatish uchun noqulayga aylanadi. Endi bu fikrlash harakati bo'lib, jarayon ko'rinmas, aql uchun esa mazkur jarayonning faqatgina mahsuli ochiq" [Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний (психологические основы). - М.: Изд-во МГУ, 1984. - 344 с.].

Demak, bosqichlarni yuqorida keltirilgan ketma-ketligi matematik ko'nikma va mahoratni o'qitishning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan aqliy harakatlarni shakllantirish jarayonini tashkil qilishga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Faoliyatli yondashuvni amalga oshirishda mo'ljallar tizimi ta'lim mazmunining majburiy komponenti bo'lib, u kasbiy tayyorgarlik sifatini oshishiga yordam beradi. (В.В.Давыдов, Н.Ф.Талызина, С.И.Архангельский, В.П.Беспалько, И.Я.Лернер, М.Н. Скаткин, В.В.Краевский ва б.)

Orientirlar tabiati va mohiyatini tushunib olish uchun va matematik analizni o'qitishga nisbatan taxminiy sxemasini tuzish uchun harakatlarning mo'ljalli (orientirlovchi) asosini qarab chiqish lozim. Harakatlarning mo'ljalli asosi tarkibiga bilimlar kiradi, bu bilimlarsiz harakatni muvofaqiyatli bajarib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda sub'ekt qanday harakatlarni bajarishi kerakligi, nima va qaysi tartibda bajarish kerakligini bilish zarur. Bundan tashqari, sub'ekt harakat haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim oluvchi nafaqat matematika predmeti haqida, balki metodik xarakterdagi harakatlar haqidagi bilimlarni va bu harakatlarni tartiblash ko'nikmalarini va boshqalarni egallashi lozim. Harakatlarni mo'ljalli asos baholovchi bilimlar ham, ya'ni harakat nima uchun bajarilayotganligini bilish ham kiradi.

Harakatlarni mo'ljalli asosga (HMA) uch tipga bo'linadi va har bir tipga o'ziga xos o'qitish mos keladi.

Birinchi tip o'qitishning asosida sinov va xatolar metodi tashkil etadi. Bunda ta'lim oluvchi bajariladigan harakatlar haqida tasavvurga ega emas va qo'shimcha harakatning xarakterini ham bilmaydi. Bu orientir eng quyi pog'onasi hisoblanadi. Birinchi tipdagi HMA sxemasi to'la emas va talaba o'quv faoliyatini tarqoq boshqarish bilan xarakterlanadi. Bu degani teskari aloqa yo'q yoki juda sust ekanligini anglatadi. Odatda, birinchi tipdagi o'qitish malakasi past o'qituvchi yoki metodikani egallamagan o'qituvchi tashkil qilgan o'quv jarayoniga xos. Ammo bunday holatni yuqori malakali o'qituvchi muammoli vaziyatni yaratish maqsadida ham hosil qilish mumkin. Birinchi tipdagi HMAga mos keladigan topshiriqqa misol keltiramiz:

Ketma – ketlik va uning limiti mavzusidagi ketma – ketlik limiti ta'rifini qaraymiz.

Ta'rif. Faraz qilaylik $\{x_n\}$ ketma-ketlik va a soni berilgan bo'lsin. Agar $\forall \varepsilon > 0$ soni uchun n_0 nomer topilib, $\forall n > n_0$ larda

$$|x_n - a| < \varepsilon$$

tengsizlik o'rinli bo'laversa, a soni ketma-ketlikning limiti deyiladi.

Masala. Umumiy holda ketma – ketlik limiti birga teng ekanligini isbotlang.

Talaba bu masalani yechishda o'z bilganicha chala berilgan HMA to'ldirishga harakat qiladi, o'z harakatlarining to'g'riligiga ishomaydi. U sinjd va xatolar yo'li bilan harakatlanadi. O'qituvchi esa ikki ma'noli holatda: bir tomondan masala qo'yilgan, uni yechish kerak; ikkinchi tomondan u talaba xarakatlarini nazorat qila olmaydi. Talabaning masalani to'g'ri yechishiga ishonchi yo'q. Natijada talabalarda bilimlarning past darajasi shakllanadi. Bunda, ba'zi talabalar masalani ijobiy hal qilishi istisno qilinmaydi, qolganlar o'zlashtirmovchilar qatorida qolaveradi.

Birinchi tipdagi o'qitishning an'anaviy metodikada etakchi hisoblanadi.

Ikkinchi tipdagi o'qitish HMA to'la sxemasi bilan xarakterlanadi. Bunday sxemalar bog'lanish bosqichida talabalarga tayyor ko'rinishda namuna shaklda yoki sxema shaklda beriladi. Yuqoridagi misolda HMA to'la sxema harakatlarni bajarish ketma-ketligi shakllanadi (sonning ketma – ketlik limiti ekanligi isbotlash sxemasi berilishi mumkin).

1 – sxema

Sonning ketma-ketlik limiti ekanligini isbotlang.

1. $|x_n - a|$ ayirmani tuzish;
2. $|x_n - a| < \varepsilon$ tengsizlikni n ga nisbatan yechish;
3. kerak bo'lsa, tengsizlikni baholashdan foydalanish;
4. tengsizlikni qanoatlantiruvchi biror natural $n_0(\varepsilon)$ sonni topish;
5. topilgan $n_0(\varepsilon)$ uchun ketma-ketlik limiti ta'rifining bajarilishini ko'rsatish.

Yuqorida aytilgan HMA sxemasini misollarda ko'rsatish lozim.

Masala. Quydagi limitni isbotlang:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{n-2}{n} = 1.$$

Avvalo ifodani limit qiymatidan ayiramiz:

$$\left| \frac{n-2}{n} - 1 \right| = \left| \frac{n-2-n}{n} \right| = \left| \frac{-2}{n} \right| = \frac{2}{n}.$$

Endi limit ta'rifidan foydalanamiz. Ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son berilgan bo'lsin. Shunday n_0 natural son topish kerakki, barcha $n > n_0$ lar uchun

$$\left| \frac{n-2}{n} - 1 \right| < \varepsilon$$

tengsizlik bajarilsin.

Yuqorida

$$\left| \frac{n-2}{n} - 1 \right| = \frac{2}{n}$$

ekanligini ko'rdik. Demak,

$$\frac{2}{n} < \varepsilon$$

bo'lishi uchun

$$n > \frac{2}{\varepsilon}$$

bo'lishi yetarli. Shuning uchun

$$n_0 = \left[\frac{2}{\varepsilon} \right]$$

deb olish mumkin. U holda har bir $n > n_0$ uchun

$$n > \frac{2}{\varepsilon}$$

bo'ladi va bundan

$$\frac{2}{n} < \varepsilon$$

kelib chiqadi. Demak,

$$\left| \frac{n-2}{n} - 1 \right| < \varepsilon.$$

Bu esa limit ta'rifiga ko'ra

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{n-2}{n} = 1$$

ekanligini bildiradi.

Keltirilgan misoldan ko'rinadiki, HMA to'la sxemasini amalga oshirish:

- talabani har bir harakati bajarilishini nazorat qilishga;
- harakatlarni bajarishda yordam ko'rsatishga;
- talaba harakatini sxemani amalga oshirishning istalgan bosqichida baholashga imkon beradi.

Ikkinchi o'qitish tizimida o'qituvchi va talabani teskari aloqasi mavjud.

Quyida HMA to'la sxemalariga misollar keltiramiz. Bu sxemalar barcha matematik fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin va asosiy matematik tasdiqlar va ta'riflar, teoremlar formulirovkasi, isbotlari, masalalar, masalalar echimlari va b. bilan bog'liq. Bu masalalar OTM matematika o'qitishining xususiy metodikasiga taalluqli.

Umumiy sxemani ketma – ketlik limiti ta'rifida ko'rsatamiz:

№	Umumiy holdagi harakatlar	Aniq harakatlar
1.	Belgilashlar kiritish, ularni yozish.	A) Ketma-ketlik limiti.
2.	Iloji boricha rasm, chizma chizish.	B) ε, n, n_0 tengsizliklari.
3.	Ta'rifning mantiqiy analizini bajarish. Buning uchun quyidagi savollarga javob berish kerak:	
	A) Qanday tushuncha aniqlanmoqda?	A) Ketma-ketlik limiti.
	B) Ta'rif qanday tushuncha va harakatlar yordamida aniqlanmoqda?	B) ε, n, n_0 tengsizliklari.
	V) Ta'rifda qanday alomatlar foydalanilmoqda?	V1) Ixtiyoriy ε uchun biror n_0 nomer mavjud. V2) ε — musbat son, n — cheksiz ko'p. V3) (
	G) Ta'rifdan qancha jumla ajratib olish mumkin? Har bir jumlaning alohida ayting, yozing.	G) 1) $\forall \varepsilon > 0$ soni uchun n_0 topiladi. 2) $\forall n > n_0$ da (
	D) Ta'rifni struktura shaklida qanday yozish mumkin?	D) $(\forall \text{forall } \varepsilon > 0 \ \exists \text{exists } n_0 \ \forall \text{forall } n > n_0 :$
	Ye) Ta'rifni boshqacha mantiqiy ketma-ketlikda ayting.	E) a soni $\{x_n\}$ ketma-ketlik limiti deyiladi, agar $\forall \varepsilon > 0$ uchun $\exists n_0$ topilib, $\forall n > n_0$ da (
	Misollar keltiring.	$x_n = 1, a = 1$
	Kontrmisol keltiring.	$x_n = (-1)^n, a = 0.$

Teorema formulirovkasi bilan ishlash uchun HMA.

Konkret misol sifatida yaqinlashuvchi ketma – ketlik limitining yagonaligi haqidagi teoremani olamiz.

№	Umumiy holdagi harakatlar	Aniq harakatlar
1.	Belgilashlar kiritish, zarur bo'lsa ularni yozish.	$\{x_n\}, a$
2.	Iloji boricha rasm, chizma chizish.	Ketma-ketlik hadlarining a songa yaqinlashishini tasvirlash mumkin.
3.	Teoremaning mantiqiy analizini bajarish. Buning uchun quyidagi savollarga javob berish kerak:	
	A) Qanday tushunchalar haqida gap boradi?	A) Ketma-ketlik va uning limiti haqida gap boradi.
	B) Bu tushunchalar haqida nimalar ma'lum?	B) Ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lsa, uning limiti mavjud bo'ladi: $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = a.$
	Nimani isbotlash kerak?	Ketma-ketlik limitining yagonaligini isbotlash kerak.
4.	Teoremda nechta tasdiq bor?	Teoremda bitta asosiy tasdiq bor: agar ketma-ketlik limiti mavjud bo'lsa, u yagona bo'ladi.

№	Umumiy holdagi harakatlar	Aniq harakatlar
5.	Teoremani boshqacha shaklda ifodalang.	Agar $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = a$ va $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = b$ bo'lsa, u holda $a = b$ bo'ladi.
6.	Teorema sharti va xulosasini ko'rsating.	Sharti: $\{x_n\}$ ketma-ketlik yaqinlashuvchi va $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = a, \lim_{n \rightarrow \infty} x_n = b$ Xulosasi: $a = b$.
7.	Teoremani qisqa ko'rinishda yozing.	Ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lsa, uning limiti yagona.

Ravshanki, yuqorida aytilgan, HMA sxemalarini teorema yoki ta'rifning tiplariga qarab o'zgartirish mumkin.

O'qishning uchinchi tipi ta'lim oluvchining HMA yaratish bo'yicha mustaqil faoliyati bilan xarakterlanadi. Bu o'qishning eng yuqori tipi bo'lib, uni talabalarning o'quv – tadqiqiy ishlariga, ba'zi hollarda ilmiy ishlarga mos qo'yish mumkin.

POTMdagi ta'lim jarayonida uchinchi tipdagi HMA yaratish va amalga oshirish juda murakkab masala bo'lib, hozirgi kunga qadar o'z echimini topmagan. Uni har bir fan, har bir mavzu, har bir mashg'ulot uchun metodik topshiriqlar yaratish orqali yechish mumkin.

Metodik topshiriq bu – talabani metodik harakatlarni bajarishga yo'naltiradigan topshirig'idir. Talabani mustaqil ravishda HMA yaratishi bu uning kasbiy jihatdan muhim natija bo'lib, talabani metodik tayyorgarligi darajasining yuqori ekanligini bildiradi.

Demak, matematika o'qituvchisi faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri – bo'lg'usi matematika o'qituvchisini HMA to'la sxemasini yaratishga o'rgatishdan iborat. Bu holda HMA to'la sxemasini yaratish talaba uchun metodik topshiriq hisoblanadi. Bunday metodik topshiriqlar tizimi bo'lg'usi matematika o'qituvchisini professionalizmini shakllantirishning samarali vositasi bo'ladi. Quyidagi savol tug'iladi: Matematik analizni o'qitishda talabani HMA to'la sxemasini mustaqil tuzishga qanday o'rgatish mumkin?

Buning uchun quyidagi talablarga javob beruvchi metodik topshiriqlar tuzilishini ko'rish lozim:

1. Tizimlilik, ya'ni HMA tuzish bo'yicha har bir metodik topshiriq natijaviy maqsadga – o'qituvchini shakllantirishga – qaratilgan bo'lishi lozim;

2. Sodda topshiriqdan murakkab topshiriqqa ketma – ket o'tish;

3. Yaxlitlik (bir butunlik), bunda biz barcha matematik fanlarda HMA sxemalarini ishlab chiqishini nazarda tutamiz. Shuning uchun barcha kafedralarning hamjihatligi lozim;

4. HMA sxemalari tizimini qurishga dasturiy – maqsadli yondashuv metodidan foydalanish. Bu talabdan har bir mashg'ulot nafaqat axborot uzatish (reproduksiya), balki talabani aqliy faoliyat madaniyatini, mustaqil ishlashning metodik ko'nikmalari (malakalari)ni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu so'nggi natija aqliy harakatlarni bosqichma – bosqich shakllantirishda mumkin bo'ladi.

Quyida metodik topshiriqlar sinflarini qaraymiz. Bu sinflar talabalarga tayyor HMA to'la sxemasini foydalanishdan o'zlari tomonidan tuzilgan yangi HMA to'la sxemalariga o'tishga yordam beradi.

Birinchi sinf – HMA tayyor standart to'la sxemalarini analiz qilish. Bunda HMA to'la sxemasining har bir bandining mohiyati va o'rni aniqlashtiriladi. Tahlilni bajarishda quyidagi savollar qaratiladi:

Agar sxemadan bir, ikki yoki bir nechta bandlarini olib tashlasa, u holda sxema haqida nima deyish mumkin? U to'raligicha qoladimi? Qaysi bandlarni chiqarib tashlash mumkin emas? Bunda nima sodir bo'ladi? Berilgan sxemada bandlar o'rnini almashtirish mumkinmi, bunda nima bo'ladi?

Ikkinchi sinf. Berilgan matematik holat uchun yozilgan to'la bo'lmagan, sxema asosida to'la sxemani qurish.

Masalan, sonning ketma – ketlik limiti ekanligini isbotlang sxemasida 1, 2, 4, 5 bandlarni u to'la bo'ladigan qilib yangi bandlar bilan to'ldirishni taklif qilish mumkin. Bu topshiriqning to'g'ri echimi tengsizlikni yechishda baholashdan foydalanish hisoblanadi.

Uchinchi sinf – HMA to'la sxemasini tanish. Bu holda talabaga HMA to'la sxemasi taklif etiladi, lekin qaysi matematik jumla taalluqli ekanligi aytilmaydi. Talaba bu jumlaning tayanch so'zlar yoki sxemaning vazifasiga ko'ra aniqlashi lozim.

Masalan,

- 1) funksiyaning kesmada uzluksiz ekanligini tekshiramiz;
- 2) funksiyaning kesma uchlaridagi qiymatlari ishoralarini aniqlaymiz;
- 3) aniqlangan ishoralarga qarab xulosa chiqaramiz.

